

RA'NO RAHIMOVA

TARBIYACHIGA 1001 MASLAHAT

*Maktabgacha ta'limga muassasasida ilk yosh va birinchi
kichik guruh bolalariga ta'limg-tarbiya berish,
2—3 yoshli bolalar nutqini o'stirish hamda tevarak-atrof
bilan tanishtirish mashg'ulotlari ishlanmalari*

*Cho'lon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2007*

71.1

*Maktabgacha ta'lif muassasalari rahbar xodimlarini
qayta tayyorlash va malakasini oshirish Respublika
o'quv metodika Markazining Ilmiy metodik kengashi
tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

Mas'ul muharrir:

Jo'ra G'aniyevich Yo'ldoshev — pedagogika fanlari doktori, professor.

Tagrizchilar:

O. Hasanboyeva — pedagogika fanlari nomzodi, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetining maktabgacha va oilaviy ta'lif kafedrasi mudirasi.

G. Madaminova — Toshkent shahar Hamza tumani 141- MTM mudirasi.

I.Kazakova — Toshkent shahar Uchtepa tumani 20- MTM mudirasi.

„Tarbiyachi kutubxonasi“ nomi ostida ilk marta chop etilayotgan ushbu metodik qo'llanma pedagogika oliy o'quv yurtlarining maktabgacha va oilaviy ta'lif fakulteti hamda kollej talabalari, maktabgacha ta'lif muassasalari mudiralari, metodistlari va tarbiyachilar uchun mo'ljallangan.

Qo'llanmada ilk yosh (1—2 yoshli) va birinchi kichik guruh (2—3 yoshli) bolalari ta'lif-tarbiyasining asosiy vazifalari, ular faoliyatini va tarbiyasini tashkil etish, sog'lomlashtirish, chiniqtirish tadbirlarini rejalashtirish, mashg'ulotlarda ta'lif-tarbiya berish, tarbiyachining ish hujjatlari hamda guruhnini jihozlashga oid metodik tavsiyalar berilgan. 2—3 yoshli bolalar nutqini o'stirish va tevarak-atrof bilan tanishtirish yuzasidan mashg'ulotlar ishlanmalari keltirilgan.

Qo'llanmadagi ayrim mavzular „Ma'rifat“ gazetasi sahifalarida chop etilgan. „Uchinchi mingyillikning bolasi“ tayanch dasturiga muqobil qo'llanma sifatida nashrga tayyorlandi.

20.07

Alisher Navciy
nomidagi
O'zbekiston Mif

R 4306012200-65 — 2007
360(04)-2005

ISBN 978-9943-05-043-3

H 33529
291

© Cho'lpion nomidagi nashriyot-
matbaa ijodiy uyi, 2007

SO‘ZBOSHI

*Eskini o‘zlashtirgan va yangini
tushunishga qodir insongina
tarbiyachi bo‘la oladi.*

Konfutsiy.

* * *

*Dunyoning quvonchi erur bolalar,
Vatanning ishonchi erur bolalar.
Ular bor — bag‘rimiz umidga to‘liq,
Ularning qadami hamisha qutlug‘.*

*Dunyoning quvonchi erur bolalar,
Qalblari hamisha shodlikka to‘lsin.
Bog‘chalar yashnasin kulgularidan
Har doim baquvvat, salomat bo‘lsin.*

*Dunyoning quvonchi erur bolalar,
Tarbiyachi esa bog‘bon, mehribon.
Ta‘lim-tarbiya bering, seving va asrang
Quyoshdek parvona bo‘lingiz har on.*

Siz tarbiyachi vazifasiga tayinlandingiz. Ertaga birinchi ish kuningiz. Tongda bog‘chaga kelgan bolalar va ularning ota-onalari bilan uchrashib, muloqotga kirishasiz. Hamkasblaringiz qatorida mustaqil ish faoliyatizingizni boshlaysiz.

Sizni guruhimdagi tarbiyalanuvchilarim mehrini, ishonchini qozona olamanmi, ularning ota-onalari hurmatiga sazovor bo‘lishim, hamkasblaram o‘rtasida obro‘-e’tibor qozonishim uchun ishni nimadan boshlashim, o‘zimni qanday tutishim kerak, degan savollar qiyinashi shubhasiz.

Ha, hurmatli hamkasaba, agar siz o‘z kasbingizni jon-dildan yaxshi ko‘rsangiz, bolalarni sevsangiz, ularga bor mehru muhabbatiningizni

бaxshida eta olsangiz, bu kasbni tanlab yanglishmagan bo'lasiz. Kasbingiz mashaqqatli, ammo sharaflı kasblardan hisoblanadi.

Tarbiyachilikning o'ziga xos nozik tomonlari bor. Ish faoliyatningiz davomida siz ularga duch kelasiz ham. Biroq birinchi ish kuningizdan maslahatlarimizga rioya qilsangiz, albatta, ajoyib tarbiyachi bo'lib yetishasiz. Maslahatlarimiz quyidagilardir:

1. Birinchi ish kuningizdan boshlab yuzingizdan tabassum arimasin, u bolalarni ham, ota-onalarini ham, hamkasblaringizni ham befarq qoldirmasın. (Unutmang, tabassumingiz samimiyo bo'lgandagina muvaffaqiyatlarga erishasiz).

2. Xushmuomala bo'ling. Tarbiyalanuvchilaringizning ismlariga albatta „oy“, „bek“, „xon“ va „jon“ qo'shimchalarini qo'shib aytинг, ularni doimo sizlab, ishonchini qozoning. Bolalar ishonchini oqlay olsangiz, ularning eng yaqin kishisi bo'lib qolasiz.

3. O'zingizni muntazam tarbiyalab boring. Tarbiyalanuvchilaringizni yaxshi ta'lif-tarbiya olishlarini istasangiz, doimo o'z ustingizda ishlang. Har kungi faoliyatningizni rejalashtiring, bajargan ishlaringizni kun oxirida tahlil qiling, tahlilga asoslanib o'tgan ish kuningizni baholang.

4. Guruhingiz bolalarining yosh xususiyatlarini, o'sib-ulg'ayishlarini, rivojlanishlarini, ularga beriladigan ta'lif-tarbiyaning mazmunini juda yaxshi bilishingiz lozim. („Uchinchi mingyllikning bolasi“ tayanch dasturidagi o'z guruhingizga tegishli bo'limni, Davlat talablarini o'qib, tushunib oling).

5. Siz bamisoli ijodkor, xushchaqchaq aktyor bo'lishingiz kerak. Olamdag'i barcha go'zalliklarni his etib, bahra olishni bilishingiz, bolalarni ham shu go'zalliklarni ko'rib, his qilib, bahramand bo'lishga o'rgatib borishingiz lozim.

6. Tarbiyalanuvchilaringiz dilini faqat yaxshi, ezgu hislar bilan to'ldiring.

7. Faoliyatningizning asosi maktabgacha yoshdag'i bolalarni mustaqil fikrlashga, o'z fikrlarini bayon eta olishga, jamoat joylarida o'zini tutta bilishga, o'zaro munosabatlarda „boshqariluvchi“ emas, balki „boshqaruvchi“ vazifasini bajarishga o'rgatish, kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirib, maktab ta'limga tayyorlab berishdan iboratdir. Siz bolalarda ona Vatanimizni sevish, unga sodiq bo'lish kabi xislatlarni tarbiyalay olishga ulgurishingiz kerak.

8. Eng yaxshi tarbiyachi qanday bo‘lishi kerakligi haqida mulohaza yuriting va ana shunday biror malakali tarbiyachiga o‘xshashga harakat qiling. Sizning mashaqqatlari, ammo sharafli kasbingizda muvafiqiyatlarga erishishingizga ishonamiz.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga ta’lim-tarbiya berishning hozirgi zamon talabi har bir bola bilan yakka holda ish olib borib, uni har tomonlama — aqlan, ruhan, ma’nani va jismonan rivojlantirish, salomatligini mustahkamlash, ta’lim-tarbiya berish jarayonini ota-onalar bilan hamkorlikda rejalashtirib, reja asosida faoliyat yuritishdan iboratdir.

Shuning uchun o‘z guruhingizdagi har bir bolaning o‘ziga xos xislatlarini hisobga olib ish yuritishingiz lozim. Bunda, albatta, birinchi navbatda ota-onalar bilan hamkorlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishingiz, ularni ishingizning mazmuni, maqsadi, natijalaridan o‘z vaqtida xabardor qilib borishingiz kerak bo‘ladi.

Mazkur metodik qo‘llanma yuzasidan fikr, mulohaza va takliflaringizni quyidagi manzilga jo‘natishingizni so‘raymiz:

*Toshkent shahri, Saidov ko‘chasi 6- uy,
Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar xodimlarini
qayta tayyorlash va malakasini oshirish
Respublika o‘quv metodika Markazi.*

ILK YOSH GURUHI BOLALARI TARBIYASINING VAZIFALARI

Ilk yosh guruhi bolalari tarbiyasining vazifalari quyidagi: jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik tarbiyalardan iborat.

Ilk yosh guruhi bolalari jismoniy tarbiyasining vazifalari:

- har xil kasallikklardan asrash, muhofaza qilish;
- salomatligini mustahkamlash;
- to'liq jismoniy rivojlanishini ta'minlash;
- bolalarga asosiy harakatlarni o'rgatish;
- bolalar harakatchanligi, tetikligini ta'minlash uchun sharoit yaratish, ularning charchab qolishlariga yo'l qo'ymaslik;
- o'z-o'ziga xizmat qilish, orastalik ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Ilk yosh guruhi bolalari aqliy tarbiyasining vazifalari:

- idrokning ko'rish va eshitish turlarini shakllantirish;
- diqqati, xotirasini takomillashtirish, ko'rgazmali harakat tafakkuri va nutqini, o'yin faoliyatini rivojlantirish;
- sensor rivojlantirish.

Ilk yosh guruhi bolalari axloqiy tarbiyasining vazifalari:

- kattalar va tengdoshlari bilan ijobiy munosabatda bo'lishni shakllantirish;
- xulq madaniyati ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish, kattalarning iltimos va talablarini chin dildan bajarish, rahmdil hamda e'tiborli bo'lish hislarini uyg'otish.

Ilk yosh guruhi bolalari estetik tarbiyasining vazifalari:

- dastlabki estetik idrok qilishni shakllantirish. Bolalar diq-qatini tabiatdagi turli-tuman ranglar, shakllar, hidlar, tovushlarga, tanish timsollarning ifodasini ko'ra bilish hamda his eta olishga jalb etish;

— musiqaga bo‘lgan qiziqishini oshirish, uni tinglash jarayonida shodlanish holatini quvvatlab turish, musiqaviy taassurotlarini kengaytirish, eshitish tajribasini boyitish, musiqa bilan harakatlarning o‘zaro bog‘liqligini yo‘lga qo‘yish. Kattalar qo‘sish kuylaganda mazmuniga mos harakatlar bajarishga o‘rgatish.

BOLALAR FAOLIYATI VA TARBIYASINI TASHKIL ETISH

Ilk yosh guruhi bolalari faoliyatini tashkil etishda ularning jismonan, ruhan, aqlan, ma’nан rivojlanishlari, o’sishlari hisobga olinadi. Ta’lim-tarbiya ishlari bolalarni guruhchalarga bo‘lgan holda olib boriladi. 1- guruhchaga 1 yoshdan – 1 yoshu 6 oylikkacha bo‘lgan bolalar, 2- guruhchaga 1 yoshu 6 oylikdan – 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar kiritiladi. Har bir guruhcha uchun kun tartibi ota-onalar bilan kelishilib bir sutka uchun tuziladi. Ta’lim-tarbiya ketma-ketlik va asta-sekinlik tamoyili asosida tashkil etiladi.

Avval birinchi guruhcha, so‘ngra ikkinchi guruhcha bolalari bilan kun tartibining jarayonlari amalga oshiriladi. Birinchi guruhcha bolalari uxmlayotganda, tarbiyachi uxmlamayotgan tetik bolalar bilan muloqotda bo‘lib, ularning ahvoli, kayfiyati va xulqiga ahamiyat bergen holda ish olib boradi.

Issiq va sovuq paytlar uchun kun tartibi alohida tuziladi. 1- guruhcha bolalari bilan yilning sovuq oylarida sayr guruhning o‘zida — xonada tashkil etiladi. 2- guruhcha bolalari bilan kuniga ikki marta sayr o‘tkaziladi. Yilning issiq oylarida guruh bolalarining faoliyati shu bolalar uchun maxsus jihozlangan maydonchada tashkil etiladi. Bolalarni ovqatlantirish, uxlatish, gigiyenik sog‘lomlashtirish va chiniqtirish muolajalari guruh xonasida amalga oshiriladi.

Bola yoshi, jismonan rivojlanishi, sog‘lig‘i, tetikligiga qarab bir guruhchadan ikkinchi guruhcha kun tartibiga asta-sekinlik bilan o‘tkaziladi.

SOG‘LOMLASHTIRISH-CHINIQTIRISH MUOLAJALARI

Sog‘lomlashtirish-chiniqtirish muolajalari tabiiy vositalar: havo, quyosh, suvdan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Bola avvalambor me’yoriy harorat — 21—22 daraja iliqdagi ikki qavat kiyimda guruhda yurishga o‘rgatib boriladi. Bolaning kiyimi bo‘yiga mos bo‘lishi, erkin

harakatlanishiga xalaqit bermasligi zarur. Guruh xonasi shamollatilib, darchasi doimo qiya holda ochiq turishi kerak. Bolalar guruhda bo'limgan paytda eshik va derazalar ochilib, xona shamollatiladi (hojatxona ham). Ular guruhga qaytishidan yarim soat oldin hammayoq yopiladi. Guruhda guruh xonalarini shamollatish jadvali bo'lishi, uni hamshira yoki mudira doim nazorat qilib borishi lozim. Yotoqxona harorati 15—16 daraja iliq bo'lishi kerak. Bolalarni chiniqtirish muolajalari kun davomida amalga oshiriladi. Yilning sovuq davrida 2- guruhcha bolalari ertalabki nonushta va tolma choydan so'ng sayr qiladilar.

Yilning issiq davrida esa bolalar kun davomida maydonchada bo'ladilar. Havo issiq kunlari bitta ishtonchada, boshlariga panama (soyabonli bosh kiyim) kiyib sayr qiladilar. Sayr oxirida oyoqyalang yurishga ruxsat etiladi.

Shifokor va ota-onasi bilan maslahatlashilgan holda sog'lig'i hisobga olinib, har bir bola yoz kunlarida sayrdan so'ng cho'miltiriladi. Yuvintirish amallari orqali gigiyena va chiniqtirish muolajalari olib boriladi. Bolalarni maxsus chiniqtirish muolajalari sog'lomlashtirish muassasa rahbariyati va ota-onalarning xohish-istiklari asosida rejalashtiriladi.

Bolalarni jismonan, aqlan, ruhan va ma'nан rivojlantirish hamda sog'lomlashtirish faoliyatining eng asosiy yo'nalishlaridan biri ularning parvarishidir. Ota-onalarning bolalarini ozoda kiyintirib, dastro'-molchalar bilan ta'minlab, ularni sizga topshirishlariga erishishingiz kerak.

Guruhda har bir bolaning o'z tuvagi, sochig'i, stol tevaragida joyi, stuli, yotoq anjomni, ko'cha kiyimlari saqlanadigan javoni bo'lishi shart. Ularning barchasi toza va gigiyenik talablarga javob berishi va o'z belgisiga ega bo'lishi lozim.

KUN TARTIBI JARAYONLARI

1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan bolalar parvarishga, o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalariga o'rgatib borilishiga muhtojdirlar. Bolalarni ovqatlantirish, uqlashlari uchun yotqizish, uyqudan uyg'otish, sayrga tayyorlash, sayrdan qaytish va gigiyenik muolajalarni bajarish ketma-ketlik va asta-sekinlik tamoyiliga rioya qilingan holda amalga oshiriladi. Ular bir-birlarini kutib qolmasliklari uchun tarbiyachi va tarbiyachi yordamchisining ovqatlanish jarayonidagi ish faoliyatidan misol

keltiramiz. Tarbiyachi yordamchisi ovqatlanishga 15—20 daqiqa qolganida bolalar ovqatlanishlari uchun stol-stullar va idish-tovoqlarni tayyorlaydi. Bolalar tarbiyachi boshchiligidagi o'ynab turadilar. Tarbiyachi yordamchisi bolalar ovqatlanishlari uchun barcha narsalarni tayyorlab bo'lganidan so'ng o'yin bilan kamroq mashg'ul bo'layotgan bolalarning 3—4 nafarini yuvintirishga olib boradi. Qolgan bolalar esa o'ynashda davom etadilar. Tarbiyachi 3—4 bolaga o'yinchoqlarni yig'ishtirishni taklif etadi. O'yinchoqlarni yig'ishtirgan bolalarni yordamchisi yoniga qo'llarini yuvish uchun jo'natadi. O'zi qo'lini yuvib bo'lgan bolalarni ovqatlantira boshlaydi. Bolalar birin-ketin o'yindan qo'l yuvishga, qo'l yuvishdan ovqatlanishga o'tiradilar. Ovqatlantirilib bo'lingan bolalar boshqalarni kutmasdan o'ynashga taklif etiladi. Kun tartibidagi qolgan jarayonlar ham ana shunday asta-sekinlik va ketma-ketlik tamoyili asosida olib boriladi.

Taxminiy kun tartibi
Yilning soyuq paytlarida

	1 yosh— 1 yoshu 6 oy	1 yoshu 6 oy — 2 yosh
<i>Uyda</i>		
Ertalabki uyqudan uyg'onish, yuvinish muolajalari	6.30—7.30	6.30—7.30
<i>Maktabgacha ta'lim muassasasida</i>		
Bolalarni qabul qilish, o'yin	7.00—8.00	7.00—8.00
Nonushtaga tayyorlanish, nonushta	7.30—8.20	7.30—8.20
O'yin	8.00—9.15	8.00—9.15
1-mashg'ulot (kichik guruhchalar bo'yicha)	8.45—9.00	8.45—9.00—9.15
Uxlash uchun asta-sekin yotqizish (birinchi)	9.30—12.00	—
Sayr, unga tayyorlanish	—	9.20—11.00
Sayrdan qaytish, o'yin	—	—
Tushlikka tayyorlanish	—	11.00—11.20

Tushlik	—	11.20—12.00
Birin-ketin uyg‘onish, tushlik	12.00—12.30	—
Uxlash	12.00—15.00	—
O‘yin	12.30—15.00	—
1- mashg‘ulot (guruhchalar bo‘yicha)	13.00—13.10	13.20
2- mashg‘ulot (guruhchalar bo‘yicha)	14.00—14.10	14.20
Uyquga tayyorlanish, uxlash (ikkinchi)	15.00—16.30	—
Asta-sekin uyqudan turish, yuvinish, tolma choy	16.30—17.00	15.00—15.30
2- mashg‘ulot (guruhchalar bo‘yicha)	—	16.00—16.10—16.20
O‘yin	17.00—19.00	16.20—19.00
Uyga ketish	19.00 gacha	19.00 gacha
Uyda		
Sayr	18.00—19.00	
O‘yin	19.00—19.30	
Kechki ovqat	19.30—20.00	
Tinch o‘yinlar	20.00—20.30	
Uyquga tayyorlanish, uyqu	20.30—6.30	
Yilning issiq paytlarida		
Uyqudan uyg‘onish, yuvinish muolajalari	6.30—7.00	
Maktabgacha ta’lim muassasasida		
Bolalarni qabul qilish, o‘yin	7.00—8.00	
Nonushtaga tayyorlanish, nonushta	8.00—8.40	
Sayr, unga tayyorlanish	8.40—9.20	8.40—11.00
Sayrdan qaytish, uxlashga tayyorlanish	9.20—9.30	—
Uyqu (birinchi) 1-mashg‘ulot (guruhchalar bo‘yicha)	9.30—12.00	10.00—10.15—10.30
Sayrdan qaytish, yuvinish muolajalari	—	11.00—11.30

Tushlik	—	11.30—12.00
Uyqu	—	12.00—15.30
Bolalarni asta-sekin uyqudan turg'azish, tushlik	12.00—12.30	—
Sayrga tayyorgarlik, sayr 1- mashg'ulot (guruhchalar bo'yicha)	12.30—14.15	—
bo'yicha)	13.00—13.20	—
2- mashg'ulot (guruhchalar bo'yicha)	13.50—14.00	—
Sayrdan qaytish, yuvinish muolajalari	14.15—14.30	—
Uyquga tayyorgarlik, uyqu (ikkinchi)	14.30—16.30	—
Uyqudan asta-sekin turg'azish, tolma choy 2- mashg'ulot (guruhchalar bo'yicha)	—	15.30—16.00
Uyqudan asta-sekin turg'azish, kechki-tushki ovqat	16.30—17.00	—
Sayrga tayyorgarlik, sayr Uyga qaytish	17.00—19.00 19.00 gacha	16.40—19.00
<i>Uyda</i>		
Sayr	19.00—19.30	
Sayrdan qaytish, kechki ovqat, tinch o'yinlar	19.30—20.30	
Uyquga tayyorlanish, uyqu	20.30—6.30 (7.00)	

O'Z-O'ZIGA XIZMAT QILISH VA MADANIY-GIGIYENIK MALAKALARНИ TARBIYALASH

Hurmatli tarbiyachi, yil davomida bolalarga beriladigan ta'limgarli tarbiya vazifalari, bolalar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar quyidagilardan iboratdir:

1- guruhcha (1 yoshdan — 1 yoshu 6 oylikgacha) bolalarining ovqatlantirishdan oldin kir bo'lgan qo'llarini yuvishi, stol atrofidagi joylariga o'zлari mustaqil o'tirishi, birinchi va ikkinchi ovqatni qoshiq yordamida yeyish ko'nikmalarini mustahkamlanadi. Bolalar ovqatlarni mustaqil yeyishga, tarbiyachi ko'magida sochiqdan foydalanishga,

ovqatlanib bo'lgach stulini joyiga surib qo'yib, minnatdorchilik bildirishga o'rgatib boriladi.

2- guruhcha bolalarini (1 yoshu 6 oylikdan — 2 yoshgacha) ovqatdan oldin va kir bo'lganda qo'llarini yuvish, shaxsiy sochiqlaridan foydalanish, mustaqil ovqatlanishga o'rgatib borish davom ettiriladi. Ovqatdan so'ng minnatdorchilik bildirib, stulni joyiga surib qo'yish ko'nikmasi mustahkamlanadi. 1 yoshu 7 oylik bolalar kattalar yordamida o'zlar qisman yechina oladilar, 2 yoshdan boshlab kattalarning nazorati ostida tartib bilan kiyinib, yechina oladigan bo'lishlari lozim.

Bolalarni orasta va tartibli bo'lishga o'rgatish.

Bolalar kattalar yordamida 2 yoshda dastro'molchadan foydalanish, o'z kiyimi va sochini tartibga solish, uyquga yotish va turish, shuningdek, sayr jarayonlarida tartib bilan, ketma-ketlikda kiyimlarini taxlashga, oyoq kiyimini o'z joyiga qo'yishga, buyumlarini ayashga o'rgatiladi. Ular e'tibori doimo guruhdag'i tartibga jalb etib boriladi.

Xulq, odob-axloq madaniyati malakalarini tarbiyalash.

Qo'lni toza yuvib stol atrofiga o'tirish, o'zini to'g'ri tutish, guruhda sekin gapirish, yotoqxonada o'zini tutish kabi xulq madaniyati qoidalarini shakllantirib borish, „mumkin emas“, „mumkin“, „zarur“ kabi so'zlarning ma'nosi va ahamiyatini tushungan holda harakat qilishga o'rgatib borish davom ettiriladi. Kattalar band bo'lganda bo'shagunlaricha ularni sabr bilan kutib turish ko'nikmasi tarbiyalab boriladi. Salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish shakllantiriladi.

Guruh xonalarini to'g'ri topa olishga o'rgatish.

Bolalar qabulxona, yotoqxona va boshqa xonalarning nomlari hamda vazifalarini tushungan holda harakat qilishga, shaxsiy narsalari saqlanadigan javoni, stol atrofidagi o'rni va o'z karavotini bilishga o'rgatib boriladi.

Hurmatli hamkasaba, bolalarda bu kabi ko'nikma va malakalarini shakllantirishda siz mehr-muhabbatli, sabr-toqatli, shirinso'z va xotirjam bo'lishingiz lozim. Bu yoshdag'i bolalar asosan kattalar bilan muloqotda bo'ladilar. Sizning kayfiyattingiz, muomalangiz, tabassingiz ularga juda tez ta'sir etadi.

Bolalar ko'nikma va malakalarga qanday o'rgatib boriladi? — degan savol tug'iladi. Ilk yoshdag'i bolalarning nutqi hali yaxshi rivojlanmaganligi uchun har bir harakatni alohida rivojida ko'rsating. Ko'rsatib bergeningizdan keyin bolaning bajarishini kuzating va to'g'ri bajarishga undang, aks holda unda noto'g'ri malaka va ko'nikma paydo bo'ladi. Harakatlar ketma-ketlik bilan bajarilsa, ko'nikma va malakalar mustahkamlanadi. Bolaga avvalo ishtonchasi, keyin ichki ko'y lagi, ishtoni, ko'y lagi so'ngra oyoq kiyimini kiyish o'rgatib boriladi. Bu tarbiyachi tomonidan doimo kuzatib va mustahkamlanib boriladigan jarayon. Bu ko'nikma va malakalar shakllanib, asta-sekin odatga, so'ngra xarakterga aylanadi.

Agar bolada to'g'ri malaka va ko'nikmalar shakllantirilgan bo'lsa, u bu ishlarni kattalar eslatmasa ham o'zi mustaqil bajaradi. Masalan, bolaga kubiklar bilan o'ynab bo'lgandan so'ng uni joyiga tartib bilan taxlab qo'yish malakasi o'rgatilgan bo'lsa va talab qilib turilsa, bu asta-sekin odatga aylanadi, bola kattalar eslatmasiz kubiklarni joyiga tartib bilan taxlab qo'yadi. Ko'nikma va malakalarni o'rgatib borishda bolani maqtab, ruhini ko'tarib turish lozim. O'rgatilgan malaka va ko'nikmalar o'yinlar orqali mustahkamlab boriladi. „Qo'g'irchoqni sayrga tayyorlaymiz“ o'yini orqali bolalarda kiyinish, „Qo'g'irchoqni ovqatlantiramiz“ o'yini bilan ovqatlanish kabi ko'nikma va malaka mustahkamlanib boriladi.

Bu yoshdag'i bolalar o'ta taqlidchan bo'ladilar, Sizning har bir xatti-harakatingiz ular tarbiyasida katta rol o'yaydi. Muomalangiz, nutqingiz, tashqi qiyofangiz, chirolyi va muloyim tabassumingiz, guruhdagi tartib-intizom bularning hammasi muhim ahamiyatga ega. Bolalarga o'rgatilgan ko'nikma va malakalar ota-onalar tomonidan uyda ham mustahkamlanib borilishi kerak.

NUTQ TUSHUNISHNI SHAKLLANTIRISH

Doimo ishlatib turiladigan narsalar nomlarini anglatadigan so'zlar bilan 1- guruhcha bolalarining so'z boyligini boyitish. (*Sovun, ro'molcha, taroq* va *hokazo*). Tana qismlarini anglatadigan so'zlar (*bosh, qo'l, oyoq*)ni tushunishlari ustida mashg'ulotlar olib borish.

2- guruhcha bolalarining so'zlarni tushunish ko'nikmasi, ya'ni narsalar nomlari, ahamiyati, belgisi, hajmi, turgan joyini anglatadigan so'zlarni tushunishlarini mustahkamlab borish.

Faol nutqni o'stirish.

1- guruhcha bolalarini sodda so'zlarni talaffuz qilishga o'rgatib borish davom ettiriladi. (*Ber, ma, ol* va hokazo).

2- guruhcha bolalari jumlalarni to'liq talaffuz qilishga o'rgatib boriladi (oyoq kiyimlar, kiyimlar, mebellarning nomlari).

SAYRLAR

2- guruhcha bolalari bilan sovuq kunlarda sayr ertalabki va kechki soatlarda tashkil etiladi. Havo harorati 15 darajadan past bo'lganda, shuningdek, kuchli shamol esayotgan paytda sayr guruh xonalarida o'tkaziladi. Issiq kunlarda esa sayrlar maydonchada tashkil etiladi, sayrlar bolalarning mustaqil harakat qilishlarida asosiy omil hisoblanadi.

Sayrda harakatlari o'yinlar o'ynaladi. Bolalar turli harakatlarni bajarishga undab boriladi. O'z tengqurlari va kattalar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish xohish-istiklari qo'llab-quvvatlanadi.

Sayrda bolalar bilan tabiat kuzatiladi, bunda ularda tabiatga nisbatan muhabbat uyg'otiladi, uni asrab-avaylash his-tuyg'ulari tarbiyalab boriladi. Bolalarning diqqati tabiat go'zalliklarini ko'ra bilishga jalb etiladi.

1- guruhcha bolalari barglar yoki gullar dastasini tarbiyachi qo'lidagi barg yoki gullarning rangiga qarab ajrata bilishga o'rgatib boriladi.

2- guruhcha bolalarida gul va barglarni rangiga qarab topish ko'nikmasi tarbiyachi topshirig'iga binoan mustahkamlab boriladi. Kattalarning iltimosiga ko'ra ular daraxt, o't va gullarni ko'rsatadilar.

1- guruhcha bolalari poliz ekinlari va mevalarning ba'zi bir turlari bilan tanishtiriladi. 2- guruhcha bolalari bilan ularninig shakli, ta'mi va gullari aniqlanadi. Mushuk, it, qishlaydigan qushlar haqidagi tasavvurlar takomillashtiriladi, ularga nisbatan mehr-muhabbat hislari tarbiyalab boriladi. Uy hayvonlari va qushlarning tana qismlarini to'g'ri atash mashq qildiriladi.

Jonsiz tabiat haqidagi tasavvurlari *suv quyiladi, u issiq va sovuq bo'ladi, qum va qor sochiladi* kabi so'z va iboralar yordamida boyitiladi. Muzning yaltiroqligi, toshlarning rangi, shakli, kattaligi kuzatiladi. 2- guruhcha bolalari tabiiy materiallarni taqqoslashga, katta-kichik, yumshoq-qattiqligiga qarab umumlashtirishga o'rgatiladi.

Ularning diqqati qorning yog‘ishi, kamalakning chiqishi kabi tabiat hodisalariga jalg etiladi.

Kattalar faoliyatini kuzatish uchun sharoit yaratiladi. Kattalar bilan birgalikda o‘yinchoqlarni sayrdan keyin yuvish ko‘nikmasi o‘rgatilib boriladi.

Bolalar kattalar bilan birgalikda barglarni yig‘ish, qor tozalash kabi boshqa yengil yumushlarni bajarishda ham qatnashadilar. Ular chelak, belkurak, supurgi, hokandoz singari mehnat quollaridan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatib boriladi.

Transport vositalariga nisbatan qiziqish uyg‘otiladi. Ularning rangi, kattaligi va qismlarining nomlarini atashga o‘rgatiladi.

Haftada bir marta sayr-sayohatga chiqish rejalashtiriladi.

Bolalar bilan sayohat faqat maktabgacha ta’lim muassasasi hududida olib boriladi. Sayohatda kuzatilgan joylarning nomlari, ularning vazifalari haqida tushuncha beriladi (*oshxona, kirxona...*).

MASHG‘ULOTLARDA TA’LIM BERISH

Bolalarni har tomonlama rivojlantirish maqsadida maktabgacha ta’lim muassasalarida mashg‘ulotlar maxsus reja asosida o‘tkaziladi. Bu yoshdagи bolalar eshitishga, kattalarning ishlarini kuzatishga, ularning so‘zлari va harakatlariiga taqlid qilishga, bergen topshiriqlarini bajarishga o‘rgatib boriladi. Bolalar bilan kuniga 2 ta mashg‘ulot o‘tkazilishi tavsiya etiladi (haftada 10 ta mashg‘ulot).

Hafta davomida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning turi va soni:

Nutq o‘stirish, atrof-muhitni to‘g‘ri topa olish	
malakasini shakllantirish	3
Harakatlarni rivojlantirish	2
Ta’limiy materiallar bilan mashg‘ulot	2
Qurilish materiallari bilan mashg‘ulot	1
Musiqa mashg‘uloti	2
<i>Jami:</i>	10

1- guruhcha bolalari bilan mashg‘ulotlar ular tetiklik vaqtining 2- paytida o‘tkaziladi. 2- guruhcha bolalari bilan esa ularning ertalabki va kechki tetiklik davrlarida o‘tkaziladi. Mashg‘ulotlar 1- guruhchada bolalar 3—5 nafarga bo‘linib, 8—10 daqiqa davomida, 2- guruhcha bolalari bilan esa 10—15 daqiqa davomida o‘tkaziladi.

NUTQ O'STIRISH VA TEVARAK-ATROF BILAN TANISHTIRISH MASHG'ULOTLARI

1- guruhcha bolalari tushunadigan so'zlar sonini orttirish. Tabiiy sharoitlarda, shuningdek, rasm va mazmunli o'yinchoqlardan sabzavotlar, mevalar, kiyimlar, idish-tovoqlarni topishga va ko'rsatib berishga o'rgatish. Odam tanasi qismlari (qo'l, oyoq, bosh)ni, yuz qismlari (og'iz, ko'z, qulooq)ni, maishiy (yuvinish, sayr qilish, ovqatlanish) va o'yin harakatlarini, predmetlarning belgilarini, ranglar (qizil, ko'k)ni, qarama-qarshi o'lchamlar (katta, kichik)ni, shakllar (kubik, g'ishtcha)ni bildiradigan so'zlarni tushunishga o'rgatish. Tanish predmetlarning belgisiga qarab tanlash, rasmida tasvirlangan predmetga mos bo'lgan o'yinchoqni olishga, o'yinchoqlar bilan o'tkaziladigan sahna ko'rinishlari mazmunini tushunishga o'rgatish.

2- guruhcha bolalari so'z boyligini predmetlar belgisi, nomi, rangi (qizil, ko'k, sariq, yashil), o'lchami (katta, kichik), shakli (kub, g'ishtcha, prizma), qandayligi (toza, iflos), joylari (bu yerda, u yerda), sanog'i (bitta va ko'p)ni anglatadigan so'zlar bilan boyitish.

Tanish predmetlar (nomi va rangi)ni tanlay bilish malakasini mustahkamlash. Jonzotlarning harakatlarini, ovqatlanishlarini (cho'-qiysi, yalaydi), tovushlarini (miyovlaydi, vovullaydi), odamlarning harakatlarini (yuryapti, yuguryapti), shuningdek, ularning mehnat jarayonidagi harakatlarini (kir yuvayapti, supuryapti), holat va kayfiyatni bildiruvchi so'zlar (qo'rqib ketdi, yig'ladi) ni tushunishga o'rgatish.

Predmet haqidagi umumiylashtirish. Tanish predmetlarning belgilariga ahamiyat bermasdan bilish va ko'rsatishga, o'yinchoqlar bilan qo'yiladigan sahna ko'rinishlarining mazmunini tushunishga o'rgatish.

FAOL NUTQNI O'STIRISH

1- guruhcha bolalarining tez-tez eshitadigan so'zlar va tovushlarga taqlid qila bilishlarini takomillashtirish. Bolalar so'z boyligini harakatlarini bildiradigan so'zlar bilan boyitish.

Rasmida tasvirlangan tanish joylarni atash va ko'rsatib berishga o'rgatish.

Bu nima? Nima qilayapti? kabi savollarga javob berishga o'rgatib borish.

Harakat, mimika (imo-ishora) va nutq vositalaridan foydalanib, muloqot qilishga undash, nutqni o'stirish.

Ikki va uch so'zdan tashkil topgan gaplarni talaffuz qilishga o'rgatish.

2- guruhcha bolalarining faol nutqini o'stirishda taqlid tovushlarni umumiy qo'llaniladigan so'zlarga almashtirishlarini qo'llab-quvvatlash („vov-vov“ o'rniqa it). Alohidagi so'zlar bilan bir qatorda, 3—4 so'zdan tashkil topgan gaplarni ham talaffuz qilishga undash, tanish predmetlarga oid savollarga javob berishga o'rgatish.

Bolalar so'z boyligini boyitishni davom ettirish. Ot, fe'l, sifat kabi so'z turkumlariga kiradigan so'zlardan foydalangan holda joylarning nomlari, harakat va holatni ahvolni bildiruvchi so'zlar bilan boyitish. Olmoshdan (men, sen, menga) ravishdan (u yerda, u yoqqa), kelishiklardan to'g'ri foydalangan holda talaffuz qilishni o'rgatib borish.

Predmetlar (qo'g'irchoqlar, mashinalar)ning belgilari qarab umumlashtirib atashni bilishlarini shakllantirish. O'yinchoqlar va rasmlar orqali odamning jinsi va yoshini bilish hamda atashni shakllantirib borish.

Tevarak-atrofni to'g'ri topa olish malakasini oshirish va bolani o'rarturan predmetlar nomini atay bilishga o'rgatish maqsadida guruh xonalari bo'ylab muntazam ravishda sayohatlar uyushtirish.

Bu yoshdagagi bolalarni badiiy so'zga nisbatan qiziqishini tarbiyalay boshlash.

Rasmida tasvirlangan predmet, rassomning maqsadi haqida bolalarga ifodali va ta'sirli so'zlab berish. Bolalarni yoshiga mos xalq qo'shiqlarini eshitish va tushunishga o'rgatib borish, rasmlar, o'yinchoqlar hamda har xil harakatlardan foydalanan hikoya tuzib, aytib berish yoki birorta qiziqarli matnni o'qib berish.

2- guruhcha bolalarini ularga tanish bo'lgan asarlarni ko'rgazmasiz tinglashga o'rgatib borish. Bolalar diqqatini ifodali nutqqa jalb etish.

BOLALAR HARAKATLARINI RIVOJLANТИРISH MASHG'ULOTLARI

Bu mashg'ulotlarni tashkil etishda bolalarning faol harakatlanishlari uchun sharoit yaratish, asosiy harakatlar rivojlanishini kuzatish va hisobga olish lozim.

Bolalar harakatlari muvozanatni saqlagan holda asta-sekin qo'l harakatlarini qo'shib to'g'ri yo'nalishda yurish, narvonga chiqish va tushish, shuningdek, irg'itish, yumalatish, itarishga oid mashg'ulotlar orqali rivojlantiriladi.

1- guruhcha bolalari bilan yurish va muvozanatni saqlash mashqlari.

Poldagi yo'lakchadan to'p-to'p bo'lib to'g'ri yo'nalishda yurish.

Tarbiyachi yordamida bir uchi poldan 10—15 sm balandlikda bo'lgan, eni 25 sm, uzunligi 1,5—2 m taxta ustidan yuqoriga va pastga yurish. Balandligi 10 sm, 50×50 sm hajmdagi yashikka chiqish va tushish.

Poldagi yoki poldan 5—10 sm yuqoriga ko'tarilgan tayoq yoki arqon ustidan hatlab o'tish.

Emaklash, tirmashib chiqish.

2 m masofaga emaklash, arqonning tagidan o'tish (balandligi 50 sm), halqa ichidan o'tish (diametri 50 sm), narvonchaga chiqib-tushish (balandligi 1 m).

Dumalatish, irg'itish.

O'tirgan va turgan holatda koptokni (diametri 25 sm) oldinga dumalatish. Koptokni (diametri — 6—8 sm) irg'itish.

2- guruhcha bolalari bilan yurish va muvozanatni saqlash mashqlari.

To'p-to'p bo'lib yurish. Taxta (eni — 20 sm, uzunligi — 1,5—2 m) ustida, poldan 15—20 sm balandlikda joylashgan taxta ustida, g'adirbudur taxta ustida yurish. Balandligi 15 sm, hajmi 50×50 smli yashik ustiga chiqib-tushish.

Poldan 12—18 sm balandlikdagi arqon yoki tayoq ustidan hatlab o'tish.

Emaklash va tirmashib chiqish.

Xoda (diametri 15—20 sm) ostidan o'tish, 35—40 sm balandlikdagi arqon tagidan o'tish. Halqa (diametri 45 sm)dan o'tish. Narvoncha (balandligi — 1,5 m)ga tirmashib chiqib-tushish.

Dumalatish, irg'itish.

Tarbiyachi bilan birga koptokni (diametri 20—25 sm) dumalatish, qiyalikdan dumalatish va qiyalikkacha olib borish. Koptok (diametri 8 sm)ni 50—70 sm masofaga o'ng va chap qo'lda irg'itish.

Umumrivojlanuvchi mashqlar.

Skameykada o'tirgan holatda qo'lni yuqoriga ko'tarish va pastga tushirish, orqaga uzatish, bikish. O'tirgan holatda o'ngga va chapga o'girilib, narsani berish.

Tik turgan holatda oldinga engashish, to‘g‘ri turish. Tarbiyachi yordamida tayoq (poldan 40—45 sm balandlikda)chadan engashish. Tarbiyachi yordamida o‘tirish.

Yuqoridagi umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanim, ertalabki badantarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etish.

Harakatli o‘yinlardan namunalar.

Bu o‘yinlar „Koptokni tut“, „Shiqildoqqacha emaklab bor“, „Menga yetib ol“, „Kattalar va kichiklar“, „Kapalakni tut“, „Sichqon qayerda chiyillayapti?“ va boshqalardir.

O‘yinchoq aravachalar, samolyotlar, avtomobillardan foydalangan holda ham mustaqil o‘yinlar tashkil etiladi.

TA’LIMIY MATERIALLAR BILAN O’TKAZILADIGAN MASHG‘ULOTLAR

1- guruhcha bolalarini predmetlar bilan harakat qilishga, piramida asosiga bir xil kattalikdagi halqlarni kirgazishga, konus asosli, 2—3 qalpoqchadan tashkil topgan va turli hajmdagi piramidalarni aniq tartibda to‘g‘ri yig‘ishga, ikki qarama-qarshi kattalikdagi to‘rt halqali piramidalarni yig‘ishga, bir o‘rinli matryoshkani ochish va yopishga, kichik predmetlarni katta predmetlar ichiga yig‘ish va ularning ichidan olishga o‘rgatib borish.

Predmetlar bilan turli harakatlar bajarishni takomillashtirish.

Yassi figuralar (dumaloq, kvadrat, uchburchak), har xil ta’limiy o‘yinchoqlar: ta’limiy qutichalar, qo‘ziqorinlar bilan ochish-yopish, kirgazish va yechish, dumalatish, tiqib qo‘yish, bog‘lash, solib qo‘yish, kattalikni chamlay olish (katta, kichik) kabi harakatlarni o‘yin orqali takomillashtirish.

2- guruhcha bolalarini predmetlarning kattaligiga qarab ajratish, kattaligi kichrayib boradigan shakldagi 4—5 halqali, konus asosli 4—5 qalpoqchadan iborat piramidalarni yig‘ishga o‘rgatib borish.

Shakliga qarab (dumaloq, kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak) quti va qutichalarning qopqoqlarini to‘g‘ri tanlay bilishlarini shakllantirish.

Predmetlarni katta-kichikka, eng katta va eng kichikka ajratish, ikki o‘rinli matryoshkani yig‘ish, ikkiga kesilgan rasmlarni yig‘ishga o‘rgatish.

Shakllar (doira, kvadrat, uchburchak, to‘g‘ri to‘rtburchak)ni rasmlarga hamda taxta o‘yiqlariga to‘g‘ri joylashtirishni mashq qildirish.

Eshitish diqqatini shakllantirish maqsadida ta'limiy o'yinlar o'tkazish („Uychada nima yashaydi?“, „Bizni kim chaqirdi?“ kabi).

Ta'limiy o'yinlarda asosiy to'rt xil rang (qizil, ko'k, sariq, yashil)ni bir-biridan ajrata bilihga o'rgatish. Bir xil rangdagi predmetlarni tanlab olish, katta tugmalarni qardashni o'rgatish. Quti yoki stoldagi maxsus moslamalarga shakli, rangiga qarab qo'ziqorinlar qalpog'i va boshqa predmetlarni solishni o'rgatish. Ikkita rang nomini atashga o'rgatish.

QURILISH MATERIALLARI BILAN O'TKAZILADIGAN MASHG'ULOTLAR (KATTA VA KICHIK QURILISH MATERIALLARI)

1- guruhcha bolalarini o'yin orqali kubik, g'ishtcha, prizma (tomi) bilan tanishtirish.

G'ishtchalarni yassi tomoni bilan bir qator qilib terishni (yo'lakcha), kubik ustiga kubik qo'yishni (minora), kubik ustiga prizma qo'yishni (uy), kubik ustiga g'ishtcha qo'yishni (stol), ulardan mustaqil o'ynashda foydalanishni o'rgatish, qurilgan narsalar ahamiyatini tushunishni shakllantirish.

2- guruhcha bolalarini kubik, g'ishtcha, prizma, silindr, plastina bilan tanishtirish. Avval g'ishtchalarining eni tomonini so'ngra bo'yи tomonini bir qator qilib terishni o'rgatish (past devor va baland devor).

MUSIQA TARBIYASI

1—2 yoshli bolalar musiqiy rivojlanishining tavsifi.

Jadval

	Kichik guruhcha bolalari (1 yoshdan — 1 yoshu 6 oylik)	Katta guruhcha bolalari (1 yoshu 6 oydan — 2 yoshgacha)
Tinglash	<p>Erkin, o'zlari xohlaganlaridek o'tirgan va turgan holatda musiqa tinglaydilar.</p> <p>3—4 daqiqa davomida qisqa tanaffuslar bilan musiqa tinglaydilar. Bir fragment tovushning davomiyligi 15—20 soniya.</p> <p>Qo'shiqlarni musiqali harakatlarni kuzatish bilan tinglaydilar.</p>	<p>„Tinglang“ so'zidan keyin tinchlanadilar va musiqa taralishini kutadilar. Stulchalarda o'tirgan holatda musiqa tinglaydilar.</p> <p>Turli musiqa asboblarida ijro etilgan tanish kuylarni tinglaydilar.</p> <p>Tanish qo'shiqlarni musiqali harakatlarsiz tinglaydilar.</p>

Ovozning faolligi	<p>Tovushlarga taqlid qilgan holda musiqali harakatlarni bajaradilar (vov-vov, miyov-miyov va boshqalar).</p> <p>Qo'shiq so'zlarini xirgoyi qiladilar.</p>	<p>Musiqали harakatni bajarishda o'yinning turli ko'rinishlari va raqslarda qo'shiqqa jo'r bo'ladilar.</p> <p>Yengil qo'shiqlarni jo'r bo'lib kuylaydilar.</p>
Harakatlar	<p>Harakatlarni bajarishda bir oz kechikadilar, lekin sekin-asta kattalarning ko'rsatmasiga binoan mashqlarda qo'shiqlar va raqslardagi harakatlarni aniq bajarishga harakat qiladilar.</p> <p>Tanish bo'lgan mashqlar, o'yinlar va raqslardagi harakatlarni bajaradilar.</p> <p>Raqs harakatlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> — chapak chalish; — „prujinacha“; — bir oyoq bilan tapillatish; — joyida yugurish; — kattalar yordamida yonga qadam tashlash; — qo'l panjalarini aylantirish. 	<p>Predmetli va predmetsiz o'yinlar, mashqlar va raqslarda ko'rsatma bo'yicha turli harakatlarni bajaradilar.</p> <p>Qo'shiq nomi, so'zi va musiqa-siga mos harakatlarni mustaqil bajaradilar.</p> <p>Musika tugagandan so'ng bir oz kechikib harakatlarni to'xtatadilar (childirmani chalish, shaqildoqni shaqillatish).</p> <p>Mazmunan sodda o'yinlarda ishtirok etadilar, bunda rolni bolalar emas, balki tarbiyachi qo'lidagi o'yinchoq bilan bajaradi.</p> <p>Tarbiyachining ko'rsatmasiga binoan dastlab so'z va tovushlarning taqlidi kuzatuvi ostida, keyinchalik tovush va so'zga taqlid qilgan holda mustaqil ravishda o'yinning bir vaziyatidan boshqa vaziyatiga o'tadilar.</p> <p>Yakka holdagi harakatlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> — chapak chalish; — gavda oldga bir oz egilgan holatda bir vaqtda ikki qo'llab tizzalariga urish; — qo'l panjalarini aylantirish; — joyida yugurish; — „prujinacha“; — yarim „prujinacha“; — yarim o'tirgan holat; — joyida aylanish; Birgalikdagi holatlari: — to'p bo'lib yurish, yugurish va raqs; — bir-birini ikki qo'llab ushlagan holda raqsga tushish; — joyida.

Ilk yoshdagি bolalarnи musiqiy rivojlantirish vazifalarи:

- bolalarnи musiqaga qiziqtirish, jalb etish, unga nisbatan mehr-muhabbat uyg‘otish;
- bolalarga musiqani diqqat bilan tinglashni o‘rgatib borish;
- qo‘sinq so‘zлari ma’nosini tushunib tinglay bilishni o‘rgatish;
- musiqaning xarakteri va qo‘sinq so‘zлarining mutanosibligiga binoan, musiqa ostida o‘yin va raqs harakatlarini bajarishga o‘rgatish.

Pedagogik ishning mazmuni va sharoitlari.

Musiqa mashg‘ulotlari bolalar bilan haftada ikki marta, guruhchalarga bo‘linmagan holda 10—15 daqiqadan o‘tkaziladi. Mashg‘ulotlar quyidagi qismlardan tashkil topadi:

- musiqani tinglash (tinglash uchun biror musiqa asbobida ijro etilgan, uncha katta bo‘lmagan musiqiy asar tanlanadi);
- o‘yin mashqlari, musiqali o‘yin, raqs.

Ko‘ngilochar mashg‘ulotlar har oyda 2—3 martadan o‘tkaziladi. Mashg‘ulotlar dastlab guruh xonasida tashkil etiladi. Mashg‘ulotlarni rejalahtirishda bolalarning yosh xususiyatlari, rivojlanish darajasi, sog‘liqlari hisobga olinadi.

BOLALARNING MUSTAQIL FAOLIYATI

Bu yoshdagи bolalarning mustaqil faoliyati qish oylarida guruh xonasida, issiq paytlarda o‘yin maydonchasida tashkil etiladi.

Bola mustaqil faoliyatining asosiy maqsadi o‘zini mustaqil ravishda biron-bir mashg‘ulot bilan mashg‘ul bo‘lishga o‘rgatib borishdir.

Sizning vazifangiz bolalarning barchasini biron yumush bilan mashg‘ul bo‘lishlarini kuzatib borishdir, qaysidir bolaga o‘yinini davom ettirish uchun o‘yinchoq taklif etish, qurishni boshlagan bolaga esa qurishni oxiriga yetkazishga yordam berish lozim.

Bola mustaqil faoliyatining turlari quyidagilardir:

- o‘yinlar harakatli, voqeaband, ta’limiy, yasash va qurish, tabiiy materiallar bilan ko‘ngilochar o‘yinlar;
- tevarak-atrofni kuzatish, illustratsiya va rasmlarni ko‘rish, tarbiyachi yordamida rasm va loy ishlari faoliyati, tevarak-atrofdagilar bilan muloqot;
- faol harakat qilish, yurish, tirmashib chiqish, irg‘itish, belgilangan yo‘lakchadan yurish, tepalikka chiqish, narvonchaga

chiqish va tushish mashqlarini bajarish, uncha katta bo‘lmagan to‘siqlar va halqadan o‘tishga o‘rgatish, koptoklar bilan o‘ynash uchun shart-sharoit yaratish;

— harakatli o‘yinlarda qatnashishga ishtiyoq uyg‘otish, harakat faolligini nazorat qilish, bolalarni charchab qolishlariga yo‘l qo‘ymaslik, harakatli o‘yinlarni tinch o‘yinlar bilan almashtirib olib borish;

— katta va kichik qurilish materiallari va ta‘limiy o‘yinchoqlar bilan mustaqil o‘ynashlari uchun sharoit yaratish, tarbiyachi yordamida uy devorlarini qurish, rasmlar ko‘rish;

— tanish asarlar o‘qib berish, kitobga nisbatan ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni o‘rgatib borish.

Bolalarning mustaqil faoliyatlarida o‘yinchoqlar bilan voqeaband o‘yinlarni o‘ynash alohida o‘rin tutadi.

Bolalar hayotiy vaziyatlarni o‘z o‘yinlarida aks ettirishga o‘rgatib boriladi. Stol qo‘g‘irchoq teatrлари, sahna ko‘rinishlari orqali hayotiy vaziyatlarni aks ettirish tajribalari boyitib boriladi.

1- guruhcha bolalari taqlid qilish orqali yengil o‘yin harakatlarini bajarishga, narsalar va o‘yinchoqlarni mustaqil ravishda tanlab olishga o‘rgatib boriladi.

2- guruhcha bolalari kattalar harakatlarini aks ettiradigan o‘yinlarni o‘ynashga jalg etiladi. Ilgari alohida bajarilgan harakat (qo‘g‘irchoqni yuvintirish, cho‘miltirish kabi)larning 2—3 tasini bir-biriga bog‘lab (qo‘g‘irchoqni cho‘miltirib, uxlatib qo‘yish), mustaqil o‘ynash malakasi bilish shakllantirib boriladi.

Yoz kunlari tabiiy materiallardan foydalanib, har xil o‘yinlar o‘ynash tashkil etiladi. Qum bilan o‘ynalganda qurish materiallaridan, suv bilan o‘ynalganda voqeaband o‘yinchoqlardan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kattalar tomonidan qumda tasvirlangan shakllarga mos shakllarni bolalar mustaqil ravishda tabiiy materiallar (toshlar, barglar, gullar)dan yasashlari lozim.

Bolalarning o‘yin uchun mustaqil ravishda tabiiy materiallarni tanlashlarini qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish kerak. Bolalar o‘yinlarini yanada mazmunli tashkil etish maqsadida ularga har xil buyumlar (lentalar, plastmassa idishlar)ni taklif etishingiz mumkin. Qum bilan o‘ynalganda xokandozcha va turli shakllardan, suv bilan o‘ynalganda cho‘michcha va boshqa o‘yinchoqlardan foydalanishga o‘rgatiladi. Guruhda tashkil etilgan yasanish burchagida bolalarni knopka va tugma qadash, zanjirni taqish,

arqonchalarni bog'lash kabilarga o'rgatish mustahkamlanib boriladi.

Tabiat burchagini turli tomondan kuzatish uchun sharoit yaratiladi. Kuzatish jarayonida bolalar muloqotga jalg etiladi. Kattalarni diqqat bilan eshitib, so'ngra javob berishlari shakllantirilib boriladi.

Bolalar bir-birlariga xalaqt bermasdan o'ynashga o'rgatiladi. O'yinchoqlarni so'rab olish (tortib olmasdan), almashtirish kabi malakalari shakllantiriladi.

ILK YOSH GURUHI BOLALARI BILAN O'YNALADIGAN O'YINCHOQLAR

1 yoshdan — 1 yoshu 6 oylik bolalar uchun.

Oddiy kiyimdag'i qo'g'irchoqlar. Odamning asosiy a'zolaridan tashkil topgan, plastmassa yoki matodan tayyorlangan, charm va yog'ochdan ishlangan 10—15 smli, suvda o'ynash uchun qo'g'irchoqlar.

Jonzotlarni aks ettiradigan o'yinchoqlar. Aniq tovush chiqaradigan biror o'yinchoq, charm va plastmassadan yasalgan jontzotlar shakli (sichqon, quyon, ot), harakat qila oladigan o'yinchoqlar (cho'qiyotgan tovuq, sakraydigan qurbaqa), pape mashedan tayyorlangan sigir, qush, g'oz, o'rdak, echki, suv bilan o'ynash uchun baliqchalar.

Maishiy buyum o'yinchoqlari: stol, stul, karavot. Bolalarning qo'llariga mos idish-tovoqlar, likobchalar, piyolalar, qoshiqlar, kastrulkalar. O'yinchoq yotoq anjomlari (har xil rangdagi va kattalikdag'i choyshablar, mato qirqimlari), oyna.

Voqeaband transport o'yinchoqlari: qo'g'irchoqlar uchun mustahkam aravacha, yuk mashinalar, yengil mashinalar, chanalar, aravachalar.

1 yoshu 6 oylikdan — 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun.

Qo'g'irchoqlar: yumshoq matodan, plastmassadan, oyoqlari bukulanadigan, katta, sochli, chizilgan, ammo yopilmaydigan ko'zli, 10—35 smli, turli materiallardan tayyorlangan 7—15 smli qo'g'irchoqlar shakli.

Jonzotlarni aks ettiradigan o'yinchoqlar: qo'ng'izlar, kapalaklar va bolalarga tanish bo'lgan o'yinchoq hayvonlar.

Bolalar bo'yiga mos stol, javon, karavot, stul, oyna, qo'liga mos idish-tovoqlar: kastrulkalar, choynaklar, likobchalar, qoshiqlar.

O'yinchoq yotoq anjomlari: ko'rpa, ko'rpacha, choyshab, yostiqlar, dazmollash uchun taxta, dazmol, jo'mrak, gaz plitasi, peshbandlar, telefon, termometr.

Qo'g'irchoqlar uchun o'yinchoq yuk mashinasi, aravacha, avtobus, tramvay, chanalar.

Bu o'yinchoqlarni ota-onalar hamkorligida o'zingiz yasashingiz, o'yinchoqlarning bola hayotidagi ahamiyatini ularga tushuntirishingiz lozim.

Har kuni ota-onा bilan suhbatlashib, bolaning kun davomida o'rganganlarini aytib, uyda u bilan shug'ullanish uchun ko'rsatma va maslahatlar berib borsangiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

ILK YOSH GURUHI BOLALARI XONALARINI JIHOZLASH

Guruh qabulxona, o'yin xonasi, yotoqxona va hojatxonadan tashkil topadi. Bolalar guruhning qabulxonasida ertalab qabul qilib olinib, kechqurun ota-onalariga topshiriladi. Demak, qabulxona sizning ota-onalar bilan yaqindan muloqot olib boradigan xonangiz bo'lib, uni quyidagicha jihozlashni maslahat beramiz.

Qabulxonada bolalar kiyinib-yechinishlari uchun (har bir bolaga alohida) javon, har bir javonda bosh kiyim va oyoq kiyimlar uchun alohida bo'laklar bo'lishi lozim. Har bir javonga egasining belgisi osib yoki qoqib qo'yiladi. Hozir maktabgacha ta'lim muassasalarida bolaning javoni eshidiga uning rasmi belgi sifatida qo'yilmoqda. Qabulxonada ota-onalar uchun stul va kursilar bo'lishi kerak.

Ma'lumki, siz eng kichik yoshdagи bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanasiz, bolalar guruhga birinchi qadamlarini qabulxonadan qo'yib kirib keladilar, shuning uchun qabulxonaga ularning kayfiyatlarini ko'taradigan, xursand etadigan rasmlarni, o'yinchoqlarni osib qo'yishingiz lozim, kerak vaqtida ota-onalar ulardan foydalanishlari mumkin.

Qabulxonada ota-onalar uchun turli burchaklar, ko'rgazmalar tashkil etiladi. Ularda guruh bolalarining hayoti, ta'lim-tarbiyasi haqidagi ma'lumotlar yoritiladi. Bolalarning kun tartibi, mashg'ulotlarning haftalik taqsimoti, nomlari, ota-onalar uchun maslahatlar, bolalar egallashlari lozim bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalar, erishilgan natijalar (har bir bola misolida), shuningdek,

bolaning jismonan rivojlanishi uchun tibbiyot xodimi tomonidan kasalliklar haqida ma'lumotlar, chiniqtirish, ovqatlantirish yuzasidan maslahatlar, ota-onalarning o'z bolalari bilan uyda shug'ullanishlari uchun uy vazifalari beriladi.

Guruhning o'yin xonasi bolalarning bu yoshidagi fiziologik, psixologik holatlari, faol harakatlari va bilish qobiliyati, o'sish xususiyatlari hisobga olingan holda jihozlanishi, predmetli — masofali muhit yaratilishi lozim.

Ilk yosh guruhi uchun predmetli — masofali muhitning asosiy tavsifi quyidagilardan iborat:

— turli-tumanlik: bolaning sensor rivojlanishi, tasviriy, konstruktiv, musiqiy faoliyati, barmoq-panja muskul va paylarining rivojlanishi;

— o'zi haqida tasavvurga ega bo'lishi, faol harakatlanishini tashkil etish uchun barcha o'yin va ta'limiy materiallarning mavjudligi;

— guruh jihozlari bola uchun tushunarli, ya'ni bolaning ko'rish darajasi (bo'yiga)ga mos holda joylashtirilishi lozim (baland mebellar va yopiq javonlarni guruh xonasiga qo'yish man etiladi);

— har bir bolaning yakka faoliyati uchun qulay sharoit yaratish, psixologik muhofazasini, his-hayajonini ijobjiy darajada ushlab turishni ta'minlash. Har bir burchak bola diqqatini o'ziga jalb etishi lozim.

Ilk yosh guruhi bolalari o'yin faoliyatining xususiyatlariga muvofiq birlgilikda emas, balki alohida, yonma-yon o'ynaydilar. Shuning uchun o'yin o'ynaladigan va ta'lim olinadigan hududlarni bir-biriga xalaqit bermaydigan holda joylashtirish lozim.

ILK YOSH GURUHIDA O'YIN VA TA'LIMIY JIHOZLARNING NAMUNASI

Harakatlarni rivojlantirish uchun.

1. Sirpanish uchun qiyalik.
2. Balandligi 10, 15, 20 sm yashiklar (ichiga tushib-chiqish, ustiga chiqib-tushish uchun).
3. Uzunligi 200—250 sm, balandligi 20—25 sm, mato bilan o'ralgan, polietilen tortilgan xoda.
4. Balandligi 120—130 sm, diametri 40—50 sm halqali tayanch.
5. Mo'ljalga olish uchun balandligi 50 sm, diametri 60 sm to'r savat.
6. Balandligi 150 sm, eni 100 sm, taxtachalari orasidagi masofa 15—18 sm, taxtachalari diametri 2 sm bo'lgan narvoncha.

7. Uzunligi 200—250 sm, eni 25—30 sm, yo‘g‘onligi 3—5 sm gimnastika taxtasi.

8. Chiqib-tushish uchun bolalar divanchasi.

9. Ustdan va tagidan o‘tish uchun jihozlar (halqalar, darvozachalar).

Bu jihozlarni o‘yin xonasiga bolalarning bemalol o‘ynashlari, yurishlari, yugurishlari uchun joy qoldirib joylashtirishni maslahat beramiz.

Guruhiba maxsus jihozlar va qo‘llanmalardan tashqari bolalarni harakatga chorlovchi o‘yinchoqlar ham bo‘lishi kerak. Bular koptoklar (diametri 5—7 sm, 20—25 sm), mashinalar, aravachalar bo‘lishi mumkin.

Konstruktiv faoliyat uchun katta va kichik qurilish materiallari (taxtali va plastmassali).

Sensor rivojlanishi uchun.

Piramidachalar, matryoshkalar, quti-qutichalar, yassi geometrik shakllar (doira, kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak). Katta geometrik shakllar (shar, g‘ishtcha).

Suv va qum bilan o‘ynash uchun maydoncha.

Barmoq-panja muskul va paylarini chiniqtirish uchun.

Arqonchalar, mozaikalar (qadama terma naqshlar), har xil rang va hajmdagi tugmalar, katta va mayda yormalar, qopqog‘i buraladigan plastmassa idishlar, tugma va marjonlarni o‘tkazish uchun simlar, tugunlarni bog‘lash uchun arqonlar, lentalar, egish va o‘z holiga keltirish uchun simlar.

Rasm chizish va qumga naqshlar solish maydonchasi.

Voqeaband o‘yinlar uchun joy ajratiladi (yuqorida qanday o‘yinchoqlar kerak bo‘lishi haqida yozilgan).

Bolalarga *tasviriy faoliyatni o‘rgatib borishda* tarbiyachida *qalamlar, mo‘yqalamlar, bo‘rlar va molbert* (rassom dastgohi)lar bor bo‘lishi lozim. Tarbiyachi qalam, guash va mo‘yqalamdan foydalanish yo‘llarini o‘rgatib boradi.

Bolalarning musiqa eshitish qobiliyatini shakllantirish.

Musiqa asboblari — childirmalar, yog‘och qoshiqlar, qo‘ng‘iroqchalar.

Tovush beruvchi qutichalar: (*Bolalar sigir, tovuq, jo‘ja kabi jonzotlarning tovushlarini topadilar*).

Har xil hushtaklar, ko‘ngilochar musiqali o‘yinchoqlar.

Musiqali-ritmik harakatlar uchun jihozlar (*ro‘molchalar, halqalar, har xil lentalar, gullar*).

Magnitofon, xalq musiqalari va bolalar qo'shiqlari yozilgan fonoteka.

Teatrlashgan faoliyat uchun.

Stol pardasi, flanelegraf*, ertak qahramonlari tasvirlangan qalpoq niqoblari, barmoqqa kiygiziladigan qo'g'irchoqlar, stol qo'g'irchoq teatri va boshqalar.

Yasanish uchun materiallar.

Oyna, yasanish buyumlari saqlanadigan sandiqcha, qizlar uchun ko'yaklar, nimchalar, ro'mollar, do'ppilar, yubkalar, qalpoqlar, shlyapalar, marjonlar, lentalar. O'g'il bolalar uchun do'ppilar, kepkalar, shapkalar.

Bolaning o'zi va atrofdagilar haqidagi tasavvurini shakllantirish uchun oynalar, bolalar rasmlari. Katta, kiyintirilgan qo'g'irchoqlar (*o'g'il bola va qiz bola*). Rasmlar. Turli yoshdagi odamlarning turli kayfiyatdagи rasmlari. Guruhdagi har bir bolaning boshidan oyog'igacha surati (*surat kartonga yopishtirilgan bo'lib, kontur bo'yicha kesilgan*).

Tabiat bilan tanishtirish.

Katta bargli xona o'simligi (fikus), gullovchi o'simliklar (binafsha, begoniya, yorongul va boshqalar), akvarium, baliqchalar, kuylaydigan qushlar, hayvonlarning shakllari, rasmlar, meva va sabzavotlar mulyaji**.

ILK YOSH GURUHI BOLALARI HUJJATLARINING YURITILISHI, TA'LIM-TARBIYANI REJALASHTIRISH, BOLALAR EGALLAGAN BILIM, MALAKA VA KO'NIKMALAR NING TAHLILI

Guruh hujjatlarini to'g'ri yuritish, ta'lif-tarbiya ishlarini puxta rejalahtirish ilk yosh guruhi bolalariga to'liq va to'g'ri ta'lif-tarbiya berishda asosiy o'rinni egallaydi.

Hujjatlarda bolalarning sog'lig'i, har bir bolaning jismonan va aqlan rivojlanishi va rivojlanishidagi cheklanish sabablari ko'rsatib boriladi. Bu yoshdagi bolalar juda tez rivojlanadi, ularda malaka va ko'nik-

* Flanelegraf — pahmoq tortilgan taxta, unda ishlatiladigan shakllar ham orqasidan pahmoq bilan yopishtirilgan.

** Mulyaj — narsalarning mum quyib yasalgan o'z kattaligidagi nusxasi yoki qolipi.

malarning paydo bo'lishini o'z vaqtida aniqlash hamda tarbiyalab borish hujjatlar to'g'ri yuritilgandagina amalga oshadi.

Guruhda:

- guruh kundaligi;
- ta'lim-tarbiya ishlari yuzasidan oylik va kundalik ish rejalar;
- bolaning jismoniylarini rivojlanishi xaritasi;
- bolalar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarning tahlili. Ota-onalar bilan ishslash (ota-onalar haqida ma'lumot, ota-onalar majlisining) bayonnomasi;
- „o'z kasbiga ijodiy yondashish“ daftari kabi hujjatlar bo'lishi lozim.

Siz o'z guruhingizdagi har bir bolaning yosh xususiyatini hisobga olgan holda ularning rivojlanishini muntazam kuzatib, tahlil qilib borishingiz lozim.

1 yoshdan 1 yoshu 6 oylikkacha bolalar guruhida har bir bola bilan yakka holda mashg'ulotlar o'tish rejasi tuziladi. Guruh kundaligi asosiy hujjat bo'lib, unga siz har bir bola sog'lig'i, ahvoli, rivojlanishi va xulqidagi o'zgarishlarga oid ma'lumotlarni, qaydlarni yozib, belgilab borasiz.

Birinchi, ikkinchi va to'rtinchi jadval siz tomondan bir oyda bir marta to'ldiriladi. Besinchi, oltinchi va to'qqizinchi jadvallar har kuni, besinchi va oltinchi jadval esa bolalarni qabul qilish vaqtida, to'qqizinchi jadval tarbiyachilar navbatchilikni bir-birlariga top-shirayotganlarida to'ldiriladi, yettinchi, sakkizinchi jadvalni metodist va shifokor guruhga tashrif buyurganda to'ldiradi, uchinchi va o'ninch jadval bir marta kundalik yuritila boshlanganda to'ldiriladi.

KUNDALIK DAFTAR NAMUNASI

№	Bolaning ismi va familiyasi	Tug'ilgan yili	Kelas oydagisi yoshi	Ertalabki kuzatish natijalari			Bolaning sog'lig'i haqida ota-onalar ma'lumoti	Tibbiy ko'rsatma	Pedagogik ko'rsatma	Tarbiyachining kuzatvi	Eslatma
				Teri	Og'iz bo'shilig'i	Harorat					
1	2	3	4	5			6	7	8	9	10

Kundalik daftarning birinchi betiga 1—7- jadvallar, ikkinchi betiga 8—10- jadvallar yoziladi. Jadvallar har oy uchun tuziladi.

„Eslatma“da quyidagilar yoziladi:

1. Sana va ish vaqtı.
2. Bola sog‘lig‘ining ahvoli, uyqusi, ishtahasi, kayfiyati.
3. Bolaning jismonan rivojlanishi va xulqidagi yangiliklar hamda o‘zgarishlar.
4. Mashg‘ulotlarda bolaning xulqi.
5. Ishdagi qiyinchiliklar.
6. Guruuning kun tartibi va mashg‘ulotlardagi kamchiliklar.
7. Tibbiy va pedagogik ko‘rsatmalarning bajarilishi.
8. Imzo.

Guruhg‘a kelgan yangi bolalar uchun ko‘nikish jadvali ochiladi.

Ta’lim-tarbiya ishlari rejasi „Uchinchi mingyillikning bolasi“ tayanch dasturi asosida tuziladi.

Ilk yoshdag‘i bolalar guruhiba tarbiyachi har oyda tarbiyachi yordamchisi, mudira, shifokor, hamshira, metodistlar bilan yig‘ilish o‘tkazib, bolalarning sog‘lig‘i va ta’lim-tarbiyasi haqida fikrlashadi so‘ngra har bir bola uchun oylik ish rejasi tuzadi.

Oylik ish rejasi quyidagilardan tashkil topadi:

1. Kun tartibi, kun tartibi jarayonlari.
2. Mashg‘ulotlar.
3. Mustaqil faoliyat.
4. Bolalar bilan yakka holda ishlash.
5. Ota-onalar bilan ishlash.

Oylik ish rejasining kun tartibi qismida bolalarni yangi kun tartibiga o‘tkazish, bolalarda ovqatlanish paytida madaniy-gigiyenik ko‘nikmalarни shakllantirish, yuvinish jarayonida orastalikni o‘rgatish kabi vazifalar rejalashtiriladi.

Mashg‘ulotlar qismida mashg‘ulotlarning turi, nomi, ularni tashkil etishda yangi shakllardan foydalanish, diqqat va sabr-toqatli bo‘lishni tarbiyalab borish kabilar rejalashtiriladi.

Mustaqil faoliyat qismida bolalar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar, kerakli o‘yinchoqlar rejalashtiriladi.

Bolalar bilan yakka holda ishlash qismida har bir bola bilan ishslash usullari ko‘rsatiladi.

Ota-onalar bilan ishslash qismida bolaning ismi, familiyasi, muassasaga kelgan kuni, yashash joyi, ota-onasining ismi familiyasi, ishslash joyi, telefon raqami yoziladi.

O'yin mashg'ulotlarini rejalashtirish.

O'yin mashg'ulotlari 1 yoshdan — 1 yoshu 6 oylik va 1 yoshu 6 oylikdan — 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun alohida rejalashtiriladi.

Mashg'ulotlar ikki guruhcha uchun aynan bir xil bo'lishi mumkin, lekin ularning mazmuni va uslubi bolalar yosh xususiyatiga mos kelishi kerak.

Bolalarning harakat faolligi hisobga olingan holda mashg'ulotlarning bir haftalik jadvali tuziladi. Jismoniy tarbiya va musiqa mashg'ulotlarini bir kunda o'tkazish maqsadga muvofiq emas. Harakatli va harakatsiz mashg'ulotlarni bir kunda o'tkazish rejashtiriladi.

Kundalik ish rejasiga sayrlar ham kiritiladi. Bunda kuzatish va tabiiy materiallar bilan ta'limiy va harakatli o'yinlar o'tkazish ko'zda tutiladi.

Biror mashg'ulotda dastur vazifalari bajarilmay qolsa, bu mashg'ulot qayta rejashtiriladi. Ta'lim-tarbiya ishlari tahlil etilganda, avvalo, dastur vazifalarining bajarilgani, har bir bolaning bilimi, ko'nikma va malakasi hisobga olinadi.

„Kasbga ijodiy yondashish“ daftaringizga kasbingizga taalluqli bo'lgan yangiliklar, ma'lumotlar bilan tanishganingiz va bu ma'lumotlarga oid fikr-mulohaza hamda taassurotlaringizni yozib borasiz.

Hurmatli hamkasaba, ilk yoshdagi bolalar guruhi hujjatlarining yuritilishi, gurujni jihozlashga oid maslahatlarimiz samarali ish tajribalaridan olingan. Siz o'z faoliyattingiz davomida yangi shakl va uslublardan foydalaning, kasbingizga ijodiy yondashing. Ko'p yillik ish faoliyatiga ega tarbiyachilarining ish tajribalarini o'rganing. O'z ustingizda doimo ishlang. O'zingizni tarbiyalab boring, yaxshi tarbiyalangan tarbiyachigina bolalarga ta'lim-tarbiya berishda muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin.

Ilk yosh guruhi bolalarini tarbiyalashda qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlaringiz va tajribalaringizni yosh tarbiyachilar bilan o'rtoqlashing.

Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 20- sonli mактабгача та'лим муассасасининг (мудир I.Kazakova) ilk yosh guruhi tarbiyachilari M.N.Sherbina va Z.Umerbekovalarning ish hujjatlaridan namunalar.

BOLALARNI JISMONIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI

Nº	Ismi, sharifi	Vazni	Bo'yisi	Bosh aylanasinig o'chhami	Ko'krak qafasining o'chhami
1					
2					
3					
4					

BOLALARNI JISMONIY RIVOJLANISHI, SOG'LIG'I VA HARAKAT FAQLLIGINING TAHLILIY KO'RSATKICHI

BOLANI RIVOJLANISH VA XULQ-ATVORINI TAHLILIJ XARITASI

Tug‘ilgan vaqtি

Ismi, sharfi _____

MTMga kelgan vaqtı

2—3 YOSHLI BOLALAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA ULARGA TA'LIM-TARBIYA BERISH

2—3 yoshli bolalarga ta'lim-tarbiya berishdan avval tarbiyachi o'z guruhidagi har bir bolaning rivojlanish imkoniyatlarini churur o'rganib faoliyat olib borsa, bola berilayotgan bilimlarni, o'rgatilayotgan ko'nikma va malakalarni o'z xohishi bilan chin dildan bajarishga harakat qiladi.

Ilk yosh davri — bolaning barcha tana a'zolarining jadal ravishda o'sish davridir.

2—3 yoshli bolalarning jismonan va aqlan rivojlanishi, xulq-atvorlari quyidagi savollarga olinadigan javoblar orqali aniqlanadi.

1. O'tgan ikki yil davomida bola qanday ko'nikma va malakalarni egalladi?

2. U hayotdan, o'zini o'rab turgan tevarak-atrofdan qanday taassurotlar oldi?

3. Bolaning o'yin faoliyati uchun qanday sharoitlar yaratildi?

4. Atrofidagi kattalar unga qanday tarbiyaviy ta'sir ko'rsatdilar, nimaga qanday o'rgatdilar?

Ta'lism-tarbiyaviy ishlar to'g'ri rejalahtirilsa, 2—3 yoshli bolalarning rivojlanishida muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Masalan, 3 yoshli bolaning vazni 14, 9—15,0 kg, bo'y 95,0 — 96,0 sm, ko'krak qafasining doirasi 52 sm bo'ladi (2 kg orasida farqi bo'lishi mumkin).

Bu yoshdagi bolalarning tana a'zolari tez o'zgarib, faoliyati takomillashib borishi davom etadi, shuning natijasida bola jismonan chiniqib, chidamli bo'lib boradi.

Bolaning atrof-muhit bilan bo'ladigan o'zaro munosabati jarayonida oliy asab tizimi faoliyati rivojlanadi. Asab tizimi ish faoliyatining ortishi natijasida bolaning faol tetikligi 6—6,5 soatgacha uzayadi, shuning uchun bola biror yumush (o'yin) bilan uzoq vaqt shug'ullana oladi. Bosh miya qobig'ining boshqarish roli ortadi (bola yig'lamasdan o'zini tutib turishi yoki biror-bir ish bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, ovqat yeish yoki suv ichishni unutishi mumkin). Shartli reflekslar tez shakllana boradi. Yangi so'z yoki o'yin qoidasini

eslab qolishi uchun uni bolaga bir necha marta ko'rsatish yoki tushuntirish, aytish kifoya qiladi. Tormozlanish jarayonining rivojlanishi ro'y beradi. Bola tarbiyachini o'z ishidan bo'shaguncha kutib tura oladigan bo'ladi.

Shunga qaramasdan bu yoshdagi bolalar uzoq kutib, bir joyda ko'p o'tira olmaydilar, bir xil harakatlardan tez charchab qoladilar. Bu yoshdagi bolalarga boshqa faoliyatga o'tish taklif etilsa, bezov-talanadilar, xulq-atvorlarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi.

2—3 YOSHLI BOLALAR TARBIYASINING VAZIFALARI

2—3 yoshli bolalarni tarbiyalashdan asosiy maqsad, ularni jismongan, aqlan, ma'nан, ruhan hamda estetik jihatdan to'g'ri rivojlantirishdir.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari:

- bolaning barcha tana a'zolari va ularning o'ziga xos tizimining normal faoliyat ko'rsatishi uchun salomatligini mustahkamlash va muhofaza qilish;
- bola jismoniy rivojlanishining to'liq va o'z vaqtida olib borilishini ta'minlash;
- bola harakatlarini harakatlanish faoliyatining turli shakllaridan foydalanilgan holda rivojlantirish;
- bolaning tetik va jo'shqin holatini ta'minlash; charchab qolishiga yo'l qo'ymaslik;
- madaniy-gigiyenik va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nik-malarini tarbiyalash.

Aqliy tarbiyaning vazifalari:

- bola sensor rivojlanishini davom ettirish;
- bola faol nutqini, shuningdek, atrofdagilar nutqini tushunishini (nutqning grammatik tuzilishini, to'g'ri talaffuz qilishni, tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan muloqotlarda nutqdan keng foydalanishini) shakllantirish;
- ko'rgazmali harakat tafakkurini rivojlantirish (oddiy fikrlash va umumlashtirishni rivojlantirish);
- joyni to'g'ri topa olish malakasini o'stirish, o'yin (rolli, mazmunli) va faoliyatning yangi turlarini shakllantirish;
- diqqat, xotira, tasavvur va kuzatishni shakllantirish.

Axloqiy tarbiyaning vazifalari:

— kattalar va o‘z tengdoshlariga ijobjiy munosabatni tarbiyalash (kattalarning taklif va iltimoslarini bajarish, ota-onalarga, tarbiyachiga bog‘liqlikni his etish, muloqot sabablarini kengaytirish, bolalarga do‘stona munosabatni singdirish, birgalikda o‘ynashni bilish, yordam berish, hamandardlik bildirish va boshqalar);

— mardlik, qiziquvchanlik, hozirjavoblik, tashkilotchilik kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalash (qiyinchiliklarni mustaqil yenga olish, boshlagan ishini oxiriga yetkazish va boshqalar);

— madaniy xulq-atvor malakalarini shakllantirish (xushfe’l bo‘lish, orastalik, ko‘rsatilgan xizmat va yordamga minnatdorchilik bildirish), nutq madaniyatini tarbiyalash (baqirmsaslik, qo‘l bilan siltamaslik, gapirayotgan odamning so‘zini bo‘lmaslik va hokazo);

— kattalar mehnatiga hurmat va qiziqishni, oddiy mehnat topshiriqlarini bajarishga bo‘lgan ijobjiy munosabatni, o‘z-o‘ziga xizmat qilish, alohida mehnat harakatlari, mehnat malakalarini tarbiyalash.

Estetik tarbiyaning vazifalari:

— tozalik va tartiblilikka ijobjiy, ifloslik va tartibsizlikka salbiy munosabatda bo‘lishni tarbiyalash;

— musiqa tinglash, qo‘shiq aytish, badiiy so‘z va badiiy rasm hamda tabiatga bo‘lgan qiziqish — muhabbatni tarbiyalash;

— bolaning emotsiyonal hayotini boyitish: turli emotsiyonal kechinmalar sabablarini kengaytirish, ko‘ngildagidek bajarilgan ishga, chiroyli guldastaga, qo‘g‘irchoqning ko‘rkam kiyimidan xursand bo‘lishga, yig‘layotgan bolani yupatishga o‘rgatish va boshqalar.

BOLALAR FAOLIYATI VA TARBIYASINI TASHKIL ETISH

Bolalar faoliyati va tarbiyasini to‘g‘ri tashkil etishda kun tartibi katta ahamiyatga ega. Kun tartibi bolalar faoliyatining ular yoshiga mos ravishda to‘g‘ri taqsimlanishidir. Muassasada kun tartibi bolalarni qabul qilishdan boshlanadi.

Bolalarni qabul qilish.

Muassasada bolalarni ertalab toza havoda qabul qilib olish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachilar bu vaqtida bolalar bilan turli o‘yinlar o‘ynaydilar, tabiatdagи o‘zgarishlarni kuzatadilar, o‘simliklarni parvarish qiladilar, o‘yin maydonchalarini tozalaydilar, ota-onalar bilan suhbatlashadilar.

Ertalabki badantarbiya.

Mashqlar har kuni ertalabki nonushtadan oldin olib boriladi. Bahor, yoz va kuzda bolalar badantarbiya bilan toza havoda shug‘ullanadilar. Mashqlar 4—5 daqiqa davom etadi. Bir turkum badantarbiya mashqlari ikki hafta davomida takrorlanib olib boriladi. Ertalabki badantarbiya mashqlarini bajarish jarayonida bolalar harakatlarining yuqori faolligi ta’minlangan bo‘lishi kerak. Bunda bolalarga uzoq tushuntirish, tanbeh berish, mashqlar orasida asossiz tanaffuslarga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Bolalarni ovqatlanadirish.

O‘sayotgan bola organizmi sifatlari, to‘yimli, vitaminlarga boy oziq-ovqatlarni talab qiladi. Bola ovqatinning tarkibida oqsillar (go‘sht, baliq, tvorog, tuxum), yog‘lar (sariyog‘, qaymoq), uglevodlar (shakar, non, yorma, un), mineral tuzlar (sut, pishloq, qora non), vitaminlar (ho‘l meva va sabzavotlar, ko‘katlar), suvlar (sho‘rva, kakao, choy, sharbat) bo‘lishi karak.

2—3 yoshli bolalar har 3,5—4 soatda kuniga 4 mahaldan ovqatlanadilar. Ovqatlanish paytida ularning kayfiyatları, ishtahalari doimo e’tiborga olinadi, vaqtida ovqatlanishlari uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Sayr. Sayrni tashkil etish.

— MTMda 2—3 yoshli bolalar bilan olib boriladigan sayrning asosiy maqsadlari;

- bolaning erkin harakat qilishi uchun sharoit yaratish;
- tabiat hodisalarini, o‘simliklar va hayvonot olamini kuzatish;
- tevarak-atrofdagi narsalar (gul, barg,...) bilan harakat qilish;
- tevarak-atrofdagi narsalarning xilma-xil shakllari, rangi, hidi va tovushini bilish.

Sayr tarkibiga tabiat hodisalarini, hayvonot va o‘simlik olami, kattalar mehnati yoki jamiyatdagi boshqa hodisalarni kuzatish jarayonlari kiritilishi lozim.

2—3 yoshli bolalarni tabiat bilan tanishtirish.

Tabiat hodisalarini his qilishga va atashga o‘rgatish (qor va yomg‘ir yog‘ayapti, quyosh charaqlayapti, shamol esayapti).

Tabiatni asrashdek xislatni tarbiyalab, tabiatga qiziqishini orttirishni davom ettirish. Yaxshi ko‘rgan daraxt, buta yoniga mehmonga borish, daraxtning tanasi, shoxi va barglarini atash (tabiat burchagida), baliqlarning suzishi va ovqatlanishini kuzatish, o‘tlar, gullar va daraxtlar

haqidagi tasavvurlarini mustahkamlash, ularni bir-biridan farqlay olishga o'rgatish (o't yashil va past, daraxt baland, unda barglar ko'p, gullar qizil, sariq va oq ranglarda).

Meva va sabzavotlarni tashqi ko'rinishiga qarab bir-biridan ajratish va nomlarini atashga o'rgatish. Kapalak va qushlar (uchishi, daraxtlarga qo'nishi, cho'qishi)ni kuzatish.

Hayvonlarni (rasm va o'yinchoqdan) bir-biridan farqlashga va nomlarini atashga o'rgatish (it, mushuk, sigir, ot, tovuq, quyon, ayiq, tulki va boshqalar).

Tarbiyachi bolalarni tabiat bilan tanishtirishni birgalikda mehnat qilish orqali olib boradi. Masalan, quyon kuzatilgandan so'ng unga o't va suv beriladi. Tarbiyachi avvaldan sayrda bolalarni qanday mehnat vazifalarini bajarishlarini rejalashtirgan bo'lishi lozim. Bolalarga mehnat predmetlaridan foydalanish o'rgatib boriladi. Chelakchalar, supurgilar, hokandozlar bolalarning mehnat qilishlari uchun qulay bo'lishi kerak.

Sayrda harakatli, voqeaband o'yinlar o'ynaladi.

Tabiat qo'yninga sayr rejalashtirishda bolalar harakatlanishlarining to'g'ri taqsimlanishi, ular faoliyatlarining almashtirilishi hisobga olinmog'i lozim.

Taxminiy kun tartibi

Uyda

Uyqidan turish, ertalabki yuvinib-taranish	7.00—7.30
--	-----------

Maktabgacha ta'lim muassasasida

Qabul, ko'zdan kechirish, haroratni o'lhash,	7.30—8.30
ertalabki badantarbiya	8.30—9.00
Nonushta	9.00—9.30
O'yinlar, mashg'ulotlarga tayyorlanish	9.30—10.00
Mashg'ulotlar	10.00—10.20
Sayrga tayyorlanish	10.20—12.00
Sayr	12.00—12.20
Sayrdan qaytish	12.20—13.00
Tushlik	13.00—15.30
Uyqu	15.30—16.00
Asta-sekin o'rindan turish, havo va suv muolajalari	16.00—17.00
Tolma choy	16.30—17.00
O'yin-mashg'ulotlar	17.00—17.20
Sayrga tayyorlanish	17.20—18.20
Sayr, o'yinlar	18.20—18.35
Sayrdan qaytish	

Kechki ovqat	18.35—19.00
Bolalarning uyg'a ketishlari, ochiq havoda o'ynash	19.00—19.30
Uyda	
Sayr	19.30—20.00
Tinch o'yinlar, yuvinish muolajalari	20.00—20.30
Tungi uyquga tayyorlanish, tungi uyqu	20.30—7.00

JISMONAN SOG'LOMLASHTIRISH ISHLARI

Tabiiy sharoitda bola salomatligi hisobga olinib, tibbiy xodimlar boshchiligidagi, ota-onalar bilan kelishilgan holda tabiiy unsurlar (havo, quyosh, suv)dan foydalanib, bolani chiniqtirish ishlari olib boriladi.

Bolalar xonada yengil kiyimlarda bo'lishga o'rgatib boriladi. O'yinxona va qabulxona 19—20, yotoqxona 18, hojatxona 22 daraja issiq bo'lishi kerak. Xonalar haroratiga qarab bolalarning kiyinislari nazorat qilinadi.

Bolalarни chiniqtirish yilning issiq davrlarida kun davomida toza havoda tashkil etiladi. Ularning yalang'och (bitta ishtonchada), boshlarida panama bilan ertalabdan-kechgacha o'zin maydonchasida bo'lishlarini tashkil etish lozim. Suv muolajalari yilning issiq davrida tushlikdan avval o'zin maydonchasida, sovuq davrida esa guruh xonasida o'tkaziladi.

Ertalabki badantarbiya mashqlarini har kuni bajarish kerak.

Bolalarning harakatli o'yinlarga bo'lgan qiziqishlari orttirilib, ularning birgalikdagi mustaqil faoliyatları, harakatlari kun davomida nazorat qilib boriladi.

2—3 YOSHLI BOLALARDA TURLI MALAKA VA KO'NIKMALARNI TARBIYALASH

Madaniy ovqatlanish ko'nikmasi.

Bu ko'nikma bolalarda muntazam takomillashtirilib boriladi. Bola tartib bilan ovqatlanishga, ovqatni yaxshilab chaynashga, qoshiqni o'ng qo'lda ushlashga o'rgatiladi. Bolalarga ovqatlanish jarayonida yonidagi o'rtog'ining idish-tovog'iga tegmaslik, ovqatlanib bo'lgandan so'ng stulini joyiga surib qo'yish kabi oddiy qoidalarga riosa qilish, 3 yoshga yaqinlashganda murakkab: o'yinchoqlarni yig'ishtirib, qo'lini

yuvib ovqatlanishga o'tirish, sochiqdan foydalana bilish, ovqatlanib bo'lgandan so'ng minnatdorchilik bildirish kabi murakkabroq ko'nikmalar o'rgatib boriladi.

Pokizalik madaniy-gigiyenik malakalari.

Bolalar qo'l va yuzlarini yuvayotganlarida yenglarini shimarib, suvni sachratmay,sovundan to'g'ri foydalanishga, yuvinib bo'lgandan so'ng o'z sochiqlari bilan yuz-qo'llarini yaxshilab artishga va sochiqlarini o'z joyiga ilishga, zarur bo'lganda dastro'molchadan foydalanishga o'rgatib boriladi.

Orasta va tartibli bo'lish malakalari.

Bolalarni kiyinish va yechinish jarayonida mustaqil harakat qilishga undash. Kiyinish va yechinish jarayonida tartibga rioxay qilishga, avval kattalar ko'magida so'ngra mustaqil yechinib-kiyinishga, kiyimlarini tartib bilan javoniga ilishga yoki taxlashga, tashqi ko'rinishida tartibsizlik bo'lsa, tartibga solish uchun kattalardan iltimos qilishni bilishga o'rgatish.

Tevarak-atrofda tartibni saqlash malakasi.

Bolalarni yengil xo'jalik mehnatini bajarishga jalgan etish.

Stullarni stollar atrofiga, non uchun likobchalar, salfetka idishlar, qoshiqlarni stollarga qo'yishni, qalamlar, taxtalar, lattachalarni mashg'ulot uchun taxt qilishni, o'yindan so'ng o'yinchoqlar, rasmlar, kitoblarni yig'ishtirishni, qushlar tokchalarini yuvishni, baliqlarni ovqatlantirishni, o'simliklarga suv quyishni, o'yinchoqlarni maydon-chaga olib chiqishni, maydonchani yig'ishtirish (barg, cho'p, toshchalarni yig'ish)ni o'rgatish.

Madaniy xulq-atvor, ijobiy munosabatda bo'lish va oddiy muomala malakalari.

Bolalarga kattalar, o'z guruhining tarbiyachisi, tarbiyachi yordamchisi bilan salomlashish, xayrashish, ota-onalari ularni olgani kelganlarida salomlashish, iltimos, minnatdorchilik ma'nosini bildiruvchi so'zlar (rahmat, iltimos, marhamat qilib)ni o'z vaqtida aytish, kattalarning savollariga javob berishni o'rgatish. Bolalarda tengqurlari davrasida o'zini tuta olish malakasini shakllantirish. O'z o'rtoqlariga g'amxo'rlik qilish, e'tiborli bo'lish, yordam berishga undash lozim. Qo'pollik, qizg'anchiqlik, urushqoqlikka nisbatan salbiy munosabatni tarbiyalash.

Oila, ko'cha, muassasada madaniy xulq-atvor qoidalariga rioxay qilish (shoshmay, past ovozda gapirish, xonaga kirayotganda oyoq-

kiyimlarni artish, salomlashish, hojatxona va yuvinish xonasida tartibga rioya qilish)ni o'rgatish. Pokizalik, orastalik, tartiblilikdan qoniqish hissini uyg'otish, kattalar iltimoslari va ko'rsatmalariga e'tiborli bo'lish, ularning iltimosini darhol bajarishni o'rgatish.

Bu malaka va ko'nikmalarni bolalarga o'rgatish hamda shakllantirishda, ularning ota-onalari bilan hamkorlikda ish olib bor-sangizgina yaxshi natijalarga erishishingiz mumkin. Guruhingizdagi bolalar egallagan ko'nikma va malakalar tahlilini quyidagi tartibda amalga oshirishni tavsiya etamiz.

1. Malaka va ko'nikmalarga to'liq ega bo'lgan bolalar.
2. Malaka va ko'nikmalarga qisman ega bo'lgan bolalar.
3. Malaka va ko'nikmalarga umuman ega bo'lмаган bolalar.

Shu tahlil asosida malaka va ko'nikmalarga qisman va umuman ega bo'lмаган bolalar bilan ishslash rejasi tuziladi, ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borilib, barcha malaka va ko'nikmalar bolalarga o'rgatilib, shakllantiriladi. Bu yoshdagi bolalarga malaka va ko'nikmalar o'rgatishda sabr-toqat talab etiladi. Har bir malaka va ko'nikma bittalab, bir necha marta takrorlanib, tartib bilan ko'rsatilib mustahkamlanadi. Bu jarayon shirinso'zlik bilan, bolalar rag'batlantirilgan holda olib boriladi.

2—3 YOSHLI BOLALAR NING MEHNAT TARBIYASI

Bu yoshdagi bolalarning mehnat tarbiyasida mehnatning *o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, maishiy-xo'jalik va tabiat qo'ynida mehnat* turlaridan foydalangan holda ish olib boriladi.

2—3 yoshli bolalar mehnat tarbiyasining vazifalari.

Mehnat qilish malakasini shakllantirish, sidqidildan mehnat qilish va berilgan topshiriqni diqqat bilan tinglab, bajarishga undash, mehnatsevarlik, bir-biriga yordam berish, bajargan mehnati natijasidan xursand bo'lish, kattalar mehnatini hurmat qilish, e'zozlash, mehnatga mas'uliyat bilan yondashish, mehnat jarayoni tugagandan so'ng ishlatilgan mehnat asboblarini joy-joyiga qo'yish.

Bu yoshdagи bolalarning mehnat tarbiyasi topshiriqlar berish, ko'rsatish, tushuntirish, bevosita yordam berish usullaridan foydalangan holda olib boriladi.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish mehnati yuvinish, kiyinish, yechinish, ovqatlanish kabi jarayonlarda amalga oshiriladi.

Maishiy-xo‘jalik mehnati.

Stol atrofiga stullarni to‘g‘ri qo‘yib chiqish, likobchalarni, qoshiqlarni, idishlarni, salfetkalarni stol ustiga qo‘yish.

Tabiat qo‘ynida mehnat.

Xona o‘simgiliklarini sug‘orish, baliqlarni ovqatlantirish, maydonchadagi daraxtlar va gullar tagiga suv quyish.

MASHG‘ULOTLAR

2—3 yoshli bolalar bilan maktabgacha ta’lim muassasasida bir haftada 10 ta mashg‘ulot 10—15 daqiqadan olib boriladi.

Bu mashg‘ulotlarda bolalar tevarak-atrof, buyumlar, jamoa hayotining ko‘rinishlari, tabiat bilan tanishtirib boriladi, nutqi va tafakkurini, tasviriy hamda konstruktiv faoliyat, musiqani idrok qilish, qo‘sish aytish ko‘nikmalari rivojlantiriladi, o‘quv faoliyatining dastlabki ko‘nikmalari shakllantirib boriladi.

Mashg‘ulotga tayyorgarlik tarbiyachining o‘z oldiga qo‘yan maqsadiga erishishda asosiy omil hisoblanadi. Mashg‘ulotni boshlashdan oldin bolalarni chalg‘ituvchi hamma narsalarni yig‘ishtirib qo‘yish, qushlar qafasini mato bilan yopish lozim. Tarbiyachi yordamchisi barcha ishlarini bolalarga xalaqit bermasdan bajarishi kerak.

Bolalarni mashg‘ulotga jalb etish uchun kutilmagan, kulgili holatlarga boy voqealarni so‘zlab berish yoki qiziqarli ko‘rinishlar ijro etish usullaridan ham foydalaniladi. Masalan, qo‘g‘irchoqning mehmonga kelganini, u ham bolalar bilan birga o‘ynashini, mashg‘ulot yakunida bolalarning qanday shug‘ullaniganliklariga baho berishini aytib, mashg‘ulotni boshlaydi.

Bu yosh guruhi bolalari tarbiyachini juda qiziqib eshitadilar, lekin ular bir-birlarini tinglashni, biror bola javob berayotganida kutib turishni bilmaydilar, shuning uchun mashg‘ulot bolalar tarbiyachini yaxshi ko‘radigan va so‘zlarni aniq eshitadigan tarzda o‘tkazilishi lozim. Bu ularni birgalikda jo‘r bo‘lib javob berishga undaydi.

2—3 yoshli bolalarga ta’lim berishda namuna ko‘rsatish, tushuntirish uslublaridan foydalilaniladi. Bu uslublar o‘yin usullariga moslab olib boriladi. Mashg‘ulotning bir qismi ta’limiy o‘yin yoki sahna

ko‘rinishi shaklida o‘tkaziladi. Ba’zi mashg‘ulotlar stol atrofida, ba’zilari esa stullar doira shaklida terilib, olib boriladi. Tarbiyachi har bir mashg‘ulotda bolalarni predmetlarning nomi, xususiyati bilan tanishtiradi, masalan, qurilish materiallari bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda aqliy va amaliy vazifalarni qo‘yadi. Bolalar bu vazifalarni tushunishga harakat qiladilar. Ular tushunganlardan so‘ng tarbiyachi bajarish yo‘llarini ko‘rsatadi va bolalar faoliyatini aniq natijaga erishishga yo‘naltiradi.

2—3 YOSHLI BOLALAR NUTQINI O‘STIRISH

Bolalar nutqini o‘stirishda muhitni, avvalo, predmet muhiti (bolalarni mustaqil ko‘rishlari uchun aniq bir joyga qo‘yilgan predmetlar, rasmlar, kitoblar)ni yaratish katta ahamiyatga ega.

Tarbiyachining qiziqarli mavzudagi his-hayajonli, mazmunli hikoyalari bolalarni befarq qoldirmaydi. (Hikoya aytishdan maqsad — bolalarni kattalar nutqini idrok etishga, musiqa kabi nutqni ham berilib tinglashga o‘rgatish. Bola hikoya mazmunining hammasini tushunmasa ham ongida u haqida tasavvur qoladi).

Shuningdek, kattalar bilan (tanish bo‘lgan odamlar va guruh mehmonlari), bolalar (o‘z tengqurlari, o‘zidan katta va kichik bo‘lgan bolalar) bilan muloqotda bo‘lish ko‘nikmasini mukammallashtirish kerak.

2—3 yoshli bolalar nutqini o‘stiruvchi muhitni yaratish.

Tarbiyachi faqat nutq o‘stirish mashg‘ulotlaridagina emas, balki kun davomida, bolaning barcha faoliyat jarayonlarida uning nutqiga ahmiyat berishi, muloqotga kirishishi uchun sharoit yaratishi lozim. U har qanday sharoitda ham insonni tarbiyalayotganini, shaxsni shakllantirayotganini unutmasligi kerak.

Tarbiyachi bolalarga mustaqil ravishda rasmlar, o‘yinchoqlar va predmetlar (matryoshkalar, ko‘ngilochar o‘yinchoqlar)ni tomosha qilishni taklif etadi.

Bolalarni hikoyalari tinglashga o‘rgatib, muloqot qilishlari uchun topshiriqlar beradi. (Qabulxonaga qara-chi, kim keldi, menga ayt-chi... va hokazo).

Nutq o‘stirish mashg‘ulotlariga tayyorgarlik o‘tkazishga qo‘yilgan talablar.

2—3 yoshli bolalar nutqini o'stirish bo'yicha ishlar mashg'ulotlar va kun davomida olib boriladi.

Mashg'ulotlar reja asosida olib boriladigan ta'lim jarayoni bo'lib, bunda tarbiyachi maxsus uslublar orqali bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtiradi, so'z boyligini oshirib, to'g'ri talaffuz malaka va ko'nikmalarini shakllantiradi.

Yuqorida aytiganidek, bolaning nutqi uning turli-tuman faoliyatida shakllanib boradi. U o'ynayotganda, o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lganda nutqdan faol foydalanadi. Tarbiyachi o'z vaqtida bola nutqining to'g'ri rivojlanishiga ta'sir etmasa, bolaning nutqni qabul qilishi qiyinlashadi. Bola kattalar va o'z tengqurlariga tabassum hamda iltimos bilan, yaxshiliklarga minnatdorchilik bildirib muomala qilishga o'rgatib boriladi.

2—3 yoshli bolalar bilan haftasiga 2 ta mashg'ulot o'tiladi. Bular bolalar nutqini o'stirish va bolani o'rab turgan tevarak-atrof bilan tanishtirish mashg'ulotlaridir.

Bu mashg'ulotlarni kunning birinchi va ikkinchi yarmida o'tkazish rejalashtiriladi. Kunning birinchi yarmiga yangi o'rgatiladigan material, ikkinchi yarmiga esa takrorlanadigan material rejalashtiriladi.

Bu guruhsda nutq o'stirish mashg'ulotlari yoz oylarida ham qisqartirilmaydi. Bolalar toza havoda bo'ladilar. O'tlar, gullar, barglar, meva-sabzavotlarni ko'rish, qushlar, kapalaklar, uy hayvonlarini kuzatish, suv va qum bilan o'ynaladigan o'yinlar rejalashtiriladi.

Mashg'ulotlar bolalarni guruhchalarga bo'lgan holda o'tkaziladi, nutqining o'sishiga qarab, bolalarning guruh tarkibi o'zgartiriladi.

Yangi material 1—2 mashg'ulot davomida takrorlanib o'rgatiladi.

Mashg'ulotlarni rejalashtirish jarayonida bolalarning aqliy va nutqiy zo'riqishlari hisobga olinmog'i lozim. Sentabr-noyabr oylarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarga kamroq yuklanma olinib, bolalar shug'ullanishga asta-sekin o'rgatib boriladi. Bolalarning yosh xususiyatlarini albatta hisobga olish lozim, mashg'ulot tugagandan so'ng ular tezda tarqalib ketmaydilar, aksincha, tarbiyachi va o'yinchoqlarga talpinadilar. Mashg'ulotda passiv qatnashgan bolalar shu vaqtida faollashib javob berishga harakat qiladilar, shuning uchun mashg'ulot tezda tugatilmasdan, bolalar yangi materialni o'zlashtirib olishlari uchun yana 3—4 daqiqa davom ettirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu yoshdagi bolalar mashg'ulotlarda shug'ullanishni yaxshi ko'radir, lekin ularning xotirasi va diqqati yaxshi takomillashmagan bo'ladi. Bolani o'tiladigan mashg'ulot mavzusiga qiziqtirmay turib maqsadga erishib bo'lmaydi, shuning uchun mashg'ulot rejlash-tirilayotganda albatta nimalarga o'rgatish va buni qanday amalga oshirish haqida o'ylash darkor. Mashg'ulotni boshlashdan avval stol ustiga kerakli materiallar yoki o'yinchoqlar qo'yiladi, bolalar ularga qiziqish bilan qaraydilar. Tarbiyachi bolalarning qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida: „Bolalar, hozir biz shu o'yinchoqlar bilan shug'ullanamiz, mashg'ulot boshlangandan keyin hammasi haqida gapirib beraman“, — deydi.

Mashg'ulotni shunday tashkil etish va olib borish kerakki, bunda har bir bola o'zi mustaqil shug'ullanishni xohlasin, yangi narsani o'rganishga intilsin. Bunda tarbiyachining his-hayajonli nutqi, imoishorasi juda katta rol o'ynaydi. Tarbiyachi mashg'ulotni kerak paytda sirli, sekin, qiziqarli qilib yoki tovushini balandlatib, artistlik mahoratidan foydalanib olib borsa, bolalar albatta qiziqib shug'ullanadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning eng asosiy faoliyati o'yin, so'ngra mehnat va o'qishdir. Shularni hisobga olib, har bir mashg'ulotni o'yin tarzda o'tkazish lozim.

Bolalarni mashg'ulotlarda qulay holda o'tkazish kerak (yarim doira shaklida, stol atrofida yoki gilamchada). Barcha bola tarbiyachi va u ko'rsatayotgan ko'rgazmani ko'rishi shart.

Bu yoshdagi bolalar taqlidchan bo'ladilar, ular tarbiyachi va o'z tengdoshlariga taqlid qiladilar. Juda qiziqarli mashg'ulotda ham biror bola stulni qimirlatib o'tirsa, tarbiyachi tezda bunga ahamiyat berib, ularni chalg'itmasa, qolgan bolalar ham stullarini qimirlata boshlashadi. Shunday hol yuz bergen taqdirda „stulni qimirlatmasdan tinch o'tir“, deb tanbeh berilmasdan, mashg'ulotda foydalanilayotgan o'yinchoq orqali: „Lolaxon, cho'chima, Ilhomjon bilmasdan stulni qimirlatib yubordi“ yoki „Ilhomjon, ma, Lolani ushlab tur, qo'rqitib yuborma“, — deb murojaat qilish lozim.

Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan ko'rgazmalar chiroyli, yorqin, bolalar diqqati va qiziqishini o'ziga tortadigan bo'lishi lozim.

Tarbiyachi bu guruh bolalarini berilgan savolni tushunish va unga to‘g‘ri javob berishga o‘rgatadi. Agar bola berilgan savolga javob bermasdan tursa, u holda tarbiyachining o‘zi darhol javob beradi va bolalar bilan birgalikda javobni qaytaradi so‘ngra aynan shu savolni yana javob bermagan bolaga beradi.

Bu yoshdagи bolalar juda ishonuvchandir, ular tarbiyachining har bir so‘zi va harakatiga chin dildan ishonadilar. Tarbiyachi bolalarning shu xususiyatlarini unutmay, ular bilan doim samimiy munosabatda bo‘lishi, ularni rag‘batlantirib turishi lozim.

BOLALARNI TEVARAK-ATROF BILAN TANISHTIRISH MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH METODIKASI

Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish bola nutqining o‘sishi va shakllanishida muhim rol o‘ynaydi; uning so‘z boyligi ortadi, tovushni to‘g‘ri talaffuz qilishi shakllanadi.

Olamni tushunishning birinchi bosqichi sezish, his qilish va idrok etishdir, rivojlanayotgan nutq sensor tasavvurlar bazasiga tayanadi.

Bu yoshdagи bolalar, avvalo, ularni o‘rab turgan predmetlar bilan tanishtiriladi. Shuning uchun nutq o‘stirish mashg‘ulotlarining mazmuni bola yashayotgan muhitga, guruhning, muassasaning jihozlanishiga, yashayotgan joyi (qishloq, shahar)ning xususiyati va tabiatiga chambarchas bog‘langan bo‘lishi shart.

Bu yoshdagи bolalarni predmetlar bilan tanishtirish davom ettiriladi. Predmetlarni ko‘rish jarayonida uning qismlariga aniqlik kiritiladi. Masalan, palto ko‘rilayotgan bo‘lsa, tarbiyachi uning yoqasi, yengi, cho‘ntaklari qanday vazifani bajarishini bolalardan so‘raydi. Bolalarga har faslda kiyiladigan kiyimlar oldingi guruhga nisbatan aniqroq tarzda ko‘rsatiladi, ularni tartib bilan kiyish va yechish malakalari mustahkamlanadi.

Mashg‘ulotlarda o‘xshash predmetlarni bir-biridan ajratish, farqlash to‘g‘risida ham topshiriqlar beriladi (stakan, piyola, taburetka, stul).

Bolalar idish-tovoqlar, kiyimlar va mebellarning nomini atashga va ularni ajratishga o‘rgatib bo‘lingandan so‘ng tanish bo‘lgan predmetlarni guruhlash va vazifasini tushunish o‘rgatib boriladi (kiyimlar kiyish uchun).

Ular mashg'ulotlarda va mashg'ulotlardan tashqari turli kasb egalari: shifokor, oshpaz, haydovchi, farrosh, ularning mehnat asboblari va mehnatlarining natijalari bilan tanishtirib boriladi. Bolalar kasb haqidagi tasavvurga ega bo'lganlaridan so'ng olgan bilimlari „Top va nomini ata“ (mehnat qurollari va mehnat harakatlari) ta'limiy o'yini orqali aniqlanadi.

Bolalar uy hayvonlari, baliqlar va qushlarning nomini atashga, ularni ajrata bilishga, xulq-atvorlarini kuzatishga o'rgatiladi. Baliqlarni guruhdag'i akvariumdan, qushlarni esa hovlida kuzatadilar. Mashg'ulotlarda jonzotlar maqsadga yo'naltirilgan holda kuzatiladi, bolalar jonzotlarga nisbatan mehrli bo'lishga, shovqin solmaslik, jonivorlarni qo'lga olmaslik, qo'rqtmaslik kabi qoidalarga rioxalarga qilishga o'rgatib boriladi.

Mashg'ulotlarni shunday tashkil etish lozimki, bunda bolalar baliqlar, qushlar, quyonlar, mushuklar va jo'jalarni kuzatayotganlarida quvonch va zavqlanish hissini tuysinlar.

Tarbiyachi bolalarga jonzotlarni turli tomondan kuzatishlarini tashkil etib berishi lozim.

Har bir bolaning mushukni va quyonni silashiga, ovqat berishiga sharoit yaratish lozim. Bolalar hayvonlarning harakatlarini eslab qoladilar va mashg'ulotdan so'ng ularga taqlid qiladilar: qushlarga o'xshab qo'llarini qoqadilar, „cho'qiydilar“ va sakraydilar.

Bunday kuzatishlar bolalar so'z boyligini orttiradi.

Bu yoshdagi bolalar rasmlardan tipratikon, olmaxon, quyon, bo'ri, ayiq, tulki va fil singari hayvonlarni adashmasdan topadilar, it, mushuk, ot, sigir, echki singari uy hayvonlarini, shuningdek, tovuq, xo'roz, g'oz va o'rdak kabi uy parrandalarning tashqi ko'rinishlarini yaxshi ajrata olmaydilar (sigir va echki, buzoqcha va toychoq, g'oz va o'rdak, xo'roz va tovuqni).

Shuning uchun mashg'ulotlarda quyidagi vazifalarga alohida ahamiyat beriladi:

— hayvonlar va parrandalarni eslab qolish va ajrata bilish („Nima keldi?“, „Nima yo'q?“) ga;

— hayvonlarni bolalaridan ajrata bilishga (sigirni buzoqchadan, echkini uloqchadan, otni toychoqdan);

— belgilariqa qarab hayvonlarni guruhash („Nimaning bolasi?“, „Nimaning onasi?“)ga;

— tashqi ko‘rinishi o‘xshash bo‘lgan hayvon va parrandalarni bir-biridan ajratishga (g‘oz bilan o‘rdakni, sigir bilan otni);

— hayvonlarning ovqatlanishiga, tovush chiqarishiga qarab, (Nima yeidi? Nima cho‘qiydi? Nima yalaydi? Nima qanday ovoz chiqaradi?) ajratishga.

Bunday mashg‘ulotlarda o‘yinchoqlar va loto kartochkalardan foydalaniлади.

Bu yoshdagi bolalar bilan sabzavotlar nomini atash, ularni ajratishga o‘rgatadigan maxsus mashg‘ulotlar o‘tiladi. Mashg‘ulotlardan oldin bolalar bilan polizga (yoki bog‘cha tomorqasiga) sayohat uyuşhtiriladi, u yerda bolalarga sabzavotlarning qanday o‘sishi ko‘rsatilib, tushuntirib beriladi (sabzi yer tagida o‘sadi, uning faqat ko‘m-ko‘k barglari ko‘rinib turadi).

So‘ngra bolalar sabzavotlarni mashg‘ulotda ko‘radilar va ularning belgilari bilan tanishadilar, bodring yashil, uzunchoq, ushti g‘adir-budur, pomidor qizil, dumaloq, po‘sti yupqa, yumshoq. Tarbiyachi sabzi, kartoshka, sholg‘omni artib, tozalab ko‘rsatadi. Bolalarga birgalikda tayyorlashgan salat va tozalangan sabzilarni tatif ko‘rishni taklif etadi. Bunday mashg‘ulotlar bolani o‘rab turgan tevarak-atrofga nisbatan qiziqishini oshiradi va bilim olishiga yordam beradi.

Bolalarning sabzavotlar haqidagi bilimlari „Bil va nomini ata“, „Top va nomini ata“ kabi ta’limiy o‘yinlar orqali mustahkamlanib boriladi.

Shuningdek, bolalar mashg‘ulotlarda fikus, o‘t (xitoy) va asparagus o‘simliklari bilan ham tanishtirib boriladi, bunda o‘simliklar bir-biri bilan taqqoslanib, xususiyatlari tushuntirib beriladi.

Tarbiyachi bolalarga birinchi tuvakdagi past bo‘yli, ikkin-chisidagi baland bo‘yli o‘simlikni ko‘rsatib, tuvaklarga suv quyadi, shu yo‘l bilan ularda o‘simliklarga nisbatan qiziqish va mehr uyg‘otadi. Bolalar, guruhda shisha bonkachaga solib qo‘ylgan daraxt shoxining kurtak otishini, shuningdek, daraxt shoxlarida ham kurtaklar paydo bo‘lishini va barg chiqarishini kuzatadilar. Ular kuzda shoxlar barglarini to‘ksa, bahorda yana barglar chiqarishiga iqror bo‘ladilar, shoxlarni sindirmaslik kerakligini tushunadilar. Bolalar gullarni kuzatib, zavq oladilar, bir-biridan ajratishga, nomlarini atashga o‘rganadilar.

Ular bilan ranglarni, o'lchamlarni atash, ajratish (katta-kichik, uzun-qisqa, yumshoq va qattiq), haroratni bilish va ajratish yuzasidan maxsus o'yin mashg'ulotlari olib borilishi lozim.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bu yoshdagi bolalar predmetlarning katta-kichikligini, oq, qora va asosiy ranglarni (qizil, ko'k, sariq, yashil) bir-biridan ajrata oladilar, lekin hayotiy vaziyatlarda ifodalab berishda qiynaladilar. Ular bir vaqtning o'zida predmetning ham rangiga, ham katta-kichikligiga ahamiyat berishlari lozim bo'ladi, shuning uchun mashg'ulotlar va kun davomida bolalarga bir vaqtning o'zida ham rangini, ham katta-kichikligini ajratishga undaydigan topshiriqlar berilib, o'rgatib boriladi. Masalan; kichkina qizil ko'yakli qo'g'irchoqni katta mashinaga o'tqaz, ko'k ko'yakli qo'g'irchoqni qizil katta kubikka o'tqaz, kabi.

Mashg'ulotlar jarayonida bolalar fikrlashga, fikrini bayon qilishga o'rgatiladi. Bunda bolalar predmetlarning rangi, katta-kichikligidan tashqari, ular qanday materialdan tayyorlanganligi, ishlatalishi haqida ham fikr yuritadilar, shuningdek, hayvonlar va o'simliklarni kuzatayotganlarida ularni bir-biri bilan taqqoslaydilar, mazmunli rasmlarni tomosha qiladilar.

Bunday mashg'ulotlarda bolalar nutqi va tafakkurini faollashtirish maqsadida savol-javob usulidan foydalanish yaxshi natija beradi. Bolalar ko'rish va kuzatish jarayonida harakatlarni alohida, to'g'ri ataydilar, lekin ularni bir-biri bilan bog'lash va ketma-ketligini aytib berishda qiynaladilar. Bola rasmga qarab, suv quyigichdan suv quyayapti dedi, shunda tarbiyachi: „Suv quyigicha suv qayerdan paydo bo'ldi?“ — deb so'raydi va o'zi tushuntirib beradi: „Avval bola suv quyigichni suvga to'ldirib oldi, so'ng gullarga suv quya boshladi“. Tarbiyachi boladan savolga to'liq javob berishini iltimos qiladi. Bu bolalar bilan o'tiladigan mashg'ulotlarning faqat bir qismigina o'yin asosida o'tiladi (4—6 daqqa), qolgan qismlari aqliy va nutqiy zo'riqish hisobga olinib rejalashtiriladi.

Bu yoshdagi bolalarda tevarak-atrofga nisbatan qiziqish juda erta paydo bo'ladi, tarbiyachi shuni hisobga olgan holda mashg'ulotda yaqin kunlarda nishonlanadigan bayram va unga tayyorgarchilik haqida gapirib, she'rlar aytib beradi, sayr vaqtida ham eslatadi. Bayramoldi kuni bolalar guruhni bezatishda faol qatnashadilar.

Rasm va illustratsiyalar ham ko'rib chiqiladi. Rasmlar bola nutqini o'stirishda qimmatli material hisoblanadi. Bu yoshdag'i bolalar bilan o'tiladigan mashg'ulotlarda predmetli va mazmunli rasmlar namoyish etiladi. Bolalarga predmetli rasmlarni ko'rsatish orqali ularning so'z boylig'i oshiriladi. Tasvirlangan predmet qismlaridan ko'rsatish va atay bilishga o'rgatish maqsadida foydalaniлади (qushning boshi, ko'zi, dumi, tumshug'i, qanoti kabilar).

Tarbiyachi mazmunli rasm ko'rsatish orqali ularning rasm mazmuni tushunib eshitish malakasini oshiradi, tasvirlangan voqeа to'g'risida so'zlab berishga, 2—3 gapdan iborat hikoya tuzishga o'rgatadi.

Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish uchun guruhda predmetli va mazmunli rasmlar bo'lishi kerak. Bundan tashqari, bolalarning mustaqil ko'rishlari uchun mashg'ulotlarda turli mavzulardagi rasmlar to'plami ham mavjud bo'lishi lozim. Guruhda hayvonlar va ularning bolalari, meva-sabzavotlar, har xil fasllarda o'ynaladigan ko'ngilochar o'yinlar tasvirlangan qiziqarli rasmlar bo'lishi kerak.

Bolalar bilan har oyda „Qo'g'irchoq bilan o'ynash“, „Bolalar tovuq va jo'jalarga ovqat berayaptilar“, „Yozda sayr“, „Koptokni qutqaramiz“, „Sharlni dumalatamiz“, „Bolalar baliqlarni ovqatlantrishyapti“, „Bog'chada Mustaqillik bayrami“ kabi mavzudagi rasmlar ko'rildi.

Mayzuli rasm bilan ishslash metodikasi quyidagicha: tarbiyachi bolalarni rasm bilan tanishtirib, rasmni yaxshilab ko'rishni tavsiya etadi so'ng mazmunini gapirib beradi. Tarbiyachining hikoyasi bolalarning rasm mazmunini puxta tushunishlariga, nutqlarini faollashtirishga, qahramonlar faoliyatini izohlashlariga yordam beradi.

Rasmlarni ko'rish, ular haqida hikoyalar tuzish mashg'uloti 2 marta takrorlab o'tiladi. Ko'rilgan rasmni mashg'ulotdan tashqari ko'rish ham foydalidir.

Bolalar so'z boyligini oshirish uslublari.

Bolalar so'z boyligini oshirish bolalarga kattalar nutqidagi o'zları uchun yangi bo'lgan so'zlarni bilish va eslab qolishga yordam beradi. Bu uslublar quyidagilardir.

Nomini atab ko'rsatish.

Bir joy kuzatilayotganda o'rgatilayotgan so'zlarning mazmuni predmetlar orqali ko'rsatiladi.

Masalan: oshxonaga sayr qilinganda, tarbiyachi: „Bolalar, qaranglar, qanday katta kastrulka, uni 4 ta bola qo'l ushslashib o'rabs tursa bo'ladi, kastrulkaning ikkita qo'li bor, qani, uni menga ko'rsatinglar-chi, ular nima uchun kerak?“ Bolalar ko'rsatib beradilar: „To'g'ri, ular kastrulkani ko'tarish uchun“.

Yangi so'z yoki jumlani bir necha marta takrorlash.

„Bu pomidor, bu nima?“ Bolalar yakka va birgalikda „pomidor“ deb javob beradilar. „Mening o'ng qo'limda nima bor?“ Bolalarning javobi: „Pomidor“. „Chap qo'limda nima bor?“ Bolalarning javobi: „Pomidor“.

Predmetning ishlatalishini tushuntirish.

Bu usul bolaning so'zga nisbatan qiziqishini o'stirib, tushunishiga yordam beradi.

„Bu ilgak, bunga sochiqlar ilinadi. Choygumda choy qaynatiladi“ va hokazo.

Bolalar so'z boyligini orttirishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin.

Savollar berish.

Bolalarga predmetlar haqida oddiy savollar beriladi; nima? qanday? shuningdek, murakkabroq bo'lgan savollar ham beriladi; Qanday kiyim kiygan? Nimani olib ketayapti? Kimga nima tikayapti? Nima bilan tozalayapti? Bolalarga harakatlar yuzasidan faqat nima qilayapti? degan savol bilan birga rasmdagi bola yoki qizcha nima qilmoqchi kabi savol ham berib boriladi.

Ta'limiy mashqlar.

Tarbiyachi bolalarga: „Nima miyovlaydi? Nima qurillaydi? Nima chiyillaydi? Qaychi, qalam, mo'yqalam bilan nima qilinadi? Nimalar o'zgardi?“ kabi savollar bilan murojaat qiladi.

Jumlani davom ettirish.

Misol: „Mushukchaning ovqat yegisi kelib qoldi, u bola oldiga bordi, bola unga nima berdi? („bola sut berdi“) sut berdi, sutni nimada berdi?“ („taqsimchada berdi“). Tarbiyachi ko'rsatish va tushuntirishni bolalar o'yiniga bog'lab olib boradi. Mashg'ulotning birinchi qismida o'yinchoqdan foydalanib sahma ko'rinishini ko'rsatadi, ikkinchi qismida bolalarga o'yinchoqlar berib, ular bilan o'ynashni tashkil etadi. Bola o'ynab turib, kattalardan eshitganlarini takrorlaydi.

Topshiriqlar.

Topshiriqlar bolalarni to‘liq javob berishga undaydi. Bunday usullardan sahna ko‘rinishlarida foydalaniladi.

Masalan, tarbiyachi: „Olmaxon qizni ko‘rib, qo‘rqib ketdi va bekinib oldi, uni chaqiringlar“, — deydi. Bolalar chaqiradilar: „Olmaxon, qo‘rqma, bu yoqqa kel“.

NUTQ TOVUSH MADANIYATINI TARBIYALASH

Bolani ona tilida to‘g‘ri so‘zlashga o‘rgatishda, nutqini rivojlan-tirishda tovush madaniyatini tarbiyalash muhim o‘rin egallaydi. Maktabgacha ta’lim muassasalarining bolalar nutq tovush madaniyatini tarbiyalashdan maqsadi, bolaning besh yoshida hamma tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, shoshilmasdan ifodali so‘zlashga o‘rgatishdan iboratdir.

Bu yoshdagи bolalar bilan har oyda bir yoki ikki marta nutq tovush madaniyati tarbiyasi yuzasidan maxsus mashg‘ulot olib boriladi. Bu mashg‘ulotlar tevarak-atrof bilan tanishtirish va badiiy adabiyotdan foydalanilgan holda o‘tkaziladi, ularning davomiyligi 3—6 daqiqani tashkil etadi. Endi nutq tovush madaniyatini tarbiyalashning vazifalari bilan tanishib chiqamiz.

Eshitish qobiliyatini tarbiyalash.

Bolalarni tovushni, so‘zlarni aniq, to‘g‘ri talaffuz etishga, nutq a’zolaridan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatishdan avval ularni kattalar nutqini tinglashga o‘rgatish, eshitish qobiliyatini tarbiyalab borish lozim.

Eshitish qobiliyatini tarbiyalashda bir xil tovushlarni ham baland, ham past ovozda talaffuz etish mumkinligiga bolalar diqqatini jalb etish kerak.

Tarbiyachi mashg‘ulotlarda bolalar bilan har xil o‘yin mashqlarini o‘ynaydi: „Nimadir Lolaxonning orqasidan kelib, Lolaxon, men bilan o‘yna, deb chaqiryapti, vaq, vaq, vaq. Lolaxon, qara-chi, nima sen bilan o‘ynash uchun keldi?“ va hokazo.

Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishni shakllantirish.

Bunda *sh*, *ch*, *j*, *l*, *r* tovushlaridan tashqari barcha tovushlarning talaffuzi avval unli *o* so‘ngra undosh tovushlarni talaffuz qilish bilan o‘rgatiladi. Bolalar bu tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilsalar ham, ularni bir necha marta takrorlash orqali artikulatsion apparatlari rivojlan-

tirilib, qiyin tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishga o‘rgatib boriladi. Tovushlarni talaffuz qilishga o‘rgatishda timsol (obraz)lardan keng foydalilaniladi. U — tovushi (paravoz chinqiryapti), i — tovushi — (ot kishnayapti), taq-taq-taq (bolg‘a taqillayapti) va hokazo. Tarbiyachi nutq o‘sirish mashg‘ulotlari va kun davomida shu tariqa bolalarning so‘zlarni aniq va ravon talaffuz etishga o‘rgatib boradi.

Hikoya qilish va o‘qib berish.

Bunday mashg‘ulotlarni oyiga to‘rt yoki besh marta o‘tkazish rejalashtiriladi.

Ertaklar.

Bu yoshdagи bolalar bir yilda 5 ta ertak bilan tanishtiriladi. Ertaklar o‘qilmasdan so‘zlab berilsa, bolalar tomonidan oson va yengil qabul qilinadi. Bu tarbiyachidan mashg‘ulotga puxta tayyorlanishni talab etadi. Ertak bir mashg‘ulotda ikki marta so‘zlab beriladi, bolalar zerikib qolmasliklari uchun tarbiyachi ular bilan ertak mazmuniga mos harakatlarni bajaradi. (*Sholg‘om ekadi, sholg‘omni katta bo‘lib o‘sayotganini, uni tortib chiqarishni harakatlar bilan ko‘rsatadi*).

Ertakni so‘zlash jarayonida har xil ko‘rgazmalardan foydalanadi. Tarbiyachi ertakni his-hayajon bilan, ifodali aytib berishi lozim.

Ovutmachoqlar.

Bu yoshdagи bolalarni ovutmachoqlar bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Bolalarga „Suvjon“, „Alla“, „Mushukcham“, „Qo‘g‘irchog‘im Lolaxon“, „Kulchanon“, „Oyijonim“ kabi ovutmachoqlar aytib beriladi.

Buning uchun tayyorlanish lozim. Misol keltiramiz.

Tarbiyachi flanelegrafdan foydalanib, uxlayotgan bolalar, uxlayotgan hayvonlar rasmlarini ko‘rsatadi va „Alla“ ovutmachog‘ini aytib beradi. Tarbiyachi ovutmachoqqa bolalar nomini ham qo‘sib aytishi mumkin, bu ularning ovutmachoqqa nisbatan qiziqishlarini oshiradi.

Bir mashg‘ulotda ikkita ovutmachoq aytib berish mashg‘ulotning ta’sirchan va mazmunli bo‘lishiga yordam beradi. Bolalarning badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish uchun she’rlar o‘qib berish tavsiya etiladi.

TASVIRIY FAOLIYAT

Tasviriy faoliyatdan ta'lim berishning asosiy vazifalari.

Qalam, mo'yqalam, flamaster va loy bilan ishlashga qiziqish uyg'otish. Qalam, mo'yqalam va flamasterda rasm chizish, loydan narsalar yasash mumkinligi haqida tasavvur hosil qilish.

Rasm.

Qalamning ochilgan uchi, flamaster yoki mo'yqalam popugi qog'oz ustida yurgizilganda iz qoldirishi to'g'risida bolalarga tushuncha berish. Bolalar diqqatini o'zлari chizgan chiziqlarga jalb etish. Ularni nimalarni chizganlari, chizgan narsalari nimalarga o'xshashi haqida fikr yuritishga, qog'oz ustida qalamning harakatini kuzatishga o'rgatish. Bolalarda o'zлari chizgan chiziqlar va shtrixlardan quvonish hissini uyg'otish.

Tevarak-atrofni estetik idrok qilishni shakllantirish (shakli, rangi, kattaligi). Qalamlar, flamasterlar, bo'yoqlar (qizil, ko'k, yashil, sariq, oq, qora) bilan tanishtirish. Ularni atashga o'rgatish. Bolalarning boshqa ranglar haqidagi savollariga javob berish.

Bolalarni to'g'ri chiziqlar (uzun, kalta, tik, yotiқ, qiya) chizishga, predmetlarning tuzilishiga mos holda (lentalar, ro'molchalar, yo'laklar, irmoqchalar, muzlar, devorchalar) chiziqlarning kesishishiga o'rgatish.

Bolalarni dumaloq shakldagi predmetlarni chizishga yo'llash.

Rasm chizish jarayonida qaddini to'g'ri tutib o'tirishga o'rgatish.

Ya'ni:

- erkin o'tirish, qog'oz ustiga bukchaymaslikka;
- materiallardan ehtiyojkorlik bilan to'g'ri foydalanishga;
- qalam va mo'yqalamni erkin ushlashga;
- qalamning uchidan yuqorirog'ini uchta barmog'i bilan ushlashga;
- mo'yqalamni uchidagi temirdan ushlashga;
- qalam, mo'yqalamni qattiq bosmaslikka;
- mo'yqalam popugi bilan bo'yoqni keragicha, ehtiyojkorlik bilan olishga, bonkaga faqat popugini tiqib, yuvishga o'rgatish.

Loy ishi.

Bolalarning loy ishiga qiziqishlarini uyg'otish. Loyning xususiyatlari bilan tanishtirish. (Loyning yumshoqligi, uni ezish, kaftlar orasida dumalatish, kichik bo'lakchalarga ajratib, turli narsalar yasash mumkinligini tushuntirib berish).

Bolalarni loyning katta bo'lagidan kichik bo'lakcha ajratib olishga, ularni to'g'ri harakat bilan kaftlar orasida dumalatishga, hosil bo'lган

„tayoqcha“ uchlarini bir-biriga yopishtirishga („uzuk“, „teshikkulcha“, „g’ildirak“), loy bo‘lakchasini kaftlar orasida aylanma harakat bilan dumalatishga o‘rgatish („sharcha“, „olma“ va boshqalar).

Bolalarni bo‘lakchani kaftlari orasida yapaloqlashga (yopgan non, pechenye, shirin kulcha), yapaloqlangan bo‘lakcha o‘rtasini chuqurlashga o‘rgatish (likopcha).

Ikkita shakldan bitta shakl yasashga o‘rgatish (tayoqcha va shardan shaqildoq yoki qo‘ziqorin).

Bolalarni materialdan ehtiyyotkorlik bilan to‘g’ri foydalanishga, loyni va yasalgan narsani kleyonka yoki taxtachaga qo‘yishga o‘rgatish.

Bolalar yil oxirida tasviriy faoliyat bo‘yicha quyidagilarni bilishlari kerak:

- qalam, flamaster va mo‘yqalam bilan rasm chizishni;
- ranglarni (qizil, ko‘k, yashil, sariq, oq, qora).

Quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- qalam, mo‘yqalam, flamasterni to‘g’ri ushlashni;
- rasm chizayotganda ulardan to‘g’ri foydalanishni; qog‘ozni bir qo‘li bilan ushlashni, o‘zi yoki o‘rtog‘i chizgan rasmdan quvonishni, rasmda nimalar chizilganini aytib berishni.

Loy ishi bo‘yicha esa quyidagilarni bilishlari kerak:

- loy bo‘lakchasini kaftlari orasida to‘g’ri va aylanma harakat bilan dumalatishni;
- loyning katta bo‘lagidan kichik bo‘lakchalar ajratishni;
- kaftlari bilan bo‘lakchani yapaloqlashni;
- yasalgan tayoqchalar uchlarini bir-biriga yopishtirishni;
- loydan kiyimlarini iflos qilmay, tartibli foydalanishni.

Hurmatli hamkasaba! Bolalar bilan tasviriy faoliyat bo‘yicha ish olib borishingiz uchun bu mashg‘ulotlarni o‘tkazish metodikasini yaxshi bilishingiz lozim. Quyida 2—3 yoshli bolalar bilan tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi bilan tanishtiramiz.

Bu yoshdagi bolalarda rasm chizishga qiziqish erta uyg‘onadi. Ular uyda kattalarning yozishlarini kuzatib, qo‘lga qalam olib yozish va chizishga harakat qiladilar. Albatta bolalar hech nima chiza olmaydilar, oilalarda esa bolani rasm chizishga har doim ham o‘rgatmaydilar.

Bola maktabgacha ta’lim muassasasiga qatnay boshlaganidan keyingina tasviriy faoliyat bilan shug‘ullana boshlaydi. Maktabgacha

ta'lim muassasasida bola 2 yoshidan boshlab rasm chizish va loy^y bilan ishslashga o'rgatib boriladi.

Dastlab bolalarda qalam, mo'yqalam va qog'oz bilan ishslashga qiziqish uyg'otiladi. Ularning diqqati avvalo qog'ozda o'zidan iz qoldiradigan qalamga qaratiladi. Bolalar o'zлari chizgan turli shtrix va chiziqlarga ahamiyat berishga, qalam va mo'yqalamning qog'oz sirtida qanday harakat qilayotganini kuzatishga, chizgan chiziqlari qanday predmetlarga o'xshashligini topishga o'rgatib boriladi.

So'ngra ularda o'zлari tushungan holda shtrix va chiziqlarni takroran chizishga ishtiyoyq uyg'otiladi. Bu hol bolaning rasmlar chizishga kirishishida asosiy bosqich hisoblanadi.

Kelgusida bolalar o'z rasmlarida „yomg'ir yog'ayapti“, „qor yog'a-yapti“, „barglar uchayapti“, „irmoqlar oqayapti“ kabi murakkab bo'lman predmet va hodisalarni tasvirlay oladilar. Bu yoshdagi bolalar qalam va mo'yqalamni barmoqlari bilan to'g'ri ushslashga o'rgatiladi.

Ular bilan haftada bir martadan rasm va loy ishidan mashg'ulotlar olib boriladi. Rasm va loy ishi mashg'ulotlarining soni bir xil bo'lishi lozim.

Tarbiyachi mashg'ulotlarni yil boshida bolalarni guruhchalarga bo'lgan holda o'tkazadi. Har bir bolaning erkin o'tirishi, qalamni to'g'ri ushlashi, qog'ozni bir qo'lida ushlab chizishi uchuн sharoit yaratadi.

Tarbiyachi dastlab guruhdagi bolalarning yarmiga material tayyorlaydi, u o'yin yoki biron-bir narsa bilan mashg'ul bo'lman bolalarni mashg'ulotda shug'ullanishga jalb qiladi, boshqa bolalar ham asta-sekin qo'shiladilar, tarbiyachi yordamchisi o'ynayotgan bolalar bilan o'yinni davom ettiradi. Bolalar mashg'ulotlarga majburlab jalb etilsa, ularda rasm chizishga bo'lgan qiziqish so'nadi. Shuning uchun asta-sekin, xulq-atvor va kayfiyatlariga qarab mashg'ulotlarda shug'ullanishga o'rgatib boriladi.

Bolalar taxminan 10 daqiqa davomida rasm chizadilar yoki loydan narsalar yasaydilar. Tarbiyachi boshqa rasm chizish yoki loydan narsa yasashni xohlamaydigan bolaga birinchi bo'lib stoldan turib o'ynashga ruxsat beradi. Bu guruhchada mashg'ulotni tugatishning aniq vaqtি belgilanmaydi. 1- guruhcha bolalari shug'ullanib bo'lganlardan so'ng, tarbiyachi yordamchisi ularni sayrga olib chiqish uchun kiyintira boshlaydi, tarbiyachi 2- guruhcha bolalari bilan shug'ullanishni boshlaydi, mashg'ulot tugagandan so'ng 1- guruhcha bolalarini sayrga olib ketadi, tarbiyachi yordamchisi esa 2- guruhcha bolalarini sayrga tayyorlaydi.

Bolalar mashg'ulotlar ma'lum bir vaqtida bo'llishiga o'rganib boradilar va o'z xohishlari bilan stol tevaragiga o'tiradilar. Mashg'ulotlarni bolalarni guruhchalarga bo'lib o'tish, tarbiyachining har bir bolaga alohida ahamiyat va yordam berishiga, ularning to'g'ri o'tirishiga, materiallardan unumli foydalanishlariga imkoniyat yaratadi. Barcha bola bilan bir vaqtida shug'ullanilsa, tarbiyachi har bir bolaga yetarlicha ahamiyat bera olmaydi, natijada ular mustaqil rasm chizish va loydan narsa yasashda qiynaladilar.

Yilning ikkinchi yarmida guruhchalarga bo'linmagan holda hamma bola bilan bir vaqting o'zida shug'ullanish mumkin, chunki ular rasm chizish va loydan narsa yasash qoidalarni o'rganib olgan bo'ladilar. Bu davrda mashg'ulotlarning davomiyligi har xil bo'lishi mumkin, ba'zi bolalar tez shug'ullanib, qo'llarini yuvib sayrga tayyorlanadilar. Bolalarga bir xil talab qo'yilmaydi, eng asosiysi, ularda tasviriy san'atga qiziqish uyg'otiladi, o'z kuchini sinab ko'rishga imkoniyat yaratiladi, mashg'ulot davomida aniq qoidalarga rioya qilishga, materialdan to'g'ri foydalanishga o'rgatib boriladi.

Tarbiyachi ilk mashg'ulotdan boshlab bolalarni to'g'ri o'tirish, stolga juda ham egilmaslik, o'ng qo'li bilan rasm solish, chap qo'li bilan qog'ozni ushlashga o'rgatib boradi. Faqat so'z bilan tushuntirish kifoya qilmaydi, bolaga hammasini ko'rsatib berish lozim, chunki bu yoshdag'i bolalarning barmoq-panja mushaklari va paylari ancha nozik bo'ladi, ayniqsa, ular qalamni to'g'ri ushlashni o'rganishga qiynaladilar, shu sababli tarbiyachi ularga doimo yordam berishi lozim. Ba'zi bolalar bu qonun-qoidalarga tezda o'rganib oladilar, ba'zilari esa qiynaladilar. Tarbiyachi ota-onalarga murojaat qilib, ular bilan hamkorlikda ish olib borishni yo'lga qo'yishi kerak.

Bolalarning tasviriy faoliyati tashkil etilayotganda, ularning hissiy qo'zg'aluvchanligi hisobga olinib, topshiriqlar iltimos tarzda beriladi.

Masalan, tarbiyachi bolalarga to'q rangli qog'ozga sidirg'a rang bilan ishlangan uylar rasmi (silueti)ni ko'rsatib: „Bolalar, qaranglar, uylarning ichi qop-qorong'i, kelinglar, uylarni yoritish uchun chiroqlarni yoqamiz“, — deb mo'yqalamni bo'yoqqa botiradi va popugini qog'ozga tekkizadi, rasmida mayda yorqin dog'lar hosil bo'lganini ko'rsatadi.

Mashg'ulotlarni rasm chizish yoki loy bilan ishslashdan boshlash mumkin. Loy bilan ishslash ko'pgina bolalar uchun yangilikdir.

Qalam bilan chizishda bola bir qator texnik malakalarni egallashi lozim, ya'ni:

- qalamni uch barmog'i bilan to'g'ri ushlashni;
- qalamni katta va o'rta barmoqlar bilan yonidan, ko'rsatkich barmoq bilan ust tomonidan ushlashni;
- qalamni to'g'ri harakat qildira bilishni;
- rasm chizayotganda gavdani to'g'ri tutib o'tirishni.

Rasm chizish murakkab jarayon, avvalo, qalamni to'g'ri ushlashga o'rgatib borish lozim, bola buni o'z vaqtida o'zlashtirib olmasa, o'rganishi qiyin bo'ladi. Tarbiyachi qalamni to'g'ri ushlashni bolaning qo'lida ko'rsatib borishi kerak.

Bolalar qalam bilan rasm chizishni o'rganib olganlaridan so'ng ularga bo'yoq bilan rasm chizish taklif etiladi.

Ular dastlab qalamni qog'ozda yaxshi yurgiza olmaydilar, shuning uchun ham birinchi rasmlari uzuq-yuluq, bilinar-bilinmas shtrix va chiziqlardan iborat bo'ladi. Lekin 3—4 mashg'ulotdan so'ng shtrix va chiziqlar aniq bo'la boshlaydi.

Bola chiziq va shtrixlarni chizayotganda dastlab harakatlarni ko'zi bilan nazorat qila olmay, faqat qalam harakatini kuzatadi. Chizish jarayonida qog'oz yuzasini to'g'ri chamalay olishga o'rganib boradi. U asta-sekin shtrixlarni takror chizishga harakat qiladi.

Takrorlash g'ayri ixtiyoriy bo'lib qolmasligi uchun harakatlar obrazlar bilan bog'lab olib boriladi.

Bolalarga mo'rkondan tutun chiqayapti, ip g'altakka o'rallyapti kabi mavzu-topshiriqlar beriladi. Bunday rasmlarni chizishda bola ham chizayotgan narsasi bilan tanish bo'lishi lozim. Bola chiziq va shtrixlarni chizganda qalamni to'xtatmasdan chizadi so'ng asta-sekin qalam harakatini to'xtatib, alohida chizishga harakat qiladi.

Dastlabki 3—4 mashg'ulotda e'tibor bolaning erkin harakat qilishi, to'g'ri o'tirishi, qog'oz sathidan chiqib ketmasligi, qalamni to'g'ri ushlashi, qog'oz yuzasiga chizishiga qaratiladi, hech qanday mavzu rejalahtirilmaydi. Bunday mashg'ulotlar bolada rasmga nisbatan qiziqish uyg'otadi.

Tarbiyachi bolaga kerakli usullardan foydalanib rasm chizishni o'rgatib boradi, unda ma'lum malaka va ko'nikmalarning paydo bo'lishiga yordam beradi.

Bolalar asta-sekin „uzun yo'llar“, „irmoqlar“, „yomg'ir“, „qor“ kabi obrazli rasmlar chiza boshlaydi.

Qalamda chizish bo'yicha 3—4 mashg'ulot olib borilgandan so'ng bo'yoqda chizish mashg'ulotlarini olib borish maqsadga muvofiqdir. Birinchi mashg'ulotda bolalarga bo'yoq va mo'yalaman ko'rsatiladi,

mo‘yqalam haqida tushuncha beriladi, mo‘yqalam yog‘ochdan yasalganligi, uning uchidagi popuklari yumshoq ekanligi tushuntiriladi so‘ngra mo‘yqalamni bo‘yoqqa ehtiyyotkorlik bilan botirish, ortiqcha bo‘yoqni bonkaning chetiga siqib olish (tommasligi uchun), shundan so‘ng rasm chizish mumkinligi tarbiyachi tomonidan ko‘rsatilib, tushuntirib beriladi. Navbatdagi mashg‘ulotlarda ham bu takroran ko‘rsatiladi, ko‘nikmaga ega bo‘lgan bolalar rag‘batlantiriladi, qiynalayotgan bolalar bilan mashg‘ulotlar yakka holda olib boriladi.

Birinchi mashg‘ulotda bolalarning barchasiga bir xil rangdagi bo‘yoqlar beriladi, bunda ularning diqqati mo‘yqalam bilan ishslash va bo‘yoqdan foydalanishga qaratiladi. Bo‘yoqdan foydalanish malakasiga ega bo‘lganlaridan so‘ng yil oxirida stolga 2 xil rangdagi bo‘yoq qo‘yilishi mumkin.

Rasm chizishga dastlab qizil va qora so‘ng ko‘k hamda yashil rangdagi yumshoq qalamlar olinadi. Guash bo‘yog‘i quyuq qilib aralashtiriladi. Bu guruh bolalaridan predmetlarning aniq rangini tasvirlash talab etilmaydi.

Ilk mashg‘ulotlarda bolalarga faqat ikki xil, keyinchalik to‘rt xil rangdagi qalam beriladi. Tarbiyachi mo‘yqalamni bo‘yoqqa botirib, uning popugini qog‘ozga qo‘yib oladi, bargni qanday chizishni ko‘rsatadi. Shu tariqa alohida barg, daraxtdan uchib tushayotgan barglar chizib ko‘rsatiladi. Bunda bolalarning mo‘yqalam popugini bo‘yoqqa yaxshilab botirib olishlariga ahamiyat berish lozim, chunki dastlabki rasmlar unchalik toza bo‘imasligi mumkin, tarbiyachining qunt bilan ish olib borishi natijasida bir nechta mashg‘ulotdan so‘ng rasmlar mazmunli va toza chiqsa boshlaydi.

Bola qalam va mo‘yqalamni to‘g‘ri ushslash malaka hamda ko‘nikmasini shu yoshda egallab olsa, mакtabda ruchkadan qiynalmasdan foydalanadi.

Bu guruh bolalariga loy ishi mashg‘uloti uchun yaxshilab pishitilgan loy beriladi, plastilin berish mutlaqo man etiladi. Ba’zi bolalar loydan yaxshi foydalana boshlaydilar, uni ezadilar, barmoqlari bilan ishlov beradilar. Bolaning loy bilan ishslash jarayoni rasm chizishga nisbatan ancha oson kechadi. Bunda bolalar konfet, olma, tuxum shaklini oson yasaydilar, tarbiyachi aniq shakl yasashni talab qilmaydi, ular katta loy bo‘lagidan kichik, o‘ziga kerakli bo‘lakchani ajratib olishga, bo‘lakchaga kaft va barmoqlarida shakl berishga o‘rgatib boriladi. Loy yumshoq bo‘lishi lozim.

Bolalar bo'lakchalardan kerakli shaklni har doim ham eplab yasay olmaydilar. Shuning uchun tarbiyachi bola kaftlarini o'z qo'liga olib, bo'lakchani kaftlar orasida qanday ezish lozimligini ko'rsatib beradi. Bola kaftlarining harakati va kuchini sezadi, bu harakatni bir necha marta takrorlaydi.

Bolalarga aniq va oson topshiriqlar berish lozim, chunki ular kattalar chizgan tasvirni ko'rib: „Men bunday chiza olmayman“, — deb rasm chizishga xohish bildirmasliklari mumkin. Shuning uchun ularga qalam, mo'yqalam va loy bilan ishlashning oson usullari ko'rsatib beriladi.

2—3 YOSHLI BOLALAR BILAN „QURISH –YASASH“ MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH

Tarbiyachi qurilish materiallari bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarni o'yin orqali olib boradi. Bular: „Qo'g'irchoqlar uxlayapti“, „Qo'g'irchoqlar sayrda“, „Qo'g'irchoqlar ovqatlanayapti“, „Mashinalar ko'chadan garajlarga kirayapti“, „Qushlar uchib kelib, minora ustiga qo'ndi“, „Qushlar uchib kelib, darvoza ustiga qo'ndi“, „Kichik qo'g'irchoq kichik uychada, katta qo'g'irchoq katta uyda yashaydi“ va boshqalardir.

Mazmunli qurish va yasash mashg'ulotlari bolalar 4—5 boladan iborat guruhchalarga bo'linib o'tkaziladi. Tarbiyachi bolalarni stol atrofiga yig'ib uycha yasaydi va unga qo'g'irchoqni joylashtiradi. So'ngra bolalarga: „Qo'g'irchog'imiz Lolaxon sayr qilish uchun hovliga chiqmoqchi, voy, sayr qilishi uchun yo'lakcha qani? Kelinglar, Lolaxonni sayr qilishi uchun yo'lakcha quramiz, u qanday rangda bo'ladi, qizilmi, yashilmi yoki sariqmi? Sariq rangda bo'lsa, demak, yo'lakchamiz qumdan bo'ladi (*bolalar sariq rangda bo'lishiga rozi bo'ladilar*). Bolalar, hammangiz mana bunday sariq rangdagagi g'ishtchadan oling, ularni bir-biriga birlashtirib, ulab chiqamiz, mana, yo'lakchamiz ham tayyor bo'ldi. Qo'g'irchog'imiz Lolaxon yo'lakchadan yurib, maza qilib sayr qilib, charchab qoldi, endi dam olmoqchi. Qayerda dam olsa ekan? (*Bolalar stulchada, karavotda deb javob beradilar*). Tarbiyachi davom etadi: „Yaxshisi, biz skameykacha quramiz, Lolaxon skameykachada o'tirib dam oladi. Uning rangi yashil bo'ladi, (*ikkita g'ishtcha va ikki plastinadan skameykacha quradi, qismlarining nomini ataydi. Qo'g'irchoqni skameykachaga o'tqazadi*).)

Qaranglar, biz qurgan skameykacha Lolaxonga juda yoqdi, u maza qilib dam olib o'tiribdi. Lolaxon dam olgandan keyin uyiga ketmoqchi, u uyida ovqatlanib, dam olmoqchi“.

Keyingi mashg'ulotda bolalarga o'yinchoq yengil mashinachalar tarqatiladi, tarbiyachi „garaj“ quradi. Qurish jarayonida qismalarning nomini va uni „garaj“ning qayeriga qo'yayotganini tushuntirib, ko'rsatib beradi. So'ngra tarbiyachi bolalarga darvoza qurishni va bu darvozadan mashinachalarni olib o'tishni taklif qiladi. Bolalar tarbiyachi oldindan tayyorlab qo'ygan ustunchalar ustiga taxtachani qo'yadilar va navbat bilan mashinachalarini darvoza orqali yurgizib „garaj“ga qo'yadilar. Ular tarbiyachi bilan haydovchining dam olishi uchun skameyka quradilar, mashg'ulot so'ngida tarbiyachi kuchukchaning vovullashiga taqlid qilib, bolalarga o'yinchoq kuchukchani ko'rsatadi, kuchukcha haydovchining do'sti ekanini aytadi. Bolalar uni xursand bo'lib qarshi oladilar, silab erkalatadilar. Ovqatlantirish uchun likobcha olib keladilar. Tarbiyachi kuchukchaga incha quradi, kuchukchani shu inchada uxlatib qo'yishadi. Mashg'ulotlar boshqa mavzularda ham shu tarzda tashkil etiladi. Bunday o'yin-mashg'ulotlarda bolalar chin dildan shug'ullanadilar.

O'yin-mashg'ulotlarni gilam ustida tashkil etsa ham bo'ladi. Masalan, bolalar o'z qo'g'irchoqlari bilan sayr qiladilar, qo'g'irchoqlari sayrdan qaytganida ovqatlanishlari uchun avval tarbiyachi bilan birgalikda qo'g'irchoqlar uchun stol va stul (juda oson konstruksiyada) so'ngra qo'g'irchoqlarning dam olishi uchun karavot qurishadi, qo'g'irchoqlarni uylashga yotqizishadi va „alla“ aytishadi.

Bu kabi o'yin-mashg'ulotlarda bolalar guruhchalarga bo'linsa-da, ularning hammasi o'yinda baravar ishtirok etadilar. Qurishni guruhchalarga bo'linib o'rjanadilar.

Mashg'ulotdan so'ng tarbiyachi materiallarni joy-joyiga qo'yishni taklif etadi. Bunda bolalarning sensor tarbiyasi, atrof-muhitni to'g'ri chandalay, aniqlay olish malakasi shakllanadi. Mazmunli, voqeaband qurish-yasash mashg'ulotlarida yog'ochdan yasalgan qurilish materiali to'plamidan foydalanish tavsiya etiladi. Uning tarkibidagi kubiklar, prizmalar, plastinalar, g'ishtchalar har xil rangda bo'ladi.

Qurish-yasash mashg'ulotlarida voqeaband o'yinlardan foydalanilganda, o'yinchoqlar qurilish materiali hajmi, kattaligiga mos bo'lishi lozim (qo'g'irchoqlar, matryoshkalar, mayda mashinachalar va boshqalar). Bunday mashg'ulotlarda, shuningdek,

„Hayvonot bog‘i“, „Uy hayvonlari“ va boshqa mazmunli – rolli to‘plamlardan ham foydalanish mumkin.

2—3 YOSHLI BOLALAR BILAN JISMONIY TARBIYA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH METODIKASI

2—3 yoshli bolalar bilan jismoniy tarbiyaning ertalabki badan-tarbiya mashqlari harakatli o‘yinlar, sog‘lomlashtirish va chiniqtirish tadbirlari orqali olib boriladi.

2—3 yoshli bolalarning yil davomida bajarishi lozim bo‘lgan assosiy harakatlari quyidagilardir.

Yurish.

Guruh yoki guruhchalarga bo‘linib, juft, aylana bo‘lib, qo‘l ushlashib, maromning o‘zgarishiga qarab yurish, yurishdan yugurishga yoki yugurishdan yurishga o‘tish; yo‘nalish o‘zgarishi bilan yoyilib, predmetlardan o‘tib yurish, oldinga va yon tomonga qadam tashlash.

Muvozanatni saqlash mashqlari.

To‘g‘ri yo‘nalishda, to‘g‘ri yo‘lakchadan (eni — 20 sm, uzunligi 2—3 m) predmetlarda (bo‘yi 10—15 sm) yurish. Taxta bo‘ylab, gimnastika skameykasida, xoda ustida (eni 20—25 sm) yurish.

Sekin tezlikda (*qo‘lida predmet bilan*) aylanish.

Yugurish.

Guruh yoki guruhchalarga bo‘linib, to‘g‘ri va har xil yo‘nalishda (bir-biriga xalaqit bermasdan), bir-biridan keyin, bir qator bo‘lib sekin tezlikda, 30—40 soniya davomida (to‘xtamasdan) tezlikni o‘zgartirib yugurish.

2 arqon, 2 chiziq orasida yugurish. (Oralig‘i 25—30 sm).

Emaklab va tirmashib chiqish.

To‘g‘ri yo‘lda (masofasi 3—4 m), polda yotgan taxtada, bir uchi 20—30 sm balandlikka ko‘tarilgan qiya taxtada, gimnastika skameykasida emaklash.

Darvozachadan, arqon (balandligi 30—40 sm) tagidan o‘tish. Xoda ustidan o‘tish, 2 qanotli narvonchaga, gimnastika devoriga (balandligi 1,5 m) tirmashib chiqib-tushish.

Dumalatish, otish va irg‘itish.

Koptokni tarbiyachiga ikki qo‘llab, bir qo‘l bilan, o‘tirib (masofasi 50—100 sm) dumalatish. Koptokni oldinga ikki qo‘llab

pastdan, ko‘kragidan, ko‘kragi balandligida tortilgan arqondan (oralig‘i 1—1,5 m), bo‘yi balandligida tortilgan to‘rdan oshirib otish.

O‘ng va chap qo‘lda, ikki qo‘llab qum xaltalarni, koptoklarni uzoqligi 1 m masofada bo‘lgan gorizontal mo‘ljalga otish.

50—100 sm masofada tarbiyachi tomonidan otilgan koptokni ilib olish.

Sakrash.

Ikki oyoqlab bir joyda, sekin oldinga siljigan holda arqondan yoki chiziqdandan, ikki parallel chiziqdandan (10—30 sm) sakrash. Qo‘lni ko‘targan holda 10—15 sm yuqorida joylashgan predmetga tegib, yuqoriga sakrash.

Saflanish mashqlari.

Tarbiyachi yordamida bittadan, juft, aylana bo‘lib saflanish.

Umumrivojlantiruvchi mashqlar.

Qo‘l va yelka-o‘mrov mushaklari uchun: qo‘llarni oldinga, yuqoriga va yonga ko‘tarish, ko‘krak oldida chalishtirib yon tomonlarga uzatish, qo‘llarni orqaga uzatish, bukish va cho‘zish, oldinda, bosh ustida chapak chalish, qo‘llarni oldinga, orqaga, yuqoriga va pastga silkish.

Bel mushaklarini rivojlantiruvchi va mustahkamlovchi, umurtqa pog‘onasining egiluchanligini ta‘minlovchi mashqlar.

Qo‘lidagi predmetni yonida turgan yoki o‘tirgan bolaga o‘ng va chapga o‘girilib uzatish, oldinga va yon tomonlarga engashish, polda o‘tirgan holda oyoqlarni bukish va cho‘zish. Chalqancha yotgan holda oyoqlarni ko‘tarish va tushirish. Tizzada turish, tovonda o‘tirish va turish.

Qorin va oyoq mushaklarini rivojlantiruvchi va mustahkamlovchi mashqlar.

Turgan joyda yurish. Turgan holatda o‘ng va chap oyoqlarni navbat bilan (kattalar yordamida) tizzadan bukish hamda yozish. Qo‘l bilan tayanchni ushlagan holda o‘tirish, oyoq uchida ko‘tarilish, oyoqni oldinga qo‘yib, tovonda turish, oyoq barmoqlarini qimrlatish.

2—3 YOSHLI BOLALAR BILAN O‘YNALADIGAN HARAKATLI O‘YINLAR

Bolalarda sodda, mazmunli, uncha murakkab bo‘limgan harakatlardan tashkil topgan o‘yinlarni o‘ynash xohish-istiklarini uyg‘otish. Ilk yosh guruhchalari bilan birgalikda o‘ynashga o‘rgatib

borish. O'yin davomida uning mazmuniga mos harakatlarni bajarishga o'rgatish (quyonlarga o'xshab sakrash, jo'jalarga o'xshab don cho'qish va suv ichish, ayiqqa o'xshab yurish, samolyotga o'xshab uchish va boshqalar).

Yurish va yugurish harakatlari bilan o'ynaladigan o'yinlar.

„Qo'g'irchoqlarnikiga mehmonga borish“, „Koptokni tut“, „Yo'lakcha bo'ylab“, „Irmoqcha“, „Kim sekin?“, „Yog'och ustidan sakrab o't“, „Meni quvib yeting“, „Chumchuq va avtomobil“, „Quyosh va yomg'ir“, „Qushlar uchmoqda“, „Predmetni olib kel“ va boshqalar.

Emaklash harakatlari bilan o'ynaladigan o'yinlar.

„Shiqildoqqacha emaklab bor“, „Darvozachadan o't“, „Chiziqni bosma“, „Ehtiyot bo'l“, „Maymunchalar“, „Toshbaqa“ va boshqalar.

Koptokni otish va ilib olish harakatlari.

„Koptok aylanada“, „Koptokni dumalat“, „Koptokni ilib ol“, „Darvozachaga tekkiz“, „Mo'ljalga to'g'ri ol“ va boshqalar.

Sakrash harakatlari.

„Mening quvnoq koptogim“, „Oq quyoncha o'tiribdi“, „Qushchalar o'z inida“, „Ariqchadan hatlab o't“ va boshqalar.

Tevarak-atrofda to'g'ri mo'ljalga olish, aniqlash o'yinlari.

„Qayerda chalinayapti?“, „Bayroqchani top“ va boshqalar.

Turli harakatli o'yinlar.

„Poyezd“, „Quyoncha“, „Bayroqcha“ va boshqalar.

2—3 yoshli bolalar quyidagi harakatlarni bajara olishlari lozim:

— bir-biriga xalaqit bermasdan yurish va yugurishni;

— ikki oyoqlab sakrashni;

— oldinga siljib sakrashni;

— koptokni ilib olish, ushlab turish, bir joydan ikkinchi joyga olib qo'yish, joyiga qo'yish, dumalatish, irg'itishni;

— emaklash, tortilgan arqon tagidan emaklab o'tishni; yerda yotgan xodachadan o'tishni.

Bu yoshdagagi bolalar juda harakatchan bo'ladilar, biroq ularning harakatlari tartibsiz kechadi. Ular jismoniy tarbiyasining vazifasi harakatlar jarayoniga qiziqishni o'stirishdir. Harakatlarga qiziqishning o'sishi bolalarda harakatlarni kordinatsiyalash va jismonan rivojlanishlariga yordam beradi.

Bu yosh guruhida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining muvafqaqiyatli o'tishi sifatli tayyorgarlik ko'rishga bog'liq. Mashg'ulotlarni metodik jihatdan to'g'ri o'tkazishgina emas, balki o'tkaziladigan joy ham katta ahamiyatga ega.

Bolalar guruh xonasida o'tkaziladigan mashg'ulotlarga nisbatan zalda (haftasiga bir marta) o'tkaziladigan mashg'ulotlarda jismoniy va fiziologik jihatdan ko'proq zo'riqadilar.

Yil boshida mashg'ulotlar guruhning o'zida tashkil etiladi, chunki bolalar yangi joyga o'rganishlari uchun vaqt kerak bo'ladi, shu sababli ular musiqa mashg'ulotlarida zal bilan tanishtirib boriladi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish boshqa mashg'ulotlarga nisbatan ancha murakkab. Bunda bolalarni yechintirish, kerakli jihozlarni tayyorlash uchun fursat lozim bo'ladi, shu bois tarbiyachi mashg'ulot o'tkazishni oldindan rejalashtiradi. U mashg'ulot uchun kerakli jihozlarni ma'lum bir joyda saqlashi kerak.

Mashg'ulotlar bolalar guruhchalarga bo'lingan holda o'tkaziladi. Shuning uchun 1- guruhcha bolalari mashg'ulotga tayyorlanayotganlarida, 2- guruhcha bolalari o'yin bilan mashg'ul bo'lishlari lozim, ularning kiyinish xonasida kutib qolishlari yaramaydi.

Guruh bolalarning yoshiga qarab kichik va katta guruhchalar (10—12 ta boladan) tuziladi. Kichik guruhchada bolalar soni katta guruhchanikidan 2—3 taga kam bo'lishi kerak.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari quyidagi qismlardan iborat:



1. Kirish qismi (yurish va yurishning yugurishga aylanishi).
2. Asosiy qism — (umumrivojlantiruvchi mashqlar, harakatning asosiy turlari bo'yicha mashqlar, yurish va yugurishdan tashqari birikitta harakat) harakatli o'yinlar.

3. Yakunlovchi qism (yurish va tinch o'yin).

Mashg'ulotni rejalashtirish jarayonida mashg'ulotda bolalarga o'rgatiladigan harakatlar texnikasi ishlab chiqilmay takrorlanadi. O'tilgan mashg'ulotdagi mashqlar (2—3 tasi) bolalar yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun yana takroran rejalashtiriladi.

Bu guruh bolalari harakatlarini tashkil etish juda qiyin. Shu sababli mashg'ulotlarda mustaqil safga turish va qayta saflanishning sodda usullaridan foydalaniлади. Yil boshida bolalar yoyilib yoki to'p-to'p bo'lib yuradilar va yuguradilar. Yurish va yugurishni o'rganib olganlaridan so'ng, o'z xohishlari bilan saflanadilar; juft bo'lib yuradilar, qaysi guruhdoshi bilan birga yurishni xohlashsa, o'sha bilan yuradilar.


Bolalar tarbiyachi yordamida saflanadilar. Tarbiyachi umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajartirish jarayonida gilamchada mashq bajarishga kirishayotgan bolalarning bir-birlariga xalaqit






2- mashg'ulot. «Polizga sayohat».







3- mashg'ulot. «Sholg'om» ertagi.





Bolalardan rasmga qarab qaysi hayvon nima yeishini
ko'rsatib berish so'raladi.



9- mashg'ulot. «Nima keldi va nima ketdi?» ta'limiyl mashqi.




9- mashg'ulot. «Erta tongda» ovutmachog'i.



10- mashg'ulot. «Ikki echki» ertagi.







13- mashg'ulot. «Alla» evutmachog'i.





15- mashg'ulot. Tramvay va avtoulovlar.





15-, 16-, 17-, 18- mashg'ulotlar uchun.



19- mashg'ulot. Xona o'simliklari bilan tanishish.



22-, 23- mashg'ulotlar uchun.



24- mashg'ulot. «Lolaxon sayrga chiqdi».
Rasmga qarab hikoya tuzish.



28- mashg'ulot.
«K» va «Ch» tovushlarini talaffuz qilish mashqi.



35- mashg‘ulot. «Bo‘g‘irsoq» ertagi.

bermasdan saflanishlariga yordam beradi. Qatorda turgan bolalarning birinchisi oxirgisining qo'lidan ushlab aylana hosil qiladi.

Tarbiyachi aylana hosil qilish uchun o'rtaga stul qo'yadi va bolalarga stul atrofida saflanishni taklif etadi, bir-birlariga xalaqit bermasliklari uchun stul atrofiga kubik va shiqildoqlar qo'yib chiqadi, bolalarga shu o'yinchoqlar yonida qaytadan turishlarini aytadi.

Bolalarda mashg'ulotga nisbatan qiziqishni yanada kuchaytirishda yirik jihoz va o'yinchoqlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot yalpi va yakka holda olib boriladi. Bunda harakatlar boshqa (mushaklar zo'riqmaydigan) harakatlar bilan almashtirilib turiladi.

Gimnastika skameykasidan yurish yoki irg'itishdan so'ng yugurish elementi bor bo'lgan harakatlari o'yin olib boriladi.

Mashg'ulotda uchtadan oltitagacha umumrivojlantiruvchi mashqlar o'tkaziladi, ular 3—6 marta takrorlanadi.

Bolalar mashqlarni turli holatlarda boshlashadi: tik turgan holatda, o'tirgan holatda yoki yotgan holatda. Dastlab qo'l, yelka, bel mushaklari, oyoq va tanani chiniqtiruvchi mashqlar berilib, mashg'ulot sakrash yoki yugurish va tinch o'yin bilan tugatiladi. Bolalardan harakatlarni aniq bajarish talab etilmaydi, lekin ularning asosiy belgilari aniq ko'rsatiladi. Masalan, ro'molcha yuqoriga ko'tarilayotganda qo'l iloji boricha balandga ko'tariladi.

Mashg'ulotda turli-tuman predmetlardan foydalaniladi. Jihozlarni dastlab tarbiyachi bolalarga tarqatadi, asta-sekin bolalarning o'zları olib, o'ynashib, so'ngra joyiga qo'yishga o'rgatib boriladi. Yurish va muvozanatni saqlash uchun „Kim sekin o'tadi?“, „Yo'lcha bo'ylab yur“, irg'itish uchun „Mo'ljalni to'g'ri ol“, emaklash uchun „Shiqildoqqacha emaklab bor“, „Darvozachadan emaklab o't“ kabi o'yin mashg'ulotlaridan foydalanish mumkin.

Bu mashqlarni bajarishda, shuningdek, bolalarning mustaqil faoliyatlari va sayrlarida qoidalarga rioya qilinmaydi. Yil boshida dastlab 1—2 yoshli bolalar bilan bajarilgan mashqlar takrorlanadi.

Mashqlarda bolalarga tanish bo'lgan obrazlardan foydalanilgan holda voqeaband harakatlari o'yinlar rejalashtiriladi. Bular: o'yinchoq poyezd, mashina, samolyotlar, qushlardir. Bolalar o'yin qoidalarni bilib oladilar va ularga rioya qiladilar, signallarni tushunib harakatlanadilar. Tarbiyachi o'yin qoidalarni tushuntirayotganida harakatlarni bajarishda signallarga rioya qilishga ahamiyat berishni

alohida uqtiradi. Signallar so‘zlar bo‘lishi mumkin: „Quyosh!“, „Yomg‘ir!“, „Mushuk ko‘zlarini ochdi va jo‘jalarni quvladi“, chapak chalib signal berish, childirma chalish (*musiqa ostida, bayroqchani silkitib, lenta bilan*).

Tarbiyachi bolalarga o‘yining borishi va harakatlarini ko‘rsatib beradi. (Samolyotlar qanday uchadi? Qushlar o‘zlarini qanday tutadi? va hokazo).

SENSOR TARBIYA

O‘zini o‘rab turgan olamni bilihida bolaning sezgi a’zolari katta rol o‘ynaydi. Sezgining shakllanishiga sensor tarbiya yordam beradi. Sensor tarbiya bolaning tevarak-atrofni to‘liq idrok etishini shakllantiradi. Bolalarni ilk yoshdan boshlab rang, shakl, miqdor, predmetlarning xususiyatlari, musiqa tovushlari, nutq tovushlari bilan tanishtirib borish lozim. Sensor tarbiya musiqa, jismoniy tarbiya, tasviriy faoliyat, nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida amalga oshiriladi, lekin bu hollarda sensor tarbiyaning vazifasi yetakchi bo‘lmaydi. U yetakchi vazifani o‘tashi uchun maxsus mashg‘ulotlar rejalashtiriladi, bu mashg‘ulotlarda bolalarning olgan tajribalari tartibga solinadi.

Bola predmetning asosiy xususiyatlari sifatida rangi, shakli, miqdorini ajrata bilihga o‘rgatib boriladi, bu xususiyatlarga nisbatan diqqati shakllantiriladi. Masalan, tarbiyachi qo‘ziqorinlar rangini stol sirti rangi bilan taqqoslashni o‘rgatadi.

Tarbiyachi mashg‘ulotlar uchun ta’limiy materiallar tayyorlashda ranglar jilosiga ahamiyat berishi kerak. Shakl va miqdor bilan tanishtiradigan o‘yinchoq hamda jihozlar bolalarning qo’llariga olib ishlatshlari uchun qulay bo‘lishi lozim. Sensor tarbiya mashg‘ulotlarida bolalarda predmetlarni umumlashtirib kuzatish, ularning bir xil belgilarini aniqlash kabi malakalar shakllantiriladi. Bu yoshdagi bolalar bilan yil boshida bir xil predmetlarning bir sensor belgisi, miqdori, shakli, rangiga qarab guruhlashga o‘rgatadigan mashqlar olib boriladi. Bu mashqlarga ta’limiy material sifatida ikki miqdordagi, 5 ta shaklli, 8 rangli bir xil predmet olinadi. Bolalarga bilim berish jarayonida tarbiyachi „xuddi shunday“, „har xil“ „katta“, „kichik“, „shakl“, „rang“ kabi so‘zlar haqida ma’lumot beradi.

Bolalar bir xil predmetlarni bir sensor belgisiga qarab guruhlashga o‘rganib olganlaridan so‘ng, turli predmetlarni bir sensor xususiyatiga

qarab guruhashga, shuningdek, bilim, malakalarini o‘z faoliyatida qo‘llashga o‘rgatib boriladi.

Bola hayotida sensor tajribasining to‘planib borishi katta ahamiyatga ega. Bu tajribalar asosida mashg‘ulotlarda bolalarning bilmalari tartibga solinadi, kun davomida mashg‘ulotda olgan bilim va ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

MUSIQA TARBIYASI

2—3 yoshli bolalar musiqiy rivojlanishining tavsifi.

Qo‘sinq kuylovchiga qo‘silib xirgoyi qilish va qo‘sinq aytish.

Kuyning intonatsiyasi va ritmiga binoan hamma birgalikda kuylaydi. Qo‘sinq so‘zlarini esda saqlaydilar, lekin ularni ijro etyotganda xatoga yo‘l qo‘yadilar.

Tarbiyachi yordamida, yakka holda, guruh bo‘lib, musiqa ostida, musiqasiz kuylaydilar.

Tinglash.

Yangi qo‘sinqni musiqali — harakatsiz tinglaydilar.

Tanish qo‘sinqlarni eski va yangiga ajrata oladilar, ularni fortepiano jo‘rligidagi xarakteriga binoan ajratadilar.

Musiqa illustratsiyalari bilan olib boriladigan hikoyalarni qiziqib tinglaydilar. Musiqasini eslab qoladilar va qaysi qahramon haqida hikoya qilinayotganini biladilar.

Maqom musiqalarini 5 daqiqa davomida (tanaffus bilan) tinglaydilar.

Harakatlar.

Musiqiy o‘yinlar, mashqlar va raqlarda ko‘rsatmaga, so‘zlarga, musiqaga rioya qilgan holda harakatlanaadilar. Kattalar ko‘rsatmasiga binoan yangi harakatlarni, harakatlar almashinishini ikki va to‘rt bo‘lakli musiqaga binoan tez qabul qiladilar, esda saqlaydilar.

Mazmunli o‘yinlarda ishtirok etadilar. Bu o‘yinlarda ko‘rsatmaga binoan va mustaqil musiqa o‘zgarishi bilan bir ko‘rinishdan ikkinchi ko‘rinishga o‘tadilar.

Yangi, yakka holda bajariladigan harakatlarni o‘zlashtiradilar: yurish, joyida yugurish, tizzani baland ko‘tarib yurish, asta-sekin yurish, yashirinayotganda ehtiyyot bo‘lib qadam tashlash, oyoq uchida oldinga va orqaga tez-tez qadam tashlash, ikki oyoqda sakrash, oyoq uchida sakrash.

Predmetlar bilan harakat qilishning murakkab turlarini o'zlash-tiradilar: taxtachalar, stulchalar, ro'molchalar, barglar kabi yangi predmetlar bilan harakat qiladilar.

Bir vaqtning o'zida turli harakatlarni: chapakni oyoq tapillatish bilan, yarim o'tirgan holatda qo'l panjalarini aylantirish bilan, yarim o'tirgan holatda gavdani aylantirish bilan bajara oladilar.

To'p-to'p, juft bo'lib yurish, yugurish, juft bo'lib aylanish, aylana bo'ylab mustaqil yurish, kattalar yordamida umumiy aylanani kengaytirish va toraytirish, turli o'zin harakatlardan keyin aylanani tiklash kabilarni musiqaga moslab bajaradilar.

Musiqiy rivojlantirish vazifalari.

— musiqani tinglay bilishni rivojlantirish, unga nisbatan qiziqishni o'stirish;

— musiqiy tovushlarning qarama-qarshi xususiyatlarini ajrata olish: baland va past registorlar;

— qo'shiqni xirgoyi qilish va qo'shiq kuylashga qiziqishini uyg'otish;

— mazmunli o'yinlar, mashqlar va raqlarda musiqa bilan harakatni bir-biriga moslab bog'lay bilishni rivojlantirish;

— sodda harakatlarni hamkorlikda bajarishga o'rgatish.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy tarbiya yuzasidan maxsus mashg'ulotlar o'tkazish rejalashtiriladi. Musiqa mashg'ulotlari bolalarning musiqiy qobiliyatlari rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Mashg'ulotlar guruh bolalari bilan haftada ikki marta 15 daqiqadan o'tkaziladi. U kirish qismi — yurishdan boshlanadi. Bunda marshning umumiy xarakterini yetkazib berish shakllanadi. Yurishdan so'ng bolalar qo'shiq tinglaydilar, qo'shiqning mazmuniga mos harakatlarni bajaradilar. So'ngra metallofon va triolni ajratish yuzasidan har bir bola bilan alohida musiqali-ta'limiy mashqlar o'tkaziladi. Bunda bola orqasiga o'girilib turadi. Pedagog u yoki bu musiqa asbobida kichik kuy ijro etadi, bola musiqaning qaysi musiqa asbobida ijro etilganini aniqlaydi.

Mashg'ulotning keyingi qismida qo'shiq ijro etiladi. Pedagog bolalarni qo'shiq naqarotini faol qo'shilishib kuylashga o'rgatadi. Qo'shiq musiqali — harakatlar bajarilib kuyylanadi. Pedagog musiqali — harakatlarni ko'rsatib beradi. Musiqali — harakatlar qo'shiq mazmuniga mos tarzda tanlanadi. Mashg'ulot bolalarning erkin raqsga tushishlari bilan tugaydi. Tarbiyachi bolalarni musiqa o'yinchoq-asboblariga qiziqishini qo'llab-quvvatlashi, ulardan foydalananish

yo'llarini ko'rsatib berishi lozim. Guruhda turli musiqa o'yinchoqlari va asboblari to'plami bo'lishi kerak.

Birinchi kichik guruh bolalari bilan o'tkaziladigan bayram ertaliklari va o'yin-kulgi (ko'ngilochar) soatlari

1. „Mehrjon“ (Kuz bayrami) — 20 oktabrdan 5 noyabr oralig'ida o'tkaziladi.

2. „Archa“ bayrami — 25 dekabrdan 30 dekabrgacha o'tkaziladi.

3. Navro'z bayrami — 20 martdan 1 aprelgacha o'tkaziladi.

4. „Gul“ bayrami — 1 maydan 10 maygacha o'tkaziladi.

Tug'ilgan kunlar, stol, qo'g'irchoq teatrлari, sayohatlar, ertak tinglashlar, fasllarga bag'ishlangan kechalar, qo'shiq va raqs kechalari, kasblarga bag'ishlangan kechalar kabi oyin-kulgi soatlari kunning ikkinchi yarmida tashkil etilib, ular 20—25 daqiqadan o'tkaziladi.

BIRINCHI KICHIK GURUH TARBIYACHISINING ISH HUJJATLARI

Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 588-sonli maktabgacha ta'lif muassasasi (mudira U. Abdullayeva, metodist D. Qoraboyeva) birinchi kichik guruh tarbiyachisi D. Hakimovaning ish hujjatlaridan namunalar.

1. Bolalarning davomat daftari.
2. Oylik, kundalik ish rejasi.
3. Bolalar sog'lig'i ahvolini kuzatish daftari (filter).
4. Guruhga ma'lum bir vaqtida qatnamayotgan bolalarni ro'yxatga olish daftari (patronaj).
5. MTMdta ta'lif-tarbiya jarayonini jamoa bo'lib kuzatish (tahlil) daftari.
6. Guruhda sanitар-epidemiologik tartibga rioxaya qilinishi, gigiyenik sharoitlar yaratilganligini nazorat qilish daftari.
7. Guruh bolalari va ota-onalar haqida ma'lumot.
8. O'z kasbiga ijodiy yondashish, bilim va malakalarni oshirish daftari.
9. Ota-onalar majlisining bayonnomasi.
10. Bolalar olgan bilim, ko'nikma, malakalarning tahlili.

OYLIK ISH REJASI KUNDALIK ISH REJASINING AVVALIDA KO'R SATILADI

Yanvar oyi uchun namunaviy ish rejasi jadvali

Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Peyshanba	Juma
1. <i>Ta'llimiyl o'yn.</i> „Kim (nima) qanday ishni bajarayapti?“ yoki „Kim nima qilayapti?“ (rasm asosida). Maqsad: ko'regzamali tafakkurni o'strish, nutqni tushunish faoliyatini rivoylatirish, yangi so'zlar bilan tanishitirib, ularning ma'nosini anglatish, savollar bera biliшга, ko'rganbilganlari haqidagi so'zlab berishiga o'rgatish. 2. D. Omonullayeva musiqasi. „Shaqildog'im.“	1. <i>Sensor tarbiya.</i> „Rangini top?“ Maqsad: qizil, sariq, ko'k, yashil ranglami to'g'ri ajratishini farqlash, lug at qizil, sariq, ko'k, yashil, so'zlarinig kengaytirish va to'g'ri talaffuz qilish. 2. <i>Harakami rivojlanitirish.</i> „Daraxtilar silkinati“. Layzane.	1. <i>Nutq o'strish.</i> Ertaq ayrib berish: „Bo g'irsog“ Maqsad: nutqni tushunish faoliyatini rivoylatirish, oddiy boyligini kengaytirish, oddiy gaplarmi to'g'ri tuzisiga o'rgatish, tovusini to'g'ri so'zlarini zhamida erishish, yangi so'zlar bilan tanishitirib, ularning ma'nosini anglatish, kattalar gapiga qulq solish, benuxsat chiqib ketmaslikni anglatish.	1. <i>Qurish-yazash.</i> Skameyka. Maqsad: o'lchamlarni birbiridan farqlash ko'nikmasini mustahkamlash, „katta“, „kichik“ kabli so'zlarini ongda mustahkamlash. 2. <i>Harakami rivojlanitirish.</i> „Kim chaqqon?“ Layzane.	1. <i>Tasviriy faoliyat.</i> Loy, „Jonivorlari mehnmon qilamiz.“ Maqsad: loydan narsalar yasashiga qiziqish uyg'otish, loy bo'lakchalarini qafslar bilan mustaqil aylanma harakat qildirish. 2. D. Omonullayeva musiqasi. „Chaqqon qo'lchalar.“
1. <i>Ta'llimiyl o'yn.</i> „Kim (nima) qanday ishni bajarayapti?“ yoki „Kim nima qilayapti?“ (rasm asosida). Maqsad: ko'regzamali tafakkurni o'strish, nutqni tushunish faoliyatini rivoylatirish, yangi so'zlar bilan tanishitirib, ularning ma'nosini anglatish, savollar bera biliшга, ko'rganbilganlari haqidagi so'zlab berishiga o'rgatish. 2. D. Omonullayeva musiqasi. „Shaqildog'im.“	1. <i>Sensor tarbiya.</i> „O'xshashini top?“ (Rang va shak). Maqsad: turii xil predominanti rangiga qarab ajratish va farqlash, o'yinchaoq turlarini rangidan farqlab ajratish va xususiyatlарini farqlash, shaklarni bir-biriga moslab ajratish. 2. <i>Harakami rivojlanitirish.</i> „O'monda nimalar yashaydi?“ (izlar) Maqsad: qog'ozni g'ijiamasdan, ozoda va taribili chizish.	1. <i>Nutq o'strish.</i> Bo'g'irsog“ ertagini takrorlash. Maqsad: nutqni tushunish faoliyatini rivoylatirish, oddiy boyligini kengaytirish, oddiy gaplarmi to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish, entak mazmunini bola oniga singdirish. 2. <i>Tasviriy faoliyat.</i> Rasm: „O'monda nimalar yashaydi?“ (izlar) Maqsad: qog'ozni g'ijiamasdan, ozoda va taribili chizish.	1. <i>Qurish-yazash.</i> Uzun, qisqa skameyka. Maqsad: „uzun“, „qisqa“ so'zlarini ayish, g'ishichalarni o'chamiga qurab ajratish, shakl haqidagi bilimni mustahkamlash, g'ishichalarni rangi orqali bin-biridan ajratishiga o'rgatish. 2. <i>Harakami rivojlanitirish.</i> „Oyoqni baland ko'tar.“	1. <i>Tasviriy faoliyat.</i> Loy, „Bo'g'irsog.“ Maqsad: loydan narsa yasashiga qiziqishni uyg'otish, loy bo'lakchasiini kafslar bilan aylanma harakat qildirish. 2. D. Omonullayeva musiqasi. „Chaqqon qo'lchalar.“

<p>1. <i>Nuq o'sirish.</i> Ertak o'qib berish. Olim Mahkamov. „Mushuk“ „Rasmilar ko'sirish“ („Durdon“ nomli kitobdan. 37. bet). Maqsad: rasmli ko'rgazmalar bilan tanishitish jarayonida ularning tasavvurni, so'z boyligini kengaytirish, emaklab yurishga, mushuk ovozini taqid qilishga o'retish.</p> <p>2. D. Omonullayeva musiqasi. „Kichkinajon“.</p>	<p>1. <i>Sensor tarbiya.</i> „Piramidani joylashtir“ (katta, kichik, kichikroq). Maqsad: o'lehamlarni bir-birdan farqlash ko'nikmasini mustahkamlash. „katta“, „kichik“ kabli so'zlarini mustahkamlash, katta, kichik, kichikroq o'ichamdag'i shakkllarni o'rniша qo'yishga o'retish.</p> <p>2. <i>Harakami rivojlantirish.</i> „O'yinchochiqni yashiramiz“ o'yini.</p>	<p>1. <i>Nuq o'sirish.</i> Stol qo'g'irchoq teatri. „Bo'g'irsoq“ Maqsad: nutqni tushunish faoliyatini rivojlantirish, lug'at boyligini kengaytirish, ertak mazmunini bolalar oniga singdirish, ertak qahranonlari bilan tanishutish.</p> <p>2. <i>Tasviriy faoliyat.</i> Rasm. Ixtiyoriy rasm. Maqsad: oldin o'tilgan mashg'ulotlarni mustahkamlash.</p>	<p>1. <i>Nuq o'sirish.</i> „Qo'g'irchoq Lolaxomni sayrga kiyintiramiz“ (qishki kiyimlar). Maqsad: doira, kvadrat, uchburchak shakkllarini bir-birdan ajratishni o'retish. Ulanai tuzlilishi ka'ra farqlash, avtobus va yekunlarini bir-birdan farqlash, avtobus va yekunlarini bir-birdan farqlashga, „etik“, „pavoq“, „qo'lqop“ so'zlarini to'g'ri talaffuz qiliшha, mustaqil ravishda kiyinishing o'retish.</p> <p>2. <i>Harakami rivojlantirish.</i> „Lentaga qo'llingni tekki“. Layzane.</p>	<p>1. <i>Nuq o'sirish.</i> „Qo'g'irchoq Lolaxomni sayrga kiyintiramiz“ (qishki kiyimlar). Maqsad: doira, kvadrat, uchburchak shakkllarini bir-birdan ajratishni o'retish. Ulanai tuzlilishi ka'ra farqlash, avtobus va yekunlarini bir-birdan farqlash, avtobus va yekunlarini bir-birdan farqlashga, „etik“, „pavoq“, „qo'lqop“ so'zlarini to'g'ri talaffuz qiliшha, mustaqil ravishda kiyinishing o'retish.</p> <p>2. <i>Harakami rivojlantirish.</i> „Lentaga qo'llingni tekki“. Layzane.</p>	<p>1. <i>Nuq o'sirish.</i> „Qo'g'irchoq Lolaxomni sayrga kiyintiramiz“ (qishki kiyimlar). Maqsad: doira, kvadrat, uchburchak shakkllarini bir-birdan ajratishni o'retish. Ulanai tuzlilishi ka'ra farqlash, avtobus va yekunlarini bir-birdan farqlash, avtobus va yekunlarini bir-birdan farqlashga, „etik“, „pavoq“, „qo'lqop“ so'zlarini to'g'ri talaffuz qiliшha, mustaqil ravishda kiyinishing o'retish.</p> <p>2. <i>Harakami rivojlantirish.</i> „Lentaga qo'llingni tekki“. Layzane.</p>	<p>1. <i>Nuq o'sirish.</i> „Qo'g'irchoq Lolaxomni sayrga kiyintiramiz“ (qishki kiyimlar). Maqsad: doira, kvadrat, uchburchak shakkllarini bir-birdan ajratishni o'retish. Ulanai tuzlilishi ka'ra farqlash, avtobus va yekunlarini bir-birdan farqlash, avtobus va yekunlarini bir-birdan farqlashga, „etik“, „pavoq“, „qo'lqop“ so'zlarini to'g'ri talaffuz qiliшha, mustaqil ravishda kiyinishing o'retish.</p> <p>2. <i>Harakami rivojlantirish.</i> „Lentaga qo'llingni tekki“. Layzane.</p>
<p>1. <i>Nuq o'sirish.</i> Uvlashimi top (buyumlar yordamida.) Maqsad: predmetni turli shakkiga moslab ajratish va farqlash, o'yinchochiq turларini rangidan farqlash, ajratish va xusnitsiyatlarini aniqlash.</p> <p>2. <i>Harakami rivojlantirish.</i> „Daraxtlar silkinadi“.</p>	<p>1. <i>Sensor tarbiya.</i> Uvlashimi top (buyumlar yordamida.) Maqsad: predmetni turli shakkiga moslab ajratish va farqlash, o'yinchochiq turларini rangidan farqlash, ajratish va xusnitsiyatlarini aniqlash.</p> <p>2. <i>Harakami rivojlantirish.</i> „Daraxtlar silkinadi“.</p>	<p>1. <i>Nuq o'sirish.</i> Stol qo'g'irchoq teatri. „Bo'g'irsoq“ Maqsad: nutqni tushunish faoliyatini rivojlantirish, lug'at boyligini kengaytirish, ertak mazmunini bola oniga singdirish.</p> <p>2. D. Omonullayeva musiqasi. „Qushcha“.</p>	<p>1. <i>Nuq o'sirish.</i> Stol qo'g'irchoq teatri. „Bo'g'irsoq“ Maqsad: nutqni tushunish faoliyatini rivojlantirish, lug'at boyligini kengaytirish, ertak mazmunini bola oniga singdirish.</p> <p>2. D. Omonullayeva musiqasi. „Qushcha“.</p>	<p>1. <i>Nuq o'sirish.</i> Stol qo'g'irchoq teatri. „Bo'g'irsoq“ Maqsad: nutqni tushunish faoliyatini rivojlantirish, lug'at boyligini kengaytirish, ertak mazmunini bola oniga singdirish.</p> <p>2. D. Omonullayeva musiqasi. „Qushcha“.</p>	<p>1. <i>Nuq o'sirish.</i> Stol qo'g'irchoq teatri. „Bo'g'irsoq“ Maqsad: nutqni tushunish faoliyatini rivojlantirish, lug'at boyligini kengaytirish, ertak mazmunini bola oniga singdirish.</p> <p>2. D. Omonullayeva musiqasi. „Qushcha“.</p>	<p>1. <i>Nuq o'sirish.</i> Stol qo'g'irchoq teatri. „Bo'g'irsoq“ Maqsad: nutqni tushunish faoliyatini rivojlantirish, lug'at boyligini kengaytirish, ertak mazmunini bola oniga singdirish.</p> <p>2. D. Omonullayeva musiqasi. „Qushcha“.</p>
<p>1. <i>Tasviriy faoliyat.</i> Avtobus va yuk mashinmasini qurish. Maqsad: doira, kvadrat, uchburchak shakkllarini bir-birdan ajratishni o'retish. Ulanai tuzlilishi ka'ra farqlash, avtobus va yekunlarini bir-birdan farqlashga, „etik“, „pavoq“, „qo'lqop“ so'zlarini to'g'ri talaffuz qiliшha, mustaqil ravishda kiyinishing o'retish.</p> <p>2. D. Omonullayeva musiqasi. „Uxla ayiqcha“.</p>	<p>1. <i>Tasviriy faoliyat.</i> Avtobus va yuk mashinmasini qurish. Maqsad: doira, kvadrat, uchburchak shakkllarini bir-birdan ajratishni o'retish. Ulanai tuzlilishi ka'ra farqlash, avtobus va yekunlarini bir-birdan farqlashga, „etik“, „pavoq“, „qo'lqop“ so'zlarini to'g'ri talaffuz qiliшha, mustaqil ravishda kiyinishing o'retish.</p> <p>2. D. Omonullayeva musiqasi. „Uxla ayiqcha“.</p>	<p>1. <i>Tasviriy faoliyat.</i> O'qibiyachi mavzulalari mustahkamlash, ozoda va tartibli ishlash.</p> <p>2. Musiqi.</p>	<p>1. <i>Tasviriy faoliyat.</i> O'qibiyachi mavzulalari mustahkamlash, ozoda va tartibli ishlash.</p> <p>2. Musiqi.</p>	<p>1. <i>Tasviriy faoliyat.</i> O'qibiyachi mavzulalari mustahkamlash, ozoda va tartibli ishlash.</p> <p>2. Musiqi.</p>	<p>1. <i>Tasviriy faoliyat.</i> O'qibiyachi mavzulalari mustahkamlash, ozoda va tartibli ishlash.</p> <p>2. Musiqi.</p>	<p>1. <i>Tasviriy faoliyat.</i> O'qibiyachi mavzulalari mustahkamlash, ozoda va tartibli ishlash.</p> <p>2. Musiqi.</p>

Kundalik ish rejasida tarbiyachi har kungi faoliyatini rejalashtirib boradi. Kundalik ish rejasining bиринчи sahifasida guruhning nomi, tarbiyachining ismi, familiyasi ko'rsatilib, mashg'ulotlar jadvali yoziladi.

Bir haftalik namunaviy mashg'ulotlar jadvali.

Dushanba	Seshanba
1. Nutq o'stirish. 2. Musiqा.	1. Sensor tarbiya. 2. Harakatni rivojlantirish.
Chorshanba	Payshanba
1. Nutq o'stirish. 2. Rasm.	1. Qurish -yasash. 2. Harakatni rivojlantirish.
Juma	
1. Loy ishi. 2. Musiqা.	

Ota-onalar bilan ishslash rejasi ko'rsatiladi.

Namuna: bolalarni o'z vaqtida muassasaga olib kelish va olib ketish qoidalariga rioya qilish yuzasidan maslahatlar.

- Uyda bolalarni parvarishlash (maslahatlar).
- Ota-onalarni bolalar olgan bilim, ko'nikma va malakalar tahlili bilan tanishtirib borish.
- „Biz bu yerda yashaymiz, o'samiz, rivojlanamiz“ mavzusida ota-onalar yig'ilishi.

— „Guruhimizga marhabo!“ deb nomlangan ochiq eshiklar kuni. Bir haftalik ertalabki badantarbiya mashqlari yoziladi.

Namuna: „Quyonchalar sakraydi“.

- 1- harakat: Tik turgan holatda, qo'llar pastda, „o'tirdik“ deganda „o'tiramiz“, „turdik“ deganda turamiz. (2—3 marta takrorlanadi).
- 2- harakat: Qo'llarimiz belda, oyoqlarimiz bilan quyonchalardek baland-balad sakraymiz. (3—4 marta).
- 3- harakat: Qo'llarimiz oldinda bo'sh qo'yilgan, egilgan oyoqlar juft holda, ikkala oyoqlarimiz bilan baravar sakrab, quyonchalar harakatini bajaramiz.

Yuqoridagilardan so'ng har kungi ish rejasi yoziladi.

Namuna: dushanba.

I. Kunning bиринчи yarmi.

Ertalabki soat. Bolalar bilan „Mening oilam“ mavzusida suhbat. Bolalarning oilalari haqidagi tasavvurlarini boyitish, nutqini o'stirish.

Tabiat burchagida mehnat. Bolalarni o'simliklarni, hayvonlarni sevishga, ularga g'amxo'rlik qilishga va parvarishlashga o'rgatish.

Bolalar mustaqil faoliyati.

1- mashg'ulot. Mashg'ulotning nomi: nutq o'stirish. Mavzu: „Kim nima qilayapti?“ Mashg'ulotning maqsadi: ko'rgazmalar asosida bolalar

tafakkurini o'stirish, nutqni tushunish faoliyatini rivojlantirish, yangi so'zlar bilan tanishtirish, savollar berib, ko'rganlarini so'zlashga o'rgatish. (Mashg'ulot ishlanmasi yozilmaydi).

2- mashg'ulot. Mashg'ulotning nomi: musiqa. Mavzu: „Shaqildog'im“ (musiqa rahbarining rejasidagi).

Sayr. Tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatish. Bolalarda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish. Ob-havo o'zgarishlariga e'tibor qaratish. Harakatli o'yin: „Koptokchani dumalat“. Bolalarni koptokni to'g'ri yo'nalishda dumalatishga o'rgatish.

Gullar, daraxtlar tagiga suv quyish.

II. Kunning ikkinchi yarmi.

„Sholg'om“ ertagi asosida stol qo'g'irchoq teatri ko'rsatish. Bolalar nutqini rivojlantirish, yangi o'rgangan so'zlarini takrorlash orqali xotirasiga mustahkamlash.

Harakatli o'yin: „Choriy-chambar“. Bolalarni epchil va chaqqon bo'lishga o'rgatish.

Bolalar sog'lig'i ahvolini kuzatish daftari (filter).

Namuna:

Nº	Ismi familiyasi	Sana	Tana harorati	Terisi	Og'iz bo'shilig'i	Pedikuloz	Ota-onalardan olingan ma'lumot

Guruhg'a ma'lum bir vaqtida qatnamayotgan bolalarni ro'yxatga olish daftari (patronaj).

Namuna:

Nº	Ismi familiyasi	Oxirgi kelgan kuni	I patronaj	Sababi	II patronaj	Sababi	So'nggi tashxis	Tuzalgan kuni	Kelgan kuni	Imzo

MTMdA ta'lif-tarbiya jarayonini jamoa bo'lib kuzatish (tahlil) daftari.

Namuna:

Sana	Mashg'ulot nomi, mazmuni	Tarbiyachining faolligi	Bolalarning o'zlashtirishi	Metodik tavsiya
12/IX	Sensor tarbiya: „Rangini top“ Maqsad: bolalarni rang, shakllarni bir-biridan farqlay olish va nomini to'g'ri aytishga o'rgatish.	3- ilk yosh gr. Tarbiyachisi Akbarova Zuhra. Tarbiyachining bolalar bilan muloqoti yaxshi. Mashg'ulot ketma-ketligi to'g'ri olingen. Tarbiyachi bolalarga o'z bilimini bera oldi va maqsadiga erishdi.	Bolalar mashg'ulot davomida o'zlarini erkin tuta oldilar, mashg'ulot o'yin orqali olib borildi. Bolalar rang, shakllarni to'g'ri ajrata bildilar.	Men tarbiyachiga mashg'ulot davomida bolalarga she'r yoki biror harakatli o'yin o'tishni taklif etaman.

„Guruuhda sanitar-epidemiologik tartibga rioya qilinishi va gigiyenik sharoitlar yaratilganini nazorat qilish“ daftari. Bu daftar MTM shifokori va hamshirasi tomonidan yuritiladi. Unda guruhning tozaligi, kamchiligi va takliflar ko‘rsatiladi.

Guruh bolalari va ota-onalar haqida ma’lumot.

Namuna:

Nº	Bolaning ismi familiyasi	Tug‘ilgan yili	Guruuhga kelgan kuni	Ota-onasi haqida ma’lumot	Manzili va telefoni

„O‘z kasbiga ijodiy yondashish, bilim, malakalarni oshirish“ daftari.

Bu daftarda tarbiyachi bilim, ko‘nikma va malakalarini xolisona o‘zi tahlil qiladi. Faoliyatidagi muammolar yechimini izlaydi. O‘qigan, o‘rgangan adabiyotlari, ilg‘or ish tajribalarining mazmunini yozib boradi.

Ota-onalar majlisining bayonnomasi.

Namuna: 2005- yil 22- martda birinchi kichik guruhida o‘tkazilgan „Biz epchil, chaqqon bolalarmiz“ mavzusidagi ota-onalar yig‘ilishining bayonnomasi.

Kun tartibi: 1. Tarbiyachi Hakimova Diloromning „Biz epchil, chaqqon bolalarmiz“ mavzusidagi suhbatи. 2. Guruh ota-onalar qo‘mitasi faoliyatining tahlili. 3. Umumiy masalalar (yig‘ilishning borishi va qarolarning qabul qilinishi yoziladi).

Bolalar olgan bilim, ko‘nikma va malakalar tahlili.

Bunda guruhdagi har bir bola uchun yil boshida, bolaning rivojlanishi hisobga olingan holda ota-ona, shifokor, mudira, metodist, tarbiyachi hamkorligida „Bola bilan yakka holda ishslash“ rejasি tuziladi. Ta‘lim-tarbiya reja asosida beriladi. Yilda 2 marta bolalarning bilim, malaka va ko‘nikmalari tahlil qilinadi. Tahlil ota-onalar tanishishlari uchun ko‘rgazma sifatida qabulxonaga ilib qo‘yiladi. Tahlil natijasiga ko‘ra bolalar uch guruuhga bo‘linadi. Ikkinci va uchinchi guruhlarda bolalar soni qancha kam bo‘lsa, tarbiyachi ishni shuncha muvaffaqiyatli tashkil etgan bo‘ladi.

1. To‘liq bilim, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lgan bolalar.
2. Qisman bilim, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lgan bolalar.
3. Umuman hech qanday bilim, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lmagan bolalar.

2—3 YOSHLI BOLALAR TARBIYALANAYOTGAN GURUH XONALARINING JIHOZLANISHI (JIHOZ, MATERIAL VA O'YIN BURCHAKLARI)

Bu guruhda ishlayotgan tarbiyachi o'z guruhi bolalarining aqlan, jismonan, ruhan va ma'nан rivojlanishlarini hisobga olgan holda guruh xonalaridagi o'yin burchaklari va markazlarini o'yinchoq hamda materiallar bilan jihozlash lozim.

Bugungi maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalar bir yarim-ikki yoshdan boshlab qatnamoqda. Ko'nikish davri aynan shu paytda o'tadi. Qabulxona ota-onalarni bolaning muassasada olgan bilim, ko'nikma va malakalari bilan tanishtiradigan, axborot beradigan maskanga aylantirilishi lozim. Qabulxonadagi pedagogik va tibbiy ko'rgazmalar ota-onalarga tushunarli holda did bilan tayyorlangan bo'lishi kerak.

Pedagogik ko'rgazmalar:

- guruh bolalarining kun tartibi;
- bir haftalik mashg'ulotlar jadvali;
- shu yosh bolalari uchun dastur vazifalari;
- davlat talablari;
- har bir bolaning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarining tahlili;
- ota-onalar uchun maslahatlar, uyga vazifalar;
- guruhning bir kunlik faoliyati tahlili, bolalar rasmlari, loy ishlardan namunalar.

Tibbiy ko'rgazmalar:

- bolalarning jismonan rivojlanishi va salomatligiga oid antropometrik jadval*;
- shifokor maslahati;
- taomnoma.

Hurmatli hamkasaba, guruhnji jihozlashda bolaning guruhga oila, ya'ni ota-ona, buvi, buvalarning bag'ridan chiqib qatnay boshlashini unutmang. Uning uchun siz ham, guruhdagi bolalar, jihozlar, o'yinchoqlar ham notanish, begona. Bola guruh hayotiga ko'nikish jarayonida qiyinchiliklarga duch keladi. Lekin siz guruh xonasini chiroyli, did bilan bezatgan bo'sangiz, bola ishonchini oqlay olsangiz,

* Odam gavdasining morfologik belgilarini aniqlash metodlari va usullari majmuiga oid jadval.

u guruhga tezda o'rganib ketadi. Guruhni jihozlashda quyidagilarga riyoga qilishingiz lozim bo'ladi:

— oila sharoitiga yaqin jihozlashga;

— har bir burchak, markaz, o'yinchoq, jihozni joylashtirishda bolaning aqlan, ma'nan, jismonan va ruhan rivojlanishini hisobga olishga;

— har bir o'yin burchagidagi jihozni bolaning bo'yiga, ko'rish darajasiga mosligini, o'zi erkin turib o'ynashi yoki shug'ullanishini hisobga olishda;

— burchaklardagi jihozlar, o'yinchoqlarning bola diqqatini o'ziga jalb etadigan, u yerda o'ynash yoki shug'ullanishni xohlaydigan darajada bo'lishiga.

VOQEABAND-ROLLI O'YINLAR O'YNALADIGAN BURCHAKLAR JIHOZLARI

1. „Oila“, „Mehmon-mehmon“ (milliy usulda) o'yinlari jihozlari: so'zana, xontaxta, ko'rpa chalar, milliy idish-tovoqlar, milliy kiyimlardagi qo'g'irchoqlar va boshqalar.

2. „Oila“, „Mehmon-mehmon“ (zamonaviy usulda) o'yinlari jihozlari: bolaning bo'yiga mos, u bemalol ustiga chiqib, o'tirib o'ynay oladigan divan, karavot, stullar, gaz plitasi, dazmol qiladigan taxta (dazmoli bilan), kir yuvish anjomlari va idish-tovoqlar.

3. „Do'kon“ o'yini jihozlari: stol, tarozi, sotiladigan narsalar, sotuvchining peshband va qalpoqchasi.

4. „Do'xtir“ o'yini jihozlari: kushetka, shirma (parda), stol-stullar, oq xalat, qalpoqcha, qog'oz, uchi yo'q qalam (do'xtirning o'yinchoq asboblari).

5. „Sartaroshxona“ o'yini jihozlari: oyna, sochiq quritadigan moslama, taroqlar va peshbandlar.

6. Qum va suv bilan o'ynash markazi jihozlari: qum solingan idish, suv solingan idish, xokandozchalar, shakllar, o'yinchoq mayda baliqlar, qarmoqlar.

Bolalarning mustaqil faoliyatlari uchun.

1. Kitob burchagi jihozlari: predmetli va mazmunli rasmlar, bolalarga tanish bo'lgan ertaklar.

2. Tasviriy faoliyat markazi jihozlari: qog'oz va qalamlar, bo'yoq, mo'yalam va loy, bolalarning mustaqil chizgan rasmlaridan namunalar.

3. Bolalarni sensor rivojlantirish markazi jihozlari: piramidalar, matryoshkalar, simlar, arqonlar, lentalar va boshqalar.
4. Teatrlashgan faoliyat markazi jihozlari: parda va qo‘g‘irchoqlar.
5. Tevarak-atrof bilan tanishtirish burchagi jihozlari: guruh tarbiyachisi, tarbiyachi yordamchisi, bolalar (siluyeti kesilib kartonga yopishtirilgan) va mebel predmetlarining rasmlari.
6. Tabiat burchagi jihozlari: yil fasllariga mos illustratsiyalar, suv quygichlar, xonadon gullari, baliqlar, akvarium va qafasdagagi qushlar.
7. Mehnat burchagi jihozlari: supurgi, xokandozcha, suv quygich va belkuraklar.
8. Harakatlarni rivojlantiruvchi markaz (jihozlari 78- betdag'i jadvalda berildi).

Guruhda burchaklar, markazlar tashkil etishda iloji boricha bolalarning erkin harakat qilishlari hisobga olinmog‘i lozim (bolalar ovqatlanib va shug‘ullanib bo‘lganlaridan so‘ng stol-stullar bir chetga olib qo‘yiladi).

BIRINCHI KICHIK GURUH BOLALARI UCHUN TAXMINIY O‘YINLAR MATERIALLARI

Voqeaband o‘yinlar uchun materiallar

Material turi	Nomi	Guruhalarda bo‘lishi lozim bo‘lgan soni
O‘yinchoq qahramonlar	Qo‘g‘irchoqlar (yirik 35—50 sm)	5 ta, har turli
	Qo‘g‘irchoqlar (o‘rta 25—35 sm)	5 ta, har turli
	Yumshoq antropomorf* (odamlarni kiyimi kiydirilgan o‘yinchoq hayvon)lar (yirik 35—50 sm, o‘rta 25—35 sm)	8 ta, har turli
	Katta hajmdagi tirgovichga o‘rnatalgan yassi hayvonlar va qushlar (yumshoq va yog‘ochdan 15—20 sm)	1—20 ta, har turli
Predmet-o‘yinchoqlar	Choy idishlar to‘plami (yirik)	2—3 ta, har turli
	Oshxona idishlari to‘plami (yirik)	2—3 ta
	Tog‘orachalar	3 ta
	Bolg‘a (plastmassadan)	1 ta
	Sabzavot va mevalar to‘plami (yirik – mulyaj)	1 ta
	Qo‘g‘irchoq uchun yotoq anjomlari to‘plami	3 ta
	Yuk mashinasasi (yirik, yog‘ochli yoki plastmassadan)	2 ta

* Bir odamga xos ruhiy xususiyatlarni narsalar, jonivorlar va tabiat hodisalariga ham xos deb bilish, ularni odamga o‘xshatish.

	G'ildirakli yashik (yirik)	2 ta
	G'ildirakdag'i hayvonlar va qushlar (tortadigan qismi yog'ochdan yoki arqondan)	5 ta, har turli
	Usti ochiq avtomobillar (yirik va o'rta)	5 ta, har turli
	Qo'g'irchoqlar aravachasi (yig'iladigan)	2 ta
	G'ildirakli ot (yoki boshqa hayvonlar)	1 ta
	Telefon	2 ta
	Chelakchalar	5 ta
	Qo'g'irchoq stuli (yirik)	4 ta
	Qo'g'irchoq karavoti	2 ta
	Qo'g'irchoq divani	1 ta
	Qo'g'irchoq kiyimlari uchun javon (bola bo'yiga mos)	1 ta
	Oshxona plitasi (bola bo'yiga mos)	1 ta
	Shirma uy	1 ta
	Avtobus (vagon)	1 ta
	Mayda predmetlar va yashik	1 ta

Qoidalı o'yinlar uchun materiallar

Turi	Nomi	Guruhlarda bo'lishi lozim bo'lgan soni
Chaqqon, epchil o'ynaladigan o'yinlar uchun	Shar va darvozacha (to'plam)	2 ta
	Shar va aravachalarni g'ildiratib, dumalatish uchun nov	1 ta
	Turli hajmdagi koptoklar	7 ta

Tasviriy faoliyat uchun materiallar

Material turi	Nomi	Guruhchada bo'lishi lozim bo'lgan soni
Rasm uchun	Rangli qalamlar to'plami (6 rangli)	har bir bola uchun
	Flamaster to'plami (6 rangli)	har bir bola uchun
	Guash (6 rangli)	har bir bola uchun
	Mo'yqalam	har bir bola uchun
	Mo'yqalam popugini bo'yoqdan yuvish uchun idish	ikkita bola uchun bitta
	Mo'yqalamni quritish uchun suvni yaxshi shimadigan sochiq (15×15 sm)	har bir bola uchun
	Mo'yqalam uchun taglik	har bir bola uchun
	Rasm solish uchun qog'oz	har bir bola uchun
Loy ishi uchun	Loy	har bir bola uchun 0,3 kg.
	Taxtacha (20×20 sm)	har bir bola uchun
	Loydan foydalanib narsa yasayotganda qo'l artib turish uchun suvni yaxshi shimadigan sochiq (30×30 sm)	har bir bola uchun

Qurish — yasash uchun materiallar

Material turi	Nomi	Guruuhchada bo'lishi lozim bo'lgan soni
Qurilish materiallari	Katta hajmdagi qurilish materiallari O'yinchoqlar (uy va yovvoyi hayvonlar, mashinalar va boshqalar, qurilish materialining hajmiga mos)	Bir to'plam

Harakatlarni rivojlantiruvchi markaz jihozlarining namunaviy to'plami

Harakat turi	Jihozning nomi	Hajmi	Guruuhchada bo'lishi lozim bo'lgan soni
yurish, yugurish, muvozanatni saqlash uchun	Bolalar sirpanchig'i		1 ta
	Gilamchalar, massaj yo'lakchalar, iz tushirilgan yo'lakchalar	180—40 sm	2 ta
Sakrash uchun	Uzun arqon	Uzunligi 100—150 sm	1 ta
	Kichik mat	Uzunligi 60 sm Eni 60 sm, Bo'y 7 sm.	2 ta
	Kichik taxtali kub	Qirrasi 15—30 sm	5 ta
	Halqa (yassi, rangli)	Diametri 40—50 sm	5 ta
	Uzun gimnastika tayoqchasi	Uzunligi 150 sm	2 ta
	O'rilgan kalta arqon	Uzunligi 75 sm	5 ta
Dumalatish, irg'itish va ilib olish uchun	Koptoklarni irg'itish uchun savat		1 ta
	Charm to'	Diametri 10—15 sm	10 ta
	Havo to'ldirilgan koptok	Diametri 40 sm	2 ta
	Kichik halqa	Diametri 54—65 sm	5 ta
	Plastmassa shar	Diametri 4 sm	5 ta
Emaklash va tirmashib chiqish uchun	Ikki qanolti narvoncha	Eni 80—85 sm Bo'y 103 sm	1 ta
	Yashiklar		Bir to'plam
Umum - rivojlantiruvchi mashqlar uchun	Massaj to'pi	Diametri 6—8 sm	10 ta
	Charm to'	Diametri 20—25 sm	10 ta
	Yassi halqa	Diametri 20—25 sm	10 ta
	Kalta gimnastika tayoqchasi	Uzunligi 60—80 sm	10 ta
	Lentali halqa	Diametri 5 sm	10 ta
	Charm qoplangan halqa	Diametri 5—6 sm, 18 sm	10 ta

2—3 YOSHLI BOLALAR NUTQINI O'STIRISH VA TEVARAK- ATROF BILAN TANISHTIRISH MASHG'ULOTLARI ISHLANMALARI*

1- mashg'ulot.

Mavzu: muktabgacha ta'lif muassasasining O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi bayramiga bag'ishlab bezatilgan musiqa zaliga sayohat.

Maqsad: bolalarda bayramona kayfiyatni uyg'otish, ularda Ona-Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash. Bolalarni Vatanimiz bayrog'i bilan tanishtirish.

Mashg'ulotning borishi.

(*Mashg'ulot guruhalarga bo'linmagan holda hamma bolalar bilan birlgalikda o'tiladi*). Tarbiyachi bolalarga O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik kunining bayram qilinishi munosabati bilan ko'chalar, binolar, mahallalar, bog'chalarning zallari va hovlilari bayramona bezatilishi haqida so'zlab beradi. Bolalarni bog'chaning bayramona bezatilgan musiqa zalini ko'rishga taklif etadi. Zalda uning qanday bezatilganligi to'g'risida gapirib beradi. Vatanimiz bayrog'ini ko'rsatib, uning muqaddas ekanligini tushuntirib beradi, so'ngra bolalarga bittadan bayroqcha tarqatib chiqadi. Ularga qo'llaridagi bayroqchalarni tomosha qilishni taklif etadi. Bolalar bayroqchalarni tomosha qilib bo'lishgach, maxsus idishga solib qo'yishadi. Bolalar zalni aylanib chiqib, guruh xonasiga qaytishadi. Guruh xonasi ham bayramona bezatilganligini ko'rib, kuzatishadi.

Tarbiyachi bolalarga shoir Abdurahmon Akbarning Vatan haqidagi she'rini aytib beradi.

*Ona-Vatan, jon Vatan,
Bizga mehribon Vatan.*

*Shod o'samiz bag'ringda,
Doim bo'l omon Vatan.*

* Ushbu mashg'ulotlar ishlanmalari Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi 588- sonli muktabgacha ta'lif muassasasida tajriba-sinovdan o'tgan.

2- mashg‘ulot.

Mavzu: polizga sayohat.

Maqsad: bolalarda sabzavotlarning o‘sishi haqida tasavvur hosil qilish. Sabzi, sholg‘om, kartoshka, karam, pomidor, bodring nomini atashga, ularni bir-biridan farqlashga o‘rgatish. Mashg‘ulotda shug‘ullanishga ishtiyoq va qiziqish uyg‘otish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi bolalarni gilamchaga ular xohlagan holda o‘tqizadi. Eshik taqillaydi. Tarbiyachi: „Bolalar, qaranglar-a, bugun biznikiga ayiqcha mehmonga kelibdi. U bizlar bilan mashg‘ulotda shug‘ullanmoqchi, u ham ko‘p narsalarni bilishni, aqli bo‘lishni xohlaydi. Ayiqcha, mashg‘ulotda tinch o‘tirishing, so‘zlarimizni diqqat bilan tinglashing va barcha savollarga javob berishga harakat qilishing kerakligini bilib ol. Bolalarimizning hammasi mashg‘ulotda shug‘ullanishni, o‘zlarini qanday tutishni yaxshi biladilar, ular juda odobli bolalar. Bolalar, ayiqchani guruhimizga olamizmi? („Ha“)*.

(*Ayiqcha mashg‘ulotlarda tez-tez qatnashadi. Bu bolalarni mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishini orttiradi, ularning diqqat-e’tiborini mashg‘ulot boshidanoq jamlab olishga yordam beradi.*)

Tarbiyachi: „Bolalar, bugun siz bilan bog‘chamizning tomorqasiga sayohatga chiqamiz“. Tarbiyachi bolalarga tomorqa va undagi jo‘yaklarni ko‘rsatadi. „Tomorqa“ va „jo‘yak“ so‘zlarini bir necha bor aytishni taklif etadi. (*Bolalar birgalikda javob beradilar*).

Tarbiyachi bolalar e’tiborini sabziga qaratadi. U: „Bolalar, qaranglar, mana bu yerda sabzi o‘sadi, u yer ostida o‘sadi, uning faqat ko‘m-ko‘k barglarigina ko‘rinib turadi“, — deydi. Tarbiyachi bir-ikkita sabzini uzib olib, bolalarga ko‘rsatadi. Bolalar ularni ko‘radilar, sabzilarni yuvish lozimligini aytadilar.

So‘ngra tarbiyachi karamni ko‘rsatadi. „U katta, dumaloq, uzoqdan ham yaxshi ko‘rinadi“. Tarbiyachi bolalarga boshqa sabzavotlarning qanday o‘sishini (*yer ostida, yer ustida*) ham ko‘rsatib, tushuntiradi. Dastlab ayiqchadan qanday sabzavotlar qayerda va qanday o‘sishini so‘raydi so‘ngra bolalardan sabzi, pomidor, karam, bodring qayerda o‘sishini ko‘rsatib berishlarini so‘raydi. Bolalar ko‘rsatib beradilar. To‘g‘ri ko‘rsatgan bolalar rag‘batlantiriladi.

* Bolalar aytadigan so‘zlar bundan buyon qavs va qo‘shtirnoq ichida beriladi.

(*Bolalarga tomorgani ko'rsatish imkoniyati bo'lmasa, rasmlardan foydalaniladi*).

3- mashg'ulot.

Mavzu: „Sholg'om“ ertagini aytib berish.

Maqsad: bolalarni ertakni diqqat bilan tinglashga o'rgatish, unga nisbatan qiziqish uyg'otish.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi ertakni his-hayajon bilan ifodali, shoshilmasdan ayta boshlaydi. Shu jarayonda ertak qahramonlarining figuralarini bilan stol qo'g'irchoq teatrini ko'rsatadi. (*Figuralar stol qo'g'irchoq teatri uchun qalin kartondan yoki fanerdan kesib tayyorlanadi, ular taglikka o'rnatilgan bo'ladi*).

Tarbiyachi ertakni aytib bo'lgandan so'ng, bolalardan ertak qahramonlari sholg'omni qanday tortganliklarini ko'rsatib berishni so'raydi. Bolalar ko'rsatib berayotib, „tortishibdi-tortishibdi. Oxiri tortib olishibdi“, deydilar. Tarbiyachi: „Sholg'om juda katta edi“, deb sholg'omning qandayligini bolalarga eslatadi. So'ng bolalardan sholg'omning kattaligini ko'rsatib berishlarini so'raydi. Bolalar qo'llarini yozib ko'rsatadilar.

Tarbiyachi bolalarga ertakni birga aytishni taklif etadi.

Ertak aytishni boshlaydilar: (*ertakning bolalar qo'shib aytadigan qismi ko'rsatilgan*). Tarbiyachi: — „Sichqon“ deb (*mushukni ko'rsatadi*), bolalar „mushukni“ deb qo'shiladilar, tarbiyachi: „Mushuk“ deb (*kuchukni ko'rsatadi*), bolalar „kuchuk“ deb qo'shiladilar. Tarbiyachi: „Kuchuk“ deb (*nabirani ko'rsatadi*). Bolalar tarbiyachiga shu tarzda ertakni so'zlashga yordam beradilar. Mashg'ulot oxirida bolalarga figuralar bilan o'ynash taklif etiladi.

4- mashg'ulot.

Mavzu: „Sholg'om“ ertagini takrorlash, „Ular nima yeydi?“ ta'limiy mashg'uloti, „A-a-a“ deb ayt“ ta'limiy o'yini.

Maqsad: ertakni tarbiyachi bilan birga so'zlash ishtiyoqini uyg'otish. Bolalarda nima nimani yeyishi haqidagi tasavvurni boyitish. „Ichadi“, „g'ajiydi“, „yeydi“ fe'llarini bolalar nutqida faollashtirish, „a“ tovushini aniq talaffuz qilishga o'rgatish.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi: „Bobo sholg'om ekibdi, sholg'om, sholg'om („qanddek“) bo'lib o's, sholg'om, sholg'om („katta“) bo'lib o's.

Bobo sholg'omni yerdan tortib olgani („boribdi“), („tortib-tortib“) ko'ribdi, lekin („tortib ololmabdi“). Bobo („buvini“) chaqiribdi“.

Tarbiyachi shu tariqa bolalar ishtirokida ertakni aytishda davom etadi. Bolalar qahramonlarning nomlarini aytishgach, tarbiyachi figuralarni stol ustiga qo'yadi va birgalikda ertakning oxirini aytishni taklif etadi. Tarbiyachi ertakni aytib bo'lgandan so'ng bolalardan boba bilan buvining sholg'omni nima qilganliklarini so'raydi („yuvishdi, tozalashdi va yeishdi“).

Tarbiyachi: „Bobo, buvi va nabira (*ularning figuralarini stol ustiga qo'yadi*) sholg'om yeishayapti. Juda shirin sholg'om ekan deb maqtab qo'yishyapti. Sholg'om qanday ekan? (*Bolalar birgalikda va yakka holda javob beradilar.*) Kuchuk, mushuk va sichqon odamlarga qarab o'tiribdilar. Ular sholg'om yemayaptilar. Hozir nabira ularga ovqat olib keladi. Mushukka („sut“), kuchukka („suyak“), sichqonga („pishloq“)“.

So'ngra tarbiyachi ular nima yeayotganini bolalardan takroran aytib berishlarini so'raydi. („Bobo, buvi va nabira sholg'om yeayapti, mushuk sut ichayapti, kuchuk suyak g'ajiyapti, sichqon pishloq yeayapti“).

Tarbiyachi figuralarni olib qo'yib, bolalarga qo'g'irchoq shifokor Voyjonimni ko'rsatadi.

Tarbiyachi: (*Voyjonim tilidan*) „Salom, bolalar! Men shifokor „Voyjonimman. Sizlarning tomoqlaringizni tekshirgani keldim. Og'riyaptimi-yo'qmi, ko'rib bilmoqchiman“. Tarbiyachiga murojaat qilib undan og'zini katta ochib „a-a-a“ deyishini so'raydi. Tarbiyachi Voyjonim bilan har bir bolaning oldiga borib, og'zini katta ochib, „a-a-a“ deyishini iltimos qiladi.

Mashg'ulotdan tashqari bolalarga quyidagi o'yinni o'ynash taklif etiladi. Ya'ni, ular e'tiboriga o'rta ga suyak, o't, pishloq va sut, atrofiga it, mushuk, sichqon, qo'y tasviri tushirilgan rasm havola etiladi. Bolalardan qaysi hayvon nima yeishini ko'rsatib berish so'raladi. Bunda bola qaysi hayvon nimani yeishini barmog'ini qog'ozdan olmagan holda yurgizib ko'rsatadi.

5- mashg‘ulot.

Mavzu: „Polizga sayohat“ hikoyasini tuzish, sabzini kuzatish.

Maqsad: bolalarni hikoyani diqqat bilan eshitishga, kerakli so‘zlarni hikoya davomida qo‘sib aytishga o’rgatish. Bolalarning sabzi haqidagi tasavvurini aniqlash, „zarg‘aldoq“, „qattiq“, „qirsillaydi“, „yeydi“, „qirg‘ichda qiradilar“ kabi so‘zlar bilan so‘z boyligini orttirish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi: „Lola bilan Rustam polizga borishdi. Polizda („sabzi, sholg‘om, karam.....“) o‘sadi. Sabzi yer tagida, ko‘m-ko‘k barglari esa yerning ustida o‘sadi. Lola bargidan tortgan edi, („sabzi“) chiqdi. Sabzi qanday edi? Sabzi („katta“) va zarg‘aldoq rangli edi. Lola bilan Rustam sabzini onalariga berishdi. Ona sabzini yuvdi. Lola bilan Rustam sabzini („yeyishdi“). Sabzi juda mazali edi. Lola bilan Rustam bizga ham sabzi olib kelishdi. Kelinglar, sabzini ko‘ramiz“.

Tarbiyachi sabzini ko‘rsatadi. U qanday deb so‘raydi. („Zarg‘aldoq rangli va katta“). U yana qanday? Sabzini ushlab ko‘ringlar, u qattiq (*bolalar yakka holda „qattiq“ so‘zini qaytaradilar*). Tarbiyachi: „Sabzi qattiq, uni qirg‘ichda qirsa bo‘ladi“, — deb bolalarga qirg‘ichni ko‘rishni taklif etadi. „Qirg‘ichni ehtiyyot bo‘lib ushlab ko‘ring, undan ehtiyyotkorlik bilan foydalanimasa, qo‘lni kesishi mumkin“. Tarbiyachi sabzini qirg‘ichdan o‘tkazadi. Qirg‘ichdan o‘tkazayotib, uning kichiklashib borayotganiga bolalar diqqatini jalb etadi. Qirg‘ichdan o‘tkazilgan sabzi likopchaga solinadi, unga mashg‘ulotdan oldin qirg‘ichdan o‘tkizilgan sabzini qo‘sadi. Bolalar kichik qoshiqda yeydilar. Tarbiyachi bolalar diqqatini qirg‘ichdan o‘tkizilgan sabzining *shirin, suvli* va *yumshoq* ekanligiga qaratadi. Bolalar bu so‘zlarni qaytaradilar. Tarbiyachi: „Agar butun sabzini yesangiz u qirsillaydi, eshitining“, — deb har bir bolaga sabzi bo‘laklarini beradi. („Qirsillaydi“).

Xuddi shunday mashg‘ulotni pomidor va bodringdan foydalanib ham o‘tkazish mumkin, bunda bolalar ishtirokida pomidor va bodringdan shakarob tayyorlanib, birgalikda baham ko‘rilib, ularning xususiyatlari tushuntirib beriladi.

6- mashg‘ulot.

Mavzu: „Paravoz“ ta’limiy mashqi.

Maqsad: „U“ tovushini aniq va imkon boricha cho‘zib talaffuz qilishga o‘rgatish, „a“ tovushini to‘g‘ri talaffuz qilishni mustahkamlash, „a“ va „u“ tovushlarini baland ovozda talaffuz qilishga o‘rgatish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi bolalarga o‘yinchoq paravozni ko‘rsatadi. U paravozning qanday ovoz chiqarishini tinglashni taklif etadi. „U-u-u“ (*baland ovozda cho‘zib talaffuz etadi*). Bolalardan birgalikda va bittadan paravozga o‘xshab tovush chiqarishlarini so‘raydi. So‘ngra „Paravozni chaqir“ o‘yinini tashkil etadi. Bola „u-u-u-u“ deb ovoz chiqaradi. Paravoz tovush chiqqan tomonga harakat qiladi. Agar bola tovushni past ovozda qisqa talaffuz etsa, paravoz eshitmaydi va o‘z joyidan jilmaydi. Tarbiyachi bolalardan „u“ tovushini baland ovozda cho‘zib talaffuz qilishlarini so‘raydi.

Tarbiyachi (*Voyjonimni ko‘rsatib*): „Bolalar, shifokor Voyjonimni hammangiz taniysiz-a? O‘tgan mashg‘ulotda Voyjonim hammamizning tomog‘imizni tekshirgani kelgan edi. Og‘zimizni katta ochib, „a-a-a“ deb tomog‘imizni Voyjonimga ko‘rsatgan edik. Kelinglar, yana bir marta unga og‘zimizni katta ochib, „a-a-a“ deb ko‘rsatamiz. Bolalar „a“ tovushini birgalikda va yakka holda talaffuz qiladilar.

Tarbiyachi bolalarga „adashib“ qolgan yoki orqada qolib ketgan o‘rtoqlarini „au-au-au“ deb chaqirishni taklif etadi. Ular bu tovushlarni sekin aytsalar o‘rtoqlari eshitmaydi va ularning yonlariga kelmaydilar. Shuning uchun bu tovushlarni baland va cho‘zib aytish kerak. Hamma bolalar „au-au-au“ deb chaqirishga taklif etiladi. Bolalar „au-au-au“ deb chaqiradilar, buni bir necha marta takrorlaydilar.

7- mashg‘ulot.

Mavzu: shoir Abdurahmon Akbarning „Suvjon“ ovutmachog‘i.

Maqsad: bolalarga „Suvjon“ ovutmachog‘ini aytib berish orqali ularda xursandchilik, quvnoqlik hislarini, ovutmachoqni yana qayta tinglash va aytishda qatnashish istagini uyg‘otish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi: „Bu — Lolaxon, u uqlab yotibdi, bolalar, kelinglar, uni uyg‘otamiz. Lolaxon, turaqol“. Bolalar Lolaxonni uyg‘otishda tarbiyachiga yordam beradilar.

Tarbiyachi Lolaxonni qo‘liga oladi. „Bolalar, biz ertalab o‘rnimizdan turgandan so‘ng nima qilamiz? Suv bilan yuvinamiz. (*Bolalar javob bermasalar tarbiyachining o‘zi javob beradi*). Kelinglar, suvdan Lolaxonni yuvintirib, tetiklashtirishni iltimos qilamiz.

Tarbiyachi o‘yinchoq jo‘mrak (bo‘lмаган тақдирда жо‘мрак расмини) yoki chovgumni oladi. U chovgumdan suv oqizib „s-s-s-s“ deb Lolaxonni yuvintiradi. Qo‘g‘irchoqni yuvintirayotib, ovutmachoqni sekin, shoshilmasdan aytadi.

Qo‘g‘irchoq yuvintirib bo‘lingach, uni bolalarga ko‘rsatadi. Ulardan yuvingan qo‘g‘irchoqning ko‘zlarini va yonoqlari qandayligini so‘raydi. (*Bolalar birgalikda va yakka holda javob beradilar*). Tarbiyachi ovutmachoqni yana bir marta aytib beradi. Bolalardan ovutmachoqni aytishga yordam berishlarini so‘raydi. (*Tarbiyachi bu ovutmachoqdan bolalarni yuvintirayotganda foydalanadi, bolalar uni aytib yuvinadilar*).

8- mashg‘ulot.

Mavzu: „Suvjon“ ovutmachog‘ini takrorlash. Predmetlar bilan tajriba, bolalar so‘z boyligini „cho‘kadi“, „cho‘kmaydi“, „suzadi“ kabi so‘zlar bilan boyitish.

Maqsad: bolalarni tanish ovutmachoqni takroran tinglash jarayonida uni aytishda tarbiyachiga yordam berishga o‘rgatish. Ovutmachoqni birgalikda aytish orqali ularda xursandchilik, quvnoqlik kayfiyatlarini uyg‘otish. Charm to‘p xususiyatlari bilan tanishtirish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi bolalarga jo‘mrak rasmini ko‘rsatadi. „Qo‘g‘irchoq Lolaxon jo‘mrak oldiga keldi va uni ochdi, jo‘mrakdan „s-s-s-s“ deb suv oqdi. Lolaxon suvni qo‘sish aylib oqib tushayotganini eshitdi va undan yuvintirishni so‘radi“. Tarbiyachi ovutmachoqni asta-sekin shoshmasdan aytadi. Ba’zi bolalar unga qo‘shiladilar. Tarbiyachi bu bolalarni rag‘batlantirib, qolganlarni ham qo‘silib aytishga undaydi. Tarbiyachi Lolaxonni yuvintiradi. Ovutmachoq yana bir marta

takrorlanadi. U shoshilmasdan aytlishi lozim, chunki ba'zi bolalar ovutmachoq so'zlarini kechikib aytadilar. Tarbiyachi bolalarni Lolaxon bilan birga yuvinishga chaqiradi. Tarbiyachi: „Suvjon, suvjon (*Alimjonning, Olimning, Baxtiyorning*) yuzini yuv“.

Tarbiyachi stol ustiga suv solingan tog'ora qo'yadi. Lolaxon yuvinib bo'lgandan so'ng koptok o'ynaydi. „Mana bunday“, deb tarbiyachi bolalarga ko'rsatadi. Lolaxon „voy!“ deb qo'rqib ketadi. U: „Koptok cho'kib ketadi“, — deb tog'oraning oldiga keladi. Tarbiyachi bolalarni tog'ora oldiga chaqiradi. Tarbiyachi: „Koptok suzayapti, cho'kmadi“, — deb bolalarga ko'rsatadi. Bolalar „suzayapti, cho'kmadi“ so'zlarini qaytaradilar.

Tarbiyachi bolalarga o'ynichoq mashinani ham suvgan solishni taklif etadi, mashina esa cho'kadi. „Lolaxon sharcha (soqqa)ni ham soldi. Soqqa ham cho'kdi“, — deb bolalar javob beradilar. „Mashina, cho'kdi, soqqa cho'kdi, koptok esa cho'kmadi“.

Tarbiyachi stol ustiga yana bir boshqa tog'oraga ma'lum miqdorda suv qo'yib, bolalarga koptoklar beradi. Bolalar koptoklarni suvda cho'ktirishga urinadilar. Ular koptoklarning cho'kmasligiga ishonch hosil qiladilar.

9- *mashg'ulot.*

Mavzu: „Nima keldi va nima ketdi?“ ta'limiy mashqi, Abdurahmon Akbarning „Erta tongda“ ovutmachog'ini aytish.

Maqsad: parrandalar nomini atab, ularni bir-biridan ajrata olishga o'rgatish. Sodda savollarga javob berishga o'rgatish, parrandalar tovushlariga taqlid qilishga undash, taqlid so'zlarni eslab qolishga o'rgatish.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi flanelegrafda rasmlar namoyish etadi, bolalar bilan ularning mazmuni haqida suhbatlashadi.

„Quyosh chiqди“ deb rasm ko'rsatadi, „o'rdaklar uyg'ondi“, — deb ikkinchi rasmni namoyish etadi. „Ular uyg'onishgach „g'a-g'a-g'a“ deb qichqira boshladilar“.

„O'rdaklar nima deb qichqirdilar?“ (*Bolalarning javoblari*).

Tarbiyachi bolalar yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun bu jumlalarni bir necha bor takrorlaydi.

„Nima chiqdi? („Quyosh“), nimalar uyg‘ondi? („O‘rdaklar“) va „g‘a-g‘a-g‘a“ deb qichqirdilar.

G‘ozlar ham uyg‘ondilar (*yangi rasm*). Ular hovuzda suzish uchun „g‘o-g‘o-g‘o“ lashib ketmoqdalar. G‘ozlar qanday qichqiradilar? Ular qayerga ketayaptilar?

Quyosh chiqdi, kurka uyg‘ondi. Bu kurka qanday katta-ya (*rasm ko‘rsatadi*), kurka hovlida yurib „*qlu-qlu-qlu*“, deb o‘zi bilan o‘zi gaplashadi. Kurka o‘zi bilan o‘zi qanday gaplashadi?

Tovuqlar ham uyg‘onishdi, „*qo-qo-qo*“ deb qo‘sishq aytishdi. Nimalar uyg‘onishdi? Siz tovuqlar uyg‘onganini qanday bilingiz?“

„Erta tongda“ ovutmachog‘i bir necha marta takrorlanadi.

(*Birinchi guruhcha bolalari bilan mashg‘ulot shu yerda tugatiladi, ikkinchi guruhcha bilan davom ettiriladi*).

Tarbiyachi: „Nima keldi, nima ketdi?“ ta’limiy mashqini o‘tkazadi.

Tarbiyachi: „Quyosh chiqdi. Quyosh chiqishi bilan hovliga bir qizaloq chiqdi. Bu, mana (*rasm ko‘rsatadi*). Qizaloq parrandalarga don berish uchun chiqdi. Uning oldiga birinchi bo‘lib („o‘rdak“), keyin („g‘oz“), keyin („kurka“), keyin („tovuqlar“) chopib kelishdi. Hammasi donni tezda yeb bo‘lishdi. Birinchi bo‘lib kurka („*qlu-qlu-qlu*“) deb, keyin g‘oz („g‘o-g‘o-g‘o“) deb, so‘ngra tovuqlar („*qo-qo-qo*“) deb rahmat aytishib ketishdi.

(*Tarbiyachi har bir parrandani gapirib, rasmini ketma-ket olib qo‘yadi*).

So‘ngra bir bolani chaqirib, unga xohlagan rasmni olishini aytib, undan rasmdagi jonivor haqida so‘zlab berishini so‘raydi. („O‘rdaklar donni yeb bo‘lishdi va ketishdi“). O‘yin bir necha marta takrorlanadi.

Mashg‘ulot so‘ngida tarbiyachi ovutmachoqni yana 2—3 marta aytadi.

10- *mashg‘ulot*.

Mavzu: „Ikki echki“ ertagini so‘zlab berish. „Ular nima qilyapti?“ ta’limiy mashqi.

Maqsad: bolalarni ertakni sahnalashtirish orqali ko‘rgazmasiz tinglashga o‘rgatish, ertakni yana eshitish xohishini uyg‘otish, ta’limiy mashq orqali fe‘l turkumiga mos ot turkumidagi so‘zlarni tanlash qobiliyatini shakllantirish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi ertakni ertak qahramonlari tasvirlangan figuralar ishtirokida stol qo‘g‘irchoq teatrini ko‘rsatib so‘zlab beradi.

Ikkinchi marta ertakni ko'rinishsiz aytib beradi.

Tarbiyachi bolalarga quyosh, tovuq, xo'roz, mushuk, sichqon, it rasmlarini ko'rsatadi. Bolalardan: „Nima cho'qiydi, nima g'ajiydi?..“, — deb so'raydi. Tarbiyachi bolalarini xo'roz, tovuqlarning don cho'qishini ko'rsatib berishga undaydi. Bolalarga savollar beradi: „Nimaning tumshug'i bor?“, „Nimaning tishlari o'tkir?“ va hokazo.

Tarbiyachi bolalarni o'yinchoq echki ishtirokidagi „Ertak, ertak“ o'yinini o'ynashga taklif etadi.

11- mashg'ulot.

Mavzu: sabzavotlarning nomini atash va bilish.

Maqsad: bolalarni sabzavotlar nomini atashga, ularni bilishga va sodda jumlalarni qaytarishga o'rgatish. Sabzavotlarni bir-biridan farqlay bilishga, ularning qaysi birlari xomligicha, qaysilari pishirilib yejilishini bilishga o'rgatish.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi stoli ustidagi savatda har xil sabzavotlar borligini, sabzavotlarni bittadan olib ko'rsatishini, bolalarning ularni bilish-bilmasliklarini tekshirib ko'rishini aytadi. Sabzavotlarni bitta-bitta olib, bolalardan ularning nomini so'raydi. Bolalar sabzavotlar nomini aytib bergenlaridan so'ng ularni o'z joyiga soladi.

Tarbiyachi: (*qo'g'irchoqni ko'rsatib*) „Lolaxon sabzavotlardan sho'rva pishirmoqchi, u qozonni oldi, ichiga suv quyib, gaz plitasi ustiga qo'ydi. Lolaxonga qozonga solish uchun sabzi, piyoz, kartoshka va karam kerak. Lolaxon, senga nimani olib beraylik? Kartoshka kerakmi? („Kartoshka kerak“). Bolalar, Lolaxonga kim kartoshkani olib beradi?“

(*Tarbiyachi sabzavotlarni olish qulay bo'lishi uchun savatni bolalar kursisiga qo'yadi*). „Rustam, savatdan kartoshkani topib, olib kel, qo'lingdagi nima? Baxtiyor, Rustam nima olib keldi? („Kartoshka“). Rustam, kartoshkani Lolaxonga ber. „Men senga kartoshka olib keldim“, deb ayt.

Sho'rva shirin bo'lishi uchun unga piyoz ham solish kerak. Piyozni savat ichidan kim topadi? Halima, savatdan piyozni olib kel. Bu nima? („Piyoz“), Halima, Lolaxonga men piyoz olib keldim, deb ayt. Endi sabzini kim olib keladi? Baxtiyor, sabzini olib kelib, Lolaxonga: „Katta zarg'aldoq rang sabzi“, deb ayt. (*Boshqa sabzavotlarni „sho'rva“ ga solish shu tarzda davom etadi*).

Lolaxonga murojaat qilayotganlarida foydalaniladigan jumlalar sodda (*Lolaxon, mana piyoz, men karam olib keldim*) va murakkab (*sho'rva shirin bo'lishi uchun unga piyoz solish kerak*) bo'lishi lozim.

Tarbiyachi bolalarni qo'g'irchoq Lolaxon bilan qanday muloqot qilishlarini avvaldan rejalashtirib, jumlalarni tuzib, yozib qo'ygan bo'lishi kerak. Jumlalar bolalarga tushunarli bo'lmasa, mashg'ulot samara bermaydi.

12- *mashg'ulot.*

Marzu: sabzavotlarning nomini atash va bilish (*davomi*).

Maqsad: bolalarni rasmda va naturada sabzavotlarni bilishga, ularning nomlarini atashga o'rgatishni davom ettirish. Tarbiyachi topshirig'ini tushunish va to'g'ri bajarishga o'rgatish. Bolalar nutqida „*ko'p*“ so'zini faollashtirish.

Mashg'ulotning borishi.

Bolalar oldidagi patnisiga sabzavotlar terib qo'yilgan. Tarbiyachi bir sabzini olib, bolalarga ko'rsatadi. Uning nomini aytmasdan, „mening qo'limdagi sabzavotni rasmdan topping“, — deydi. Bir bola bu topshiriqni bajaradi. Tarbiyachi topshiriqni to'g'ri yoki noto'g'ri bajarilganligini aytadi. So'ngra ikkita bolani chaqiradi, ular ham tarbiyachi ko'rsatgan sabzavot rasmini topadilar. Qolgan bolalar topshiriqlarning qanday bajarilayotganligini kuzatib turadilar.

Tarbiyachi: „Bolalar, qaranglar, Salim, Karim va Nasiba sabzavotlarni to'g'ri topishdi, Malika esa yanglishdi. U patnisdan piyozni oldi. Malika, piyozni qo'yib, sabzini top. To'g'ri. Menda, Malikada, Salim va Karimda bittadan sabzi. Hammasi birgalikda „*ko'p*“ deyiladi. (*Bolalar „*ko'p*“ so'zini bir necha marta qaytaradilar. Kichik yoshdagи bolalar uchun mashg'ulot shu yerda tugaydi.*)

Tarbiyachi rasmlar ko'rsatadi. Bolalar rasmlardagi sabzavotlarni patnisdan topadilar.

Bolalar stol atrofida o'tiradilar. Tarbiyachi har bir bolaga „sabzavotlar“ to'plami tasvirlangan kartochka beradi. Tarbiyachi bolalarga kartochkani ko'rsatadi, ular bu namuna kartochkaga qarab, o'zlaridagi o'xhash kartochkani topadilar.

Topgan kartochkalarini ustiga barmoqlarini qo'yib ko'rsatadilar, chunki ularning kartochkalarni stol ustidan tezda ajratib olishlari qiyin.

13- mashg‘ulot.

Mavzu: shoir Abdurahmon Akbarning „Alla“ ovutmachog‘ini aytib berish.

Maqsad: bolalarga ovutmachoq ma’nosini tushunishga, ovutmachoqdagi hayvonlar nomi, ular haqida nimalar deyilayotganini eslab qolishga yordam berish; umumlashtirish qobiliyatini shakllantirish, ovutmachoqni yana eshitishga qiziqish uyg‘otish, ona va bola hayvonlarni bir-biridan farqlashga o‘rgatish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi ona va beshikchadagi bola, sigir buzog‘i bilan, echki ulog‘i bilan, ot toychog‘i bilan tasvirlangan rasmlarni flanelegrafda ko‘rsatib, bolalardan nimalar tasvirlanganini so‘raydi. Ovutmachoqdagi so‘zlarni aytib, javob topishda bolalarga yordam beradi. Bolalardan bola yotgan beshikcha va boshqa rasmlarni ko‘rsatishni so‘raydi. Ovutmachoqni 3 marta aytib, takrorlaydi (*rasmni ko‘rsatib*). (*Kichik yoshdagi bolalar uchun mashg‘ulot shu yerda tugaydi. Ovutmachoq katta yoshdagi bolalarga takroran aytib beriladi*). Tarbiyachi navbatma-navbat bolalardan rasmda nimalar tasvirlanganini so‘raydi.

Tarbiyachi: „Hozir men sizlarga rasmlar tarqataman. Siz ularga qarab nimalar suzib, chopib ketganini aytинг“. Bolalar: „O‘rdak va g‘ozlar suzib ketishdi“, — deb o‘rdak va g‘ozlar rasmi chizilgan kartochkani, „buzoqcha, qo‘zichoq, uлоqcha chopib ketishdi“, — deb shu uy hayvonlari tasvirlangan kartochkani tarbiyachiga beradilar.

Tarbiyachi bolalarga o‘rdak va g‘oz o‘yinchoqlarini beradi. Ularning suzishlarini kuzatishni taklif etadi. Bolalar o‘yinchoqlarni tog‘oradagi suvgva tushiradilar.

14- mashg‘ulot.

Mavzu: „Alla“ va „Suvjon“ ovutmachoqlarini takrorlash.

Maqsad: bolalarda tanish bo‘lgan ovutmachoqlarni tinglash orqali xursandchilik hislarini, tarbiyachi bilan birgalikda ularni qaytarish istagini uyg‘otish, ovutmachoqlarni ifodali aytishga o‘rgatish. Bolalarning yuvinish xonasidagi jihozlar va ularning ishlatalishi haqidagi tasavvurlarini aniqlash.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi rasmlarsiz „Alla“ ovutmachog‘ini aytib beradi. So‘ngra bolalarga uni birgalikda aytishni taklif qiladi. Tarbiyachi ovutmachoqni shoshmasdan, asta-sekin, ifodali aytib beradi. (*Bolalar kerakli so‘zlarni qo‘sib turadilar*). So‘ngra rasmlar namoyish etiladi, bolalar mustaqil ravishda ularning mazmunini so‘zlab beradilar.

Tarbiyachi rasmlarni olib qo‘yib, stol ustiga o‘yinchoq beshikchani qo‘yadi. Beshikchada qo‘g‘irchoq bola yotibdi, yonida o‘yinchoq chovgum.

Qo‘g‘irchoq uyg‘onadi va o‘rnidan turadi. Tarbiyachi „Suvjon“ ovutmachog‘ini qo‘g‘irchoqni yuvintirib aytadi. Bolalar ovutmachoqni tarbiyachi bilan birga aytishga harakat qiladilar. So‘ngra hamma birgalikda ovutmachoqni aytadi. Tarbiyachi bolalarni chaqirib, ovutmachoqni bittadan mustaqil aytib berishni so‘raydi. Bola ovutmachoqqa o‘zining ismini qo‘sib aytadi. Shundan so‘ng bolalar yuvinishga taklif etiladi, ular yuvinish xonasiga boradilar. Yuvinish xonasidagi jihozlarning nomlari va ishlatalishini aytadilar (*tarbiyachi yordamida jo‘mrakdan suv oqishini, sochiq bilan artinishni*). Bolalar o‘z sochiqlarini topadilar, ularning „oppoq“, „yumshoq“, „toza“ ekanligiga ahamiyat beradilar.

15- mashg‘ulot.

Mavzu: o‘yinchoq avtoulov, avtobus, tramvaylarni kuzatish.

Maqsad: bolalarni yuk va yengil avtoulov, avtobus hamda tramvayni tashqi ko‘rinishlariga qarab bir-biridan ajratishga, ularning nomlari hamda asosiy qismlari (*kabina, rul, kuzov, g‘ildirak, oyna*) nomlarini atashga o‘rgatish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachining stolida o‘yinchoq yengil va yuk avtomashinalari, avtobus hamda tramvay turibdi. Tarbiyachi qo‘ng‘iroq qilib taksi chaqiradi: „Karim, sen bugun haydovchi bo‘lasan, yengil mashina — taksiga o‘tirib meni olib ketgani kel“. Bola yanglishib, boshqa mashinani olsa, tarbiyachi yordamga ikkinchi bolani chaqiradi. Mavzuni davom ettirib, bolalardan qanday mashinada kelishganini so‘raydi. (*Bolalar birgalikda va yakka holda javob beradilar*). Tarbiyachi bolalardan stol ustida turgan avtoulovlarning nomlarini aytishni so‘raydi. „Hozir ulardan biri jo‘nab ketadi. Ko‘zlarining yuming,

endi oching-chi, qaysi avtoulov yo‘q?“ („Yuk mashinası“). Mashina buzilib qolmaganmikan, deb ko‘rishni taklif etadi. Bolalar topshiriqni bajarib, „kuzov“, „cabina“, „rul“, „g‘ildirak“ kabi avtomobil qismlari nomlarini aytadi. Tarbiyachi tramvay va avtobusni ham yo‘lga chiqaradi va bolalarga rasmlar ko‘rishni taklif etadi. Bolalar ularda nimalar tasvirlanganini gapirib beradilar. (*Bu rasmlarda yengil va yuk avtomashinalari, avtobus, tramvay, ular ichida odamlar yoki hayvonlar tasvirlangan bo‘lishi mumkin. Katta hajmdagi tasvirlar qiziqarli va yorqin ranglarga boy bo‘lishi lozim*).

Mashg‘ulot o‘yin bilan yakunlanadi.

Tarbiyachi stullardan avtobus yasaydi. Oldinda haydovchi o‘tiradi. Avtobusni o‘z pattachisi bo‘ladi, bolalar tarbiyachi bilan avtobusda sayrga chiqadilar. Sayrda shunday kuylaydilar:

*Shamoldan tez
olg‘a yelar
avtobusimiz.

Tog‘lar tomon,
bog‘lar tomon
ketayapmiz biz.*

16- mashg‘ulot.

Mavzu: „I“ va „a“ tovushlarining talaffuzi. Xo‘tikcha tovushini talaffuz qilish mashqi.

Maqsad: Bolalarni „i“ va „a“ tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish, ular nutqida uzun va qisqa so‘zlarni faollashtirish, odamlarning kuz faslidagi faoliyati haqidagi tasavvurlarini aniqlash.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi bolalarga o‘yinchoq ot ni ko‘rsatadi. Ot „i-i-i“ deb kishnaydi, deb tushuntiradi. So‘ngra bolalar bilan „Quvnoq ot“ o‘yinini o‘ynaydi. Bir bolani chaqirib, unga ot bo‘lishni taklif etadi. Uni kalit bilan „buraydi“. Ot — bola „i-i-i“ deb kishnaydi. So‘ngra boshqa bolalar ham o‘ynaydilar.

Shu payt qo‘g‘irchoq Lolaxon bolalarning oldiga „a-a-a“ deb yig‘lab keladi. Tarbiyachi nega yig‘layotganini so‘raydi. U tishi og‘riyotganini aytadi. Tarbiyachi uning tishini davolab qo‘yadi. U

qo‘g‘irchoqni uxlatishga harakat qiladi, bolalardan „a-a-a“ deb ovutib turishni so‘raydi.

Tarbiyachi bolalarga xo‘tikcha (*o‘yinchoq yoki rasm*)ni ko‘rsatadi. „Bolalar, bu xo‘tikcha. Qaranglar, uning quloqlari qanday uzun. Quлоqlari qanday ekan? deb so‘raydi. (*Bolalar birgalikda va yakka holda javob beradilar*). Tarbiyachi bolalarga o‘yinchoq xo‘tikchani silashni, quloqlaridan ushlab ko‘rishni taklif qiladi. Xo‘tikcha ovqat yegisi kelganda „ia-ia-ia“, deyishini aytadi. Bolalar „ia-ia-ia“ deb qaytaradilar. Tarbiyachi bolalarning tovushlarni baland va cho‘zib, bir nafasda talaffuz qilishlariga e’tibor qaratadi.

17- *mashg‘ulot.*

Mavzu: shoir Habib Rahmatning „Oyijonim“ she’rini aytib berish.

Maqsad: bolalarni she’rni yodda saqlab qolishga, tarbiyachi bilan birga aytishga o‘rgatish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi bolalarga sigir — buzog‘i, qo‘y — qo‘zichog‘i, echki — ulog‘i, tovuq — jo‘jası bilan chizilgan rasmlarni flanelegrafda ko‘rsatadi va qaysi biri onasi, qaysi biri bolasi ekanligini tushuntiradi. Bolalar ularni ko‘rsatib „bola“ hayvonlar o‘z onalarini yaxshi ko‘rishlarini, katta bo‘lganlaricha ular oldida bo‘lishlarini, ularni juda yaxshi ko‘rishlarini gapirib beradilar. Tarbiyachi: „Bizlarning ham oyijonlarimiz bor, ular bizni yaxshi ko‘rishadi, bizga g‘amxo‘rlik qilishadi“, — deb „Oyijonim“ she’rini 2—3 marta aytib beradi.

Tarbiyachi bolalar bilan „Onasini top“ ta‘limiy o‘yinini o‘ynaydi.

U hayvon bolalari o‘yinchoqlarini bolalarga ko‘rsatib, onalarini topishni taklif etadi.

18- *mashg‘ulot.*

Mavzu: „M“, „o“ tovushlarini talaffuz qilish mashqi. Abdurahmon Akbarning „Mushukcham“ she’rini o‘qib berish.

Maqsad: bolalarga „m“, „o“ tovushlarini to‘g‘ri va aniq talaffuz qilishni o‘rgatish, avval o‘tilgan „u“ tovushini talaffuz qilishni mustahkamlash. *Shox, suzadi, o‘tkir, tirnoq, mo‘raydi, miyovlaydi* so‘zlarini bolalar nutqida faollashtirish.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi uy hayvonlari o'yinchoqlarini bolalarga namoyish qiladi. Sigirni ko'rsatib: „Bu nima?“ — deb so'raydi. Bolalar javoblarini eshitgandan so'ng: „Sigir sut beradi, u „mo'o'-mo'o“ deb mo'raydi“, — deydi, so'zida davom etib, „Qani, bolalar, aytinlar-chi, u qanday mo'raydi?“ — deb so'raydi. (*Bolalar birgalikda va yakka holda javob beradilar*). Tarbiyachi echkini ko'rsatadi. „Bu nima?“, („Bu echki“), u ham sut beradi. Echki „mee-mee-mee“ deb ma'raydi. „Echki qanday ma'raydi?“ Mana, mushukcha ham keldi. Uning oti „Qoramosh“. Qaranglar, u qanday chiroyli. U sutni yaxshi ko'radi. Ovqat yegisi kelganda „miyov-miyov“, deb miyovlaydi. Bolalar, mushukchaning oti nima ekan? („Qoramosh“). Mushukcha qanday miyovlaydi? („Miyov-miyov-miyov“). Tarbiyachi „Mushukcham“ she'rini 2—3 marta aytib beradi.

*Qorni ochsa mushukcham
„Miyov-miyov“ der.
Sutin ichar shoshilmay,
Nonin to'kmay yer.*

(*Mashg'ulot kichik yoshdagи bolalar bilan nihoyasiga yetib, katta yoshdagи bolalar bilan davom ettiriladi*). Tarbiyachi sigir, echki, mushuk rasmlarini bolalarga ko'rsatadi. Hayvonlar nomini aytib, ularning qanday ovoz chiqarishlarini, hayvonlardan qaysilarining shoxi borligini rasmdan ko'rsatishlarini so'raydi. Bolalar sigir va echki shoxlarini ko'rsatishadi. „Sigir va echki shoxi bilan suzadi. Mushuk suzishni bilmaydi. Uning shoxi yo'q. Agar mushukni xafa qilsangiz, u yumdalaydi. U nima qiladi? („Yumdalaydi“). Mushukning o'tkir tirnoqlari bor, u tirnoqlari bilan yumdalaydi. Mushukchaning ham o'tkir tirnoqlari bor, u ham yumdalaydi. Ular juda o'tkir“.

19- mashg'ulot.

Mavzu: xona o'simliklari bilan tanishish.

Maqsad: bolalarga o'simliklar, ular qismlari nomlarini to'g'ri atashga, eslab qolishga yordam berish, *katta, kichkina, kalta, uzun, ingichka* barglarni ajratish va atashga o'rgatish. Bolalarga o'simliklarning

o'sishi, suv ichishi, ularni avaylab, asrash lozimligi haqida tushuncha berish. Bolalarda tabiatga, o'simliklarga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachining stoli ustida fikus, xitoy o'ti (*xitoy o'ti bo'lmasa asparagusni olish mumkin*) kabi xona o'simliklari turibdi. Tarbiyachi bolalarni o'simliklar yoniga taklif etadi va ularni ko'rsatadi. Fikus o'simligini ko'rsatib: „Bu kichik daraxtga o'xshaydi. Uning barglari katta, ular ko'p emas, poyasi ham bor. Xitoy o'ti o'simligi o'tga o'xshaydi, uning poyasi yo'q. Barglari ko'p, uzun va ingichka“, — deydi. Tarbiyachi bir nechta boladan (*bittadan*) fikus va xitoy o'ti o'simligini ko'rsatishni, ularning barglari va qismlari nomlarini qaytarib aytishini so'raydi.

O'simliklar parvarishga muhtoj ekanligini, ularni o'z vaqtida sug'orish kerakligini tushuntiradi. Fikus yaxshi parvarish qilinsa, o'z vaqtida suv quyib turilsa, katta daraxt bo'l shini ta'kidlaydi. Tarbiyachi fikus va xitoy o'ti o'simligini sug'orib ko'rsatadi. O'simliklar ildizlari bilan suv ichishlarini tushuntiradi. (*Iloji bo'lsa biror xona o'simligi ildizi ko'rsatiladi*). Tarbiyachi o'simliklarga yana bir marta suv quyib bolalarga ko'rsatadi, ehtiyyotkorlik bilan ularning barglarini artadi. U artar ekan, barglarni sindirib yubormaslik kerakligini uqtiradi. Artib bo'lgandan so'ng bolalar diqqatini ular toza bo'lganiga qaratadi.

20- mashg'ulot.

Mavzu: shoir Anvar Obidjonning „Taqqoslash“ she'rini aytib berish.

Magsad: bolalarga she'r mazmunini tushunishga yordam berish, uni eshitish xohishini uyg'otish. She'rda qo'llangan so'zlarni aniq, ravon talaffuz qilishga o'rgatish. Bolalar tasavvurini rivojlantirish, „v“ tovushini to'g'ri va aniq talaffuz qilishga o'rgatish.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi bolalarga itning rasmi yoki o'yinchoq itni ko'rsatadi, nomini so'raydi. Itning jahli chiqsa, qorni ochsa „vov-vov“ deb vovillashini tushuntiradi. Bolalardan shu taqlid tovushni qaytarishlarini so'raydi.

O‘yinchoqni ko‘rsatib, she’rni asta-sekin aytadi. Aytib bo‘lgandan so‘ng, bolalarga it bilan ehtiyoj bo‘lib o‘ynash, jahlini chiqarmaslik lozimligini tushuntiradi. She’rni yana bir marta o‘qib beradi.

(*Kichik yoshdagি bolalar bilan mashg‘ulot tugatilib, katta yoshdagи bolalar bilan davom ettiriladi*).

Tarbiyachi stolining ustida o‘yinchoqlar solingan quti turibdi, u qutidan bittadan o‘yinchoq oladi. Bolalardan ko‘rsatilgan o‘yinchoq hayvonlarning tovushlarini aytib berishlarini so‘raydi.

21- *mashg‘ulot.*

Mavzu: „Taqqoslash“ she’rini takrorlash. Nutq tovush madaniyatini tarbiyalash. („I“ tovushi).

Magsad: she’rni qayta eshitish jarayonida bolalarda xursandchilik kayfiyatlarini uyg‘otish, she’rdagi so‘zlarni aniq talaffuz qilishga o‘rgatish, „I“ tovushini to‘g‘ri talaffuz qilishni shakllantirish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi bolalarga tanish o‘yinchoqni ko‘rsatadi va qanday tovush chiqarishini so‘raydi. She’rni bir marta aytib beradi, aytib bo‘lgandan so‘ng bolalarni o‘zi bilan yana aytishga taklif qiladi. Tarbiyachi: „Bolalar, uyingizda itingiz bormi? Uni qanday ataysiz? U nimani g‘ajishni yaxshi ko‘radi? („Suyakni“). Kelinglar, biz ham itimizga nom beramiz. Uning nomini *Olapar* deb qo‘yamiz. U qachon vovillaydi? („Jahli chiqqanda, o‘ynaganda“).

Tarbiyachi bolalar bilan birgalikda she’rni bir necha marta takrorlaydi.

22- *mashg‘ulot.*

Mavzu: qo‘g‘irchoq Lolaxonning kiyim-kechaklari bilan tanishish. Qo‘g‘irchoqni sayrga kiyintirish. „Nima yetishmaydi?“ ta’limiy o‘yini.

Magsad: bolalarni kiyim, ularning vazifalari haqidagi tasavvurlarini aniqlash, sayrga tayyorlanishda kiyinish ketma-ketligini eslab qolishga o‘rgatish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi: „Bolalar, hammangiz qo‘g‘irchoq Lolaxonni taniysiz-a? Uni yana bir bor sizlar bilan tanishtiraman. Bu qo‘g‘irchoq Lolaxon.

U juda odobli qiz. U hozir sayrga, o'ynagani chiqmoqchi, lekin nimalarni qanday kiyishni bilmaydi. Kelinglar, bolalar, hammamiz birgalikda uni kiyintirib, sayrga tayyorlaymiz“.

Stol ustida Lolaxonning kiyimlari solingen quticha turibdi. Tarbiyachi qutichadan paltoni oladi. Bolalar uning nomini aytishadi, qismlari nomini aytishga harakat qiladilar. (*Paltoning yoqasi, yengi, tugmalari*). (*Bolalar mustaqil javob beradilar yoki tarbiyachi ketidan qaytaradilar*). Paltoning rangini ham aytadilar. Palto stol ustida turgan o'yinchoq javondagi ilgichga ilib qo'yiladi. Bolalardan biri qutichadan kiyim oladi va uning nomini Lolaxonga aytib beradi (*tarbiyachi ketidan qaytaradi*). „Ma, Lolaxon, qalpoq, qalpoqni boshga kiyadilar“. Boshqa bolalar navbat bilan kamzulcha, ishtonchani oladilar. Lolaxonni kiyintirishib sayrga tayyorlaydilar. „Birinchi paltoni kiyaman“, deydi qo'g'irchoq Lolaxon. „Yo'q, yo'q“, deb e'tiroz bildiradi tarbiyachi: „Paltoni kiyib olsang, kamzulchani keyin qanday qilib kiyasan?“

Tarbiyachi Lolaxonni ketma-ketlik tartibida kiyintiradi. Avval ishtoncha so'ng botinka, kamzulcha, qalpoq va palto kiydiriladi. Bolalar tarbiyachiga qo'g'irchoq qaysi kiyimdan keyin qaysi kiyimni kiyishi haqida aytib turadilar. Tarbiyachi: „Endi, Lolaxon, ikkimiz bolalarning sayrga chiqishlari uchun kiyinishlarini birgalikda kuzatamiz“, deb bolalar va qo'g'irchoq Lolaxon bilan kiyinish xonasiga chiqadilar. Ba'zi bolalarga kiyinishdagi ketma-ketlikni aytib turadilar.

23- mashg'ulot.

Mavzu: „Qo'g'irchoq Lolaxonni sayrdan keyin yechinishga o'rgatamiz“ ta'limiy o'yini. „Avtomobil“ ta'limiy mashqi.

Maqsad: bolalarni kiyimlarni yechish, ularni tartib bilan taxlash va ilgichga ilishga o'rgatish. Bolalarni o'z nutqlarida kiyimlar va ularning qismlari, harakat nomlarini anglatadigan so'zlarni qo'llashga undash, „b“ tovushini aniq hamda to'g'ri, alohida taqlid tovushlarni baland va sekin talaffuz qilishga o'rgatish.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachining stoli ustiga o'yinchoq javon va kichik o'yinchoq stulcha qo'yilgan. Tarbiyachi: „Qo'g'irchoq Lolaxon sayr qilib, o'ynab keldi“, — deb kiyintirilgan qo'g'irchoqni bolalarga ko'rsatadi.

„Bolalar, hozir biz uni kiyimlarini yechishga o'rgatamiz. Qo'g'irchoq Lolaxon: „Men o'zim yechinishni juda yaxshi bilaman, mana yechinayapman“, — deb botinkasini yecha boshlaydi. Tarbiyachi: „Bolalar, aytinlar-chi, Lolaxon yechinishni to'g'ri boshladimi? To'xta, Lolaxon, birinchi bo'lib biz botinkani emas, paltoni yechamiz! Bolalar, avval nimani yechamiz, qani, Lolaxonga aytinlar-chi“ („Paltoni yechamiz“). Bolalar „Lolaxon, avval palto yechiladi“ jumlasini tarbiyachining ketidan to'liq qaytaradilar. Tarbiyachi ustidan paltosini yechadi va uni ilib qo'yish uchun Lolaxonga yordam beradi. Paltoni kiyim javoniga ilib, „Lolaxon paltoni ilib qo'ydi“, — deydi. Bolalar uning ketidan jumlani qaytaradilar. Qo'g'irchoq tilidan: „Endi qaysi kiyimimni yechishim kerak, kim menga aytadi?“ — deb bolalarning biridan so'raydi. Bola: „Endi qalpog'ingni yechib, javonga qo'y“, — deb maslahat beradi. (3—4 marta takrorlanadi). So'ngra Lolaxon kamzulchasini yechib uni ham ilgichga ilib qo'yadi. Ishtonchasini yechib stulchada unutib qoldiradi. Bolalar: „Lolaxon, sen ishtonchangni javonga qo'ymading, orqangga qayt“, — deb chaqirishadi. (*Birgalikda yoki 2—3 bola yakka holda*). Lolaxon orqasiga qaytib, ishtonchasini javonga qo'yadi.

Tarbiyachi o'yinchoq avtomashina bilan bolalar oldiga keladi. „Bolalar, mening qo'limda nima bor?“ („Mashina“). To'g'ri, avtomashina. Uning qanday tovush berishini bilasizlarmi?“ Bolalar „bip-bip“ deb javob beradilar. „Avval hammamiz birligida, so'ng navbat bilan „bip-bip“ deb tovush chiqaramiz. Bu katta mashina, katta mashinalar baland ovozda tovush chiqaradilar. Qani, hammamiz yana bir marta katta mashina bo'lib tovush chiqaramiz“. Shundan so'ng tarbiyachi bolalarga kichik avtomashinani ko'rsatadi va yengil avtomashina past ovozda tovush (signal) berishini aytadi. Bolalarga sekin, past ovozda „bip-bip“ deb tovush chiqarishni taklif etadi. Bolalar qaytaradilar.

Tarbiyachi bolalarga barabanni ko'rsatadi. Baraban „bum-bum“ lab ashula aytadi, deb uni urib ko'rsatadi. „Bolalar, baraban qanday ashula aytadi?“

Tarbiyachi bolalarning tovushlarni aniq va to'g'ri talaffuz qilishlariga erishmog'i lozim.

24- mashg‘ulot.

Mavzu: „Lolaxon sayrga chiqdi“ rasmi bilan tanishish.

Maqsad: bolalarni rasmni ko‘rib fikr yuritishga, savollarga mazmunli javob berishga o‘rgatish, tarbiyachi ketidan *kuz fasli, issiq kiyim, to‘yib-to‘yib chuqur nafas olish, barglar bilan o‘ynash so‘zлari* va jumlalarini qaytarishga o‘rgatish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi bolalarga „Lolaxon sayrga chiqdi“ rasmini ko‘rsatadi. Unda nimalar tasvirlanganini hikoya qilib beradi. Bolalarning taassurotlarini aniqlaydi va mustahkamlaydi.

Tarbiyachi: „Lolaxon sayrga chiqdi. Havosov uchun shuning uchun u issiq kiyimlar kiyib olgan. Rasmda kuz fasli tasvirlangan. Kuzda hamma issiq kiyim kiyadi. Lolaxon ham ustiga palto, boshiga qalpoqcha kiyib olgan. Lolaxon ustiga nima kiyib olgan? (*Bolalarning birgalikda va yakka holdagi javoblari*). Lolaxon sayrga chiqishdan oldin yana kamzulcha, ko‘ylak, ishtoncha va issiq botinka kiyib oldi. U bir o‘zi sayr qilishdan zerikdi va dugonasi Malikani chaqirdi. Malika ham issiq kiyimlar kiygan. U qanday kiyimlar kiygan? (*Bolalarning javoblari*). Bolalar, qaranglar, daraxt va yerdagi barglar qanday chiroyli. Lolaxon chiroyli barglarni terib oldi. Malika esa terayapti. Barglar qanday? („Chiroyli“). Bolalar his-hayajon bilan bir necha marta „chiroyli barglar“ deb qaytaradilar.

„Lolaxon tergan barglar daraxtdan to‘kilgan. Shamol esib, barglar yerga to‘kildi. Hozir men sizlarga sariq barglarni beraman“ (*yupqa qog‘oz barg qilib qirqilgan*). Bolalar qo‘llaridagi barglar bilan xonada 2—3 marta chiroyli harakatlar bilan aylanadilar. Mashg‘ulot oxirida tarbiyachi yana bir bor rasm mazmunini so‘zlab beradi. Rasm mazmuni:

Kuz keldi. Kunlar sovidi. Lolaxon bilan Malika botinka, ishtoncha, kamzulcha, palto va qalpoqcha kiyishgan. Shamol esdi. Daraxtdagi barglar yerga to‘kildi. Bu barglar juda ham chiroyli. Malika va Lolaxon ulardan dasta tayyorlab onalariga berishmoqchi.

Tarbiyachi bu hikoyani yana bir bor qaytaradi.

25- *mashg'ulot.*

Mavzu: „Sholg‘om“ va „Ikki echki“ ertaklarini takrorlash.

Maqsad: bolalarga tanish bo‘lgan ertaklar mazmunini eslatish. Ertaklardagi ba’zi so‘z va jumlalarni tarbiyachi ketidan qaytarishga xohish uyg‘otish, so‘z boyligini orttirish.

Mashg‘ulotning borishi.

Bolalarning oldiga flanelegrafda sholg‘om, bobo va buvi figuralari qo‘yilgan. „Bobo bilan buvi sholg‘omni tortdilar, tortdilar, tortib chiqara olmadilar“, — deb tarbiyachi figuralarni bir-bir ko‘rsatib, ertakni so‘zlay boshlaydi. Ular („nabirani“) chaqirishdi. U qayerda? Uni hammamiz birgalikda chaqiramiz“. „Nabira, nabira, kel, sholg‘omni tortib chiqarishga yordam ber“, — deb chaqirishadi. Tarbiyachi: „Nabira kelmayaptimi?“ — deb hayron bo‘ladi. „Qani, Salima, sen chaqirib ko‘r-chi, Karim, sen ham chaqirib ko‘r“.

Nabira keladi, tarbiyachi figuralarni ko‘rsatib ertak aytishda davom etadi. „Bobo („sholg‘omni“), buvi („boboni“), nabira („buvini“) (*tarbiyachi figuralarni ko‘rsatadi*) tortishdi, tortishdi, tortib olisholmadi“. Kuchukcha ham yugurib kelib sholg‘omni tortishga yordam berdi, mushuk ham yordamga keldi (*figuralarni qo‘yib, ertakni davom ettiradi*). Mana endi hamma keldi“. Bolalar: „Yo‘q, sichqon kelmadi“, — deb javob beradilar. „Endi sichqonni chaqiramiz. Sichqon, kel, sholg‘omni tortishga yordam ber“. (*Bolalar chaqirishadi*). Tarbiyachi sichqon figurasini qo‘yib ertakni davom ettiradi. Bobo („sholg‘omni“), buvi („boboni“), (*figurasini ko‘rsatadi*), nevara („buvini“), kuchuk („nabirani“), mushuk („kuchukni“), sichqon („mushukni“) tortdilar. Tortdilar va sholg‘omni tortib oldilar.

Tarbiyachi figuralarni olib stol ustiga „Ikki echki“ ertak qahramonlari figuralarini qo‘yadi va ertakni aytib bera boshlaydi. „Ikki („echki“) anhor ustidagi („ko‘prikda“) uchrashib qolishibdi. Ikkisidan biri yo‘l berishi kerak ekan, („yo‘l ber“) debdi biri, („sen yo‘l ber“) debdi ikkinchisi. Seni deb orqamga qaytamanmi debdi („birinchisi“), bo‘lmasa seni deb men orqamga qaytamanmi debdi („ikkinchisi“). Tarbiyachi ertak aytishni shu tariqa davom ettiradi.

26- mashg'ulot.

Mavzu: „M“, „b“, „p“ tovushlarini talaffuz qilish mashqlari. „Biznikiga kim mehmonga keldi, top“ ta'limi o'yini.

Maqsad: „M“, „b“, „p“ tovushlarini aniq talaffuz qilishni shakllantirish, taqlidiy tovushlarni aniq va tushunarli talaffuz qilishga o'rgatish.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi sigir rasmini yoki o'yinchog'ini bolalarga ko'rsatadi va sigir qanday mo'rashini eslashni taklif etadi. Bolalar taqlidiy tovushni talaffuz qiladilar.

Keyin „Echki qanday tovush chiqaradi?“ — deb o'yinchoq echki yoki echki rasmini ko'rsatadi. Bolalar „me-me“ deydilar. Tarbiyachi mushuk bo'lib miyovlashni, sichqon bo'lib chiyillashni taklif etadi, avtomashinaning qanday signal berishini, barabanning qanday ashula aytishini eslab, aytib berishlarini so'raydi.

Mashg'ulotni davom ettirib tarbiyachi nima? („bu mushuk“) u qanday miyovlaydi? („miyov-miyov-miyov“). „Sen ayt-chi, bu nima? („bu sigir“) u qanday mo'raydi? „mo'-mo'-mo““. Bu nima?“ („bu sichqon“) u qanday chiyillaydi? („chi-chi-chi“) deb bolalarga murojaat qiladi, ularning mehmon bo'lib kelganlarini aytib, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishlarini so'raydi.

Tarbiyachi har bir bolaning taqlidiy tovushlarni aniq, ravshan, baland ovozda talaffuz qilishiga erishmog'i lozim.

„Biznikiga kim mehmonga keldi, top“ ta'limi o'yinini o'ynaydi.

Bolalarga taqlidiy tovushlarni tinglab, hayvonlar va predmetlarni topishni taklif etadi. Tarbiyachi: „Mo'o'o“, — deb tovush chiqaradi. „Bolalar, nima shunday mo'raydi?“ Tarbiyachi javobni dastlab hammadan so'ng bitta-bittadan so'raydi. „Malika bizga oldiga nima kelganini aytib beradi, „miyov-miyov“, oldingga nima keldi?“ („Mushuk keldi, mushuk miyovlayapti“). Tarbiyachi bir-ikki bolaning oldiga borib: „Salim, sening oldingga nima keldi?“ „me-me-me“, „Gulnoza, sening orqangga nima bekindi, u „chi-chi-chi“ deb chiyillayapti“, — deydi.

Topgan bolaga tovushga taqlid qilib tovush chiqarishni taklif etadi.

Tarbiyachi ovozining baland-pastligini o'zgartirib „chi-chi-chi“ lab, „Katta sichqon chiyillayaptimi yoki kichkina sichqonmi?“ deb so'raydi.

Tarbiyachi: „*Bip-bip*“, deb ovoz chiqaradi. „Bu nima?“ Taqlid tovushni baland-past ovozda talaffuz qilib, „katta avtomashinami yoki kichik avtomashinami?“ deb so‘raydi.

Tarbiyachi diqqat bilan eshitishga, taqlidiy so‘zlarni aniq va to‘g‘ri talaffuz qilishga, ovoz chiqarishining baland yoki pastligiga qarab, hayvonlarning onasi yoki bolasi ekanligini, predmetlarning hajmini aniqlashga bolalarni o‘rgatishi, shunga erishishi lozim.

27- *mashg‘ulot.*

Mavzu: „Top va nomini ayt“ ta’limiy o‘yini.

Maqsad: bolalarni predmetlarning ishlatalishi bilan tanishtirish, xususiyatlarini aytib berishga o‘rgatish, bolalar so‘z bo‘yligini predmetlar nomi va sifatiga taalluqli so‘zlar bilan boyitish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi stoli ustida quticha turibdi. Tarbiyachi bolalardan birini oldiga chaqirib, quticha ichidan biron narsani olishni taklif etadi. „Nasiba, qutichadan biror narsani olib, bolalarga ko‘rsat. Sen nimani olding?“ „Mening qo‘limdagи narsa nima?“ deb bolalardan so‘ra („Dazmol“). „Nasiba, dazmol nima uchun kerak? Dazmol bilan qanday dazmollaydilar?“ (*Uning oldiga dazmol taxtasini qo‘yib ro‘molchani dazmollab berishni taklif etadi. Dazmolning issiqligini tekshirib ko‘rishni so‘raydi*). Dazmolni qo‘yib, stol oldiga boshqa bolani chaqiradi. Qutichada taroq, dastro‘mol, do‘ppi, oyoq kiyim, tish cho‘tkasi va boshqa narsalar bo‘lishi mumkin. Bolalar narsalar nomini atash bilan birga, ular bilan nima qilish mumkinligini aytib, ko‘rsatib beradilar. Do‘ppi boshga kiyiladi, kiyim cho‘tkasi bilan ust kiyim, oyoq kiyim cho‘tkasi bilan botinka, tuflilarini tozalab ko‘rsatadilar.

Tarbiyachi narsalarni stol ustida qoldirib, qutichani olib qo‘yadi. Bir bolani stol oldiga chaqirib: „Tishimizni nima bilan tozalaymiz, ko‘rsatib, nomini ayt“, — deydi.

Tarbiyachi bolalarni stol atrofida o‘tirishga taklif etadi. (*Stolda predmetlarning rasmi chizilgan kartochkalar*). U bolalarga predmet nomini aytib, uni rasmdan topishni, dazmollah mumkin bo‘lgan narsalarni ko‘rsatishni so‘raydi. Bola yanglishsa, rasmni olib qo‘yadi.

Tarbiyachi bolalardan pichoq bilan kesish mumkin bo‘lgan narsalarni ko‘rsatishni so‘raydi. (*Pishlog, non, tarvuz, qovun va boshqalar*).

28- mashg‘ulot.

Mavzu: „K“ va „ch“ tovushlarini talaffuz qilish ta’limiy mashqi.

Maqsad: bolalarni „k“ va „ch“ tovushlarini to‘g‘ri va aniq talaffuz qilishga o‘rgatish, taqlidiy tovushlarni baland va past ovozda talaffuz qilish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi bolalarga kakku rasmini ko‘rsatadi. Qush nomini aytadi va uning „ku-ku‘lashini eshitishni taklif etadi. „Ku-ku, ku-ku“. (*Bolalar tarbiyachi bilan qaytaradilar*).

Tarbiyachi: „Yomg‘ir yog‘ayapti. Avval asta-sekin tomchilay boshladи. (*Bolalar javobi*). Keyin tez-tez yog‘a boshladи: „chak-chak-chak“. Qanday yog‘a boshladи? (*Bolalar javobi*). Yomg‘ir tindi. Quyosh chiqди. Tovuq o‘z jo‘jalarini sayrga olib chiqди. (*O‘yinchoq yoki rasmini ko‘rsatadi*). Tovuq bitta, jo‘jalar esa ko‘p, jo‘jalar kichkina. Tovuq („katta“), tovuqning tumshug‘i bor, jo‘jalarning esa tumshuqchalari. Jo‘jalar sayr qilib yurganlarida mushuk ham sayr qilgani chiqди. Ona tovuq qo‘rqib ketib, jo‘jalariga: „Qo-qo-qo, uzoqqa bormanglar“, — dedi. Ona tovuq o‘z bolalariga nima dedi? (*Bolalarning birgalikda va yakka holdagi javoblari*).

*Qo-qo-qo jo‘jalarim,
Ketib qolmang uzoqqa.
O‘tiribdi baroq mushuk
Tushib qolmang tuzoqqa.*

29- mashg‘ulot.

Mavzu: shoir Abdurahmon Akbarning „Hovlimizda“ hikoyasini o‘qib berish.

Maqsad: bolalarda ona-bola hayvonlarni bir-biridan farqlash ko‘nikmasini mustahkamlash, bolalarni hajman katta bo‘lmagan badiiy asarni (ko‘rgazmasiz) tinglashga o‘rgatish, *og‘ilxona, qo‘ra, katak* va *in so‘zlar* bilan so‘z boyligini orttirish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi hikoyani o‘qiydi. Hikoyani „Jo‘ja o‘z onasini topdi va xursand bo‘ldi“ jumlesi bilan tugatadi. Bolalar ishtirokida hikoyani qaytadan so‘zlaydi: „Bizning hovlimizda anchagina uy hayvonlari bor.

Ular sigir bilan („buzoq“), qo‘y bilan („qo‘zichoq“), tovuq bilan („jo‘jalar“), it bilan mushukdir. Birdan yomg‘ir yog‘di. Hamma hayvonlar — sigir bilan buzoq og‘ilxonaga, qo‘y bilan qo‘zichoq qo‘raga, tovuq bilan jo‘jalar katakka, it esa iniga kirib ketdi. Jo‘jalardan biri ona tovuqdan orqada qolib, o‘tlar orasiga yashirinib oldi va baland ovozda „chi-chi-chi“lay boshladi. Uni eshitib it yugurib keldi. Jo‘ja itni ko‘rib bu mening oyim emas degandek, yana baland ovozda „chi-chi“lay boshladi. Keyin mushuk keldi. Jo‘ja, bu ham mening oyim emas, deb „chi-chi“lashda davom etdi. Bolalar, jo‘janing onasi nima? („Tovuq“).

Ona tovuq jo‘jasining ovozini eshitib, oldiga yugurib keldi va uni katagiga olib ketdi. Jo‘ja o‘z onasini topdi va xursand bo‘ldi“.

Tarbiyachi hikoyani ko‘rgazmadan foydalanib ham aytib beradi.

30- mashg‘ulot.

Mavzu: „Adashma“, „Ta‘miga qarab top“ ta’limiy o‘yinlari.

Maqsad: bolalarda sabzavot va mevalarning tashqi ko‘rinishi va ta‘miga qarab aniqlash ko‘nikmasini mustahkamlash, predmetni tasviri bilan moslashtirishga o‘rgatish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi patnisiga solingenan meva va sabzavotlarni stol ustiga qo‘yadi. 4—5 bolani chaqirib, ulardan bittadan olib, bolalarga ko‘rsatishni, olgan narsasi haqida gapirib berishlarini so‘raydi. („Mening qo‘limda sabzi“, „Mening qo‘limda katta lavlagi“, „Mening qo‘limda kichkina lavlagi“). Bolalar o‘z joylariga qaytadilar, boshqa bolalar ham patnisdan xuddi shunday sabzavot yoki mevalarni olib, nomlarini aytishadi. (*Topshiriqni hamma bolalar bajarishlari kerak*).

So‘ngra „Adashma“ o‘yini o‘ynaladi. Tarbiyachi katta va chiroyli tasvirlangan sabzavot yoki meva rasmini bolalarga ko‘rsatadi va doska tagligiga qo‘yadi. Bir bolani chaqirib, patnisdan rasmda tasvirlangan sabzavotni olib, rasm oldiga qo‘yishni taklif etadi. Bola patnisdan rasmdagi sabzavotni olib, doska tagligiga qo‘yadi va: „Rasmda ham sabzi, yonida ham sabzi“, deb aytadi.

O‘yinda bir necha bola qatnashgandan so‘ng tarbiyachi topshiriqni bir oz murakkablashtiradi, u 2 ta rasmni doska tagligiga qo‘yadi, rasmlarning birida tasvirlangan sabzavot patnisa bo‘lmaydi. Bola: „Rasmda bodring, patnisa esa bodring yo‘q“, deb javob berishi kerak.

Bola adashsa tarbiyachi rasmni olib qo'yadi. So'ngra katta yoshdagi bolalar bilan „Ta'miga qarab top“ o'yini o'ynaladi. Tarbiyachi bunda bir bolani stol oldiga chaqirib, stol ustidagi olma, nok, olxo'ri, sabzi, pomidor, bodringlarni ko'rsatadi va ko'zini ro'molcha bilan bog'laydi, unga pomidorni berib, tatif ko'rishni taklif etadi. (*Bola nima yeyayotganini ko'rmaydi*). Bola pomidorni yeb bo'ladi. Tarbiyachi ro'molchani yechib undan, yeb bo'lgan sabzavotini ko'rsatib berishni va nomini so'raydi. (*O'yin o'ynashni xohlagan bolalar bilan davom ettiriladi*).

31- mashg'ulot.

Mavzu: shoira Agniya Bartoning „Qor“ she'rini o'qib berish. „Qor parchasi qani?“ ta'limiy o'yini.

Maqsad: she'rni tarbiyachi bilan birga aytishga, she'r mazmuniga mos harakatlarni bajarishga, nutqda kelishik qo'shimchalaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatish.

Mashg'ulotning borishi.

Bolalar yarim doira bo'lib tarbiyachi atrofida o'tiradilar. Tarbiyachi she'rni ifodali o'qiydi. So'ngra bolalarga qor parchalariga aylanishni taklif etadi. (*Ularning boshlariga og qalpoqchalar kiydiriladi*). Yana she'rni takror-takror o'qiydi:

*Qor yog'ayapti, yog'ayapti
Hammayoq oppoq.
Aylanib qor parchasiga
O'ynaymiz quvnoq.*

Oxirgi qator aytidayotganida bolalar go'yo qor parchalariga o'xshab aylanadilar. Bolalar aylanayotganlarida bir bola — „qor parchasini“ tarbiyachi berkitib qo'yadi. Tarbiyachi: „Bolalar, qaranglar-chi, bir qor parchasi qayerga uchib tushdi ekan“, — deb so'raydi. („Stol tagiga“). O'yin jarayonida she'r bir necha marta aytiladi.

32- mashg'ulot.

Mavzu: „Parrandalar hovlisi“. O'yin-sahna. Anvar Obidjonning „Taqqoslash“ she'rini takrorlash.

Maqsad: bolalarni hayvon va parrandalarning tashqi qiyofasi va tovushiga qarab ajratishga, ular nomini to'g'ri aytishga o'rgatish,

taqlidiy tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni mustahkamlash. Nutq a’zolarini rivojlantirish, tanish she’rni tinglashga bo‘lgan ishtiyoqni uyg‘otish, „v“ tovushini to‘g‘ri talaffuz qilishni shakllantirish.

Mashg‘ulotning borishi.

(*Tarbiyachi flanelegraf va hayvon figuralaridan foydalanadi*). Tarbiyachi: „Salimjon zerikib hovliga o‘ynagani chiqdi. U g‘ozlar oldiga bordi. G‘ozlar qanday ovoz chiqaradilar? („G‘o-g‘o-g‘o“). G‘ozlar hovuzda suzish uchun ketayaptilar. U o‘rdaklar oldiga bordi. O‘rdaklar qanday ovoz chiqaradilar? („G‘a-g‘a-g‘a“) Ular ham hovuzga suzgani ketishdi. Salimjon hovlida yana nimani ko‘rdi? (*Rasm ko‘rsatadi*). („Kurkani“). U qanday ovoz chiqaradi? (*Qu-gluglu*) Salimjon hovlida aylanib yurib kichkina mushukchani uchratib qoldi, u qanday ovoz chiqaradi? („Miyov-miyov-miyov“). U bilan o‘ynamoqchi bo‘lgan edi, mushukcha qochib ketdi. Shu payt Salimjonning oldiga bir kuchukcha keldi. Bolalar, kuchukchaga nima deb nom qo‘yan edik? („Olapar“). U „vov-vov-vov“ deb ovoz chiqaradi. Bolalar, u qanday ovoz chiqaradi? („Vov-vov“). Kuchukcha Salimjonga: „Men sen bilan o‘ynayman“, dedi. Salimjon juda xursand bo‘ldi“.

Tarbiyachi „Taqqoslash“ she’rini ifodali aytib beradi. Bolalarni she’rni o‘zi bilan birga aytishga undaydi.

33- mashg‘ulot.

Mavzu: „Sharlarni dumalatamiz“ rasmini ko‘rish. „Sharni darvozaga dumalat“ ta‘limiy o‘yini.

Maqsad: bolalarni rasmni ko‘rishga, undan zavq olishga, tarbiyachi savollariga rasm mazmunidan kelib chiqqan holda javob berishga o‘rgatish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi rasmni bolalar e’tiboriga havola etadi (tarbiyachi mashg‘ulot mazmuniga ko‘ra rasm tanlab, flanelegraf yordamida mashg‘ulot o‘tkazadi). Tarbiyachi: „Bolalar nima qilayaptilar? („Shar dumalatayaptilar“). Bolalarda sharlar qancha? („Ko‘p“). Ular qayerda turibdi? („Qutichada“). Qaysi bola shar dumalatayapti? („Qo‘lida qizil shari bor bola“). Sharni kim tutib oladi? („Yo‘l-yo‘l ko‘ylakli bola“).

Bola sharni tutib olishga tayyor turibdi. U qo‘lini qanday ushlab turganini ko‘rsatinglar. Yo‘l-yo‘l ko‘ylakli bola o‘rtog‘iga: „Tezroq dumalat“ deyapti. O‘rtog‘i: „Tutib ol“, — deb sharni sariq darvozachaga yumalatayapti“.

Rasm haqidagi suhbat tarbiyachining ushbu hikoyasi bilan tugaydi. „Bolalar sharni dumalatib o‘ynashga qaror qildilar. O‘rtaga sariq darvozachani qo‘ydilar. Qizil ko‘ylakli bola qo‘lidagi sharni darvozachaga dumalatmoqchi, yo‘l-yo‘l ko‘ylakli bola sharni tutib olish uchun tizzalab o‘tiribdi. Hozir qizil ko‘ylakli bola sharni darvozaga dumalatadi“. (*Rasmidagi yo‘l-yo‘l ko‘ylakli bolani ko‘rsatib*) „tutib ol“, „chaqqon bo‘l“, — deydi tarbiyachi.

Tarbiyachi: „Bolalar, sizlar ham shu bolalarga o‘xshab o‘ynashni xohlaysizmi?“ Tarbiyachi darvozachani qo‘yib beradi. Ikkita bolani o‘ynashga taklif etadi, bolalardan biriga shar beradi. Boladan sharning rangini so‘raydi.

„Sharni menga dumalat“ — deydi birinchi bola, „tutib ol“, deydi ikkinchi bola. Bu dialog o‘yinning asosiy shartidir. Tarbiyachi qolgan bolalarni ham o‘yinga chaqiradi. Mashg‘ulot oxirida tarbiyachi bir nechta darvozachalarni qo‘yib, bolalarni o‘ynashga taklif etadi, o‘yin jarayonida gapirib o‘ynayotgan bolalarni rag‘batlantirib boradi.

34- mashg‘ulot.

Mavzu: „Quyonim“ ovutmachog‘i.

Maqsad: ovutmachoqni eshitish jarayonida bolalarda xursandchilik kayfiyatini, ovutmachoqni yana eshitish xohishini uyg‘otish. Ovutmachoqni birga aytishga harakat qilgan bolalarni rag‘batlantirish. Ovutmachoq mazmuniga mos harakatlarni bajarishga o‘rgatish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi bolalarga o‘yinchoq quyonchani ko‘rsatib, ovutmachoqni harakatlar bilan aytib beradi. Ovutmachoq so‘zlarini aniq, to‘g‘ri, his-hayajon bilan 2—3 marta qaytarib aytadi. Bolalar ham aytishga harakat qiladilar. Bolalar bilan davra quradi. O‘rtada quyon rolini o‘ynaydigan bola. Bolalar birgalikda harakatlar bilan ovutmachoqni aytadilar. O‘rtadagi bola ovutmachoq mazmuniga mos harakatlarni bajaradi. Quyon roli navbat bilan boshqa bolalarga ham berilib, o‘yin 2—3 marta takrorlanadi. Bu o‘yinni mashg‘ulotdan tashqari vaqtarda ham o‘ynash mumkin.

35- mashg‘ulot.

Mavzu: „Bo‘g‘irsoq“ ertagini aytib berish.

Maqsad: bolalarning ertak mazmunini tushunishlariga yordam berish, „Bo‘g‘irsoq“ qo‘sishig‘ini aytishga undash, bolalarda ertakni yana eshitish xohishini uyg‘otish.

Mashg‘ulotdan oldin olib boriladigan ishlar. Tarbiyachi mashg‘ulot o‘tishdan 2 kun oldin bolalarga ertakka oid rasmlarni ko‘rsatadi, bo‘g‘irsoqning qo‘sishig‘i bilan tanishtiradi.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi ertakni flanelegraf yoki o‘yinchoqlardan foydalangan holda bir necha marta aytib beradi.

36- mashg‘ulot.

Mavzu: „Bo‘g‘irsoq“ ertagini takrorlash.

Maqsad: bolalarni ertakni ko‘rgazmasiz tinglashga, uni sahnalashtirishda ishtirot etishga o‘rgatish. Ifodali nutqni shakllantirish.

Mashg‘ulotning borishi.

Ertak ko‘rgazmasiz aytib beriladi. So‘ngra tarbiyachi stoli ustida bo‘g‘irsoq paydo bo‘ladi, u stol ustida dumalab qo‘sishig aytadi. Bolalar qo‘sishig so‘zlarini qaytarishga harakat qiladilar. (*Ularning qo‘sishig so‘zlarini alohida-alohida aytishga harakat qilayotganlari, ba’zilarining qo‘sishqadagi jumlalarni aytayotganlarini hisobga olib, tarbiyachi qo‘sishqni shoshilmasdan, ifodali aytib beradi*).

Ertak sahnalashtiriladi. Bolalarga quyon, ayiq va boshqa hayvonlarni ifodalovchi qalpoqlar kiydiriladi. Tarbiyachining o‘zi bo‘g‘irsoq rolini o‘ynaydi.

37- mashg‘ulot.

Mavzu: „Qo‘g‘irchoq xonasini jihozlaymiz“.

Maqsad: mebel predmetlari va uy jihozlari nomlarini aytishga, ularning bir-biridan farqini, ishlatilishini bilishga o‘rgatish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi qo‘g‘irchoq Lolaxonni bolalarga ko‘rsatadi. Bolalar xursand bo‘ladilar. „Bolalar, Lolaxon xafa bo‘lib, xonam yo‘q, deyapti. Kelinglar, biz uning xonasi uchun joy ajratib, uni jihozlab

beramiz. Mana bu stolning usti Lolaxonning xonasini bo'ladi. Bolalar, aytinglar-chi, xonada nimalar bo'lishi kerak? Biz birinchi galda Lolaxonga karavot qo'yib beramiz“, — deb tarbiyachi stol ustiga yotoq anjomlari bilan karavotni qo'yadi. Bolalardan „Bu nima?“, „Lolaxonga karavot nima uchun kerak?“, — deb so'raydi. Lolaxonga karavotini ko'rsatib, unda yotib dam olishni taklif etadi. Lolaxon yotib, uxbab qoladi. Tarbiyachi: „Lolaxon uyg'onguncha biz uning xonasiga boshqa jihozlarni qo'yamiz“, deydi va xontaxtani qo'yadi. Bolalardan: „Bu nima? Lolaxonga xontaxta nima uchun kerak?“, — deb so'raydi. Bolalar: „Ko'rpačhalar ham kerak“, — deydilar. „Lolaxonga ko'rpačhalar nima uchun kerak?“

Ko'rpačhalarни xontaxta atrofiga soladi. Sandiqchani stol ustiga qo'yadi. Tarbiyachi: „Bu sandiqcha. Unga Lolaxon ko'rpačhalarни yig'ib qo'yadi“, — deb ko'rsatadi. So'ngra javon, bufet mebellari o'yinchoqlarini stol ustiga qo'yadi va ularning nomlarini, nima uchun ishlatalishini bolalardan so'raydi. Bufetga idish-tovoqlarni joylashtiradi, javonga Lolaxonning kiyimlarini ilib qo'yadi. Xona jihozlanib bo'lingach, bolalarga Lolaxonni uyg'otishni taklif etadi. „Menda qo'ng'iroqcha bor, shu qo'ng'iroqchani chalib, uni uyg'otamiz. Eshitinglar, qo'ng'iroqcha qanday tovush chiqaradi: „jiring-jiring-jiring“. (Bolalar tovushni qaytaradilar).

Lolaxon uyg'onadi, xonasining jihozlanganini ko'rib, xursand bo'lib ketadi. Tarbiyachi bolalardan mebel predmetlari, uy jihozlari nomlarini, ularning vazifalarini so'raydi. Bolalar javob beradilar. Lolaxon bufet bilan javonni adashtirib yuboradi, bolalar buni sezishib, uning xatosini to'g'rileydilar.

Tarbiyachi: „Endi hammamiz Lolaxon bilan birga sayrga chiqamiz. U bilan „Qor parchalari“ o'yinini o'ynaymiz“, — deb mashg'ulotni davom ettiradi.

38- mashg'ulot.

Mavzu: „Qo'g'irchoq xonasini jihozlaymiz“ (takrorlash). „Malika qani?“ ta'limiy o'yini.

Maqsad: bolalarning mebel predmetlari va uy jihozlari haqidagi tasavvurlarini aniqlash, ular nutqida mebel predmetlari, uy jihozlari nomlari, vazifalarini anglatadigan so'zlarni faollashtirish, bolalarga tevarak-atrofni tanishtirishni davom ettirish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi: „Bolalar, biz Lolaxonning xonasini jihozladik, uning Malika degan dugonasi bor. Malikaning xonasi yo‘q. Kelinglar, Malikaga ham xona ajratamiz. (*Tarbiyachi stol ustini ko‘rsatadi*). Xonada nimalar bo‘lishi kerak?“ („Karavot“). Tarbiyachi bolalardan biriga yonida turgan o‘yinchoq mebellar ichidan karavotni topib, olib kelishni, nomini Malikaga aytib, nima uchun kerakligini tushuntirib berishini so‘raydi. Masalan: „Malika, mana karavot, karavotda ulaydilar“.

Bolalar boshqa mebellarni ham eslab, olib kelib xonani jihozlaydilar. Xuddi birinchi bola kabi olib kelgan narsalari nomini va nima uchun ishlatalishini Malikaga aytib beradilar.

Tarbiyachi: „Bolalar, Malika sizlar bilan bekinmachoq o‘ynamoqchi. U hozir yashirinadi, sizlar esa topasizlar“.

Bolalar ko‘zlarini yumadilar, Malika bekinadi. Bolalar ko‘zlarini ochib, Malikani topadilar.

Malika, sen javon orqasidasan, javon orqasidan chiq.

Bufet ustiga chiqib olibsan, undan tush.

Sen stol tagidasan, chiq stol tagidan.

Sen javon ichidasan, javon ichidan chiq.

So‘ngra bolalar bekinadilar, Malika bolalarni qidiradi.

39- mashg‘ulot.

Mavzu: shoir Abdurahmon Akbarning „Hovlimizda“ hikoyasini o‘qib berish (takrorlash). Shoir Qambar Otaning „Jo‘jacha“ she’rini aytib berish.

Maqsad: bolalarda ona-bola hayvonlarni bir-biridan farqlashni mustahkamlash, bolalarni hajman kichik badiiy asarni (*ko‘rgazmasiz*) diqqat bilan tinglashga o‘rgatish, *og‘ilxona, qo‘ra, katak* va *in so‘zlari* bilan so‘z boyligini mustahkamlash va boyitish. Asarga nisbatan qiziqish uyg‘otish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi flanelegraf yordamida bolalarga tanish bo‘lgan „Hovlimizda“ hikoyasining qahramonlarini namoyish etadi.

Bolalar rasmlardan *sigirni buzoqdan, qo‘yni qo‘zichoqdan, tovuqni jo‘jalardan* farqlab, ko‘rsatib beradilar, „*tovuq va jo‘ja*“ deb nomlarini ajratib aytadilar va jo‘janing yo‘qolib qolgani haqidagi hikoyani so‘zlab

beradilar. (*Tarbiyachi yordamida*). Tarbiyachi hikoyani 2 marta o'qib beradi.

So'ngra „Jo'jacha“ she'rini aytib, jo'ja tasvirlangan rasmni bolalarga ko'rsatadi. Tarbiyachi rasmni ko'rsata turib: „Bu hovlimizda yo'qolib qolgan o'sha jo'ja, onasi uni topib oldi, mana u o'ynab yuribdi“, deydi. She'rni 2—3 marta aytib beradi.

Bu she'rni tarbiyachi mashg'ulotdan tashqari vaqtarda ham bolalarga aytib berishi mumkin.

40- mashg'ulot.

Mavzu: „Ayiqchaning xonasi“. „G'oz va toychoq“ o'yin-sahnasi.

Maqsad: mebel predmetlari, uy jihozlari haqidagi bolalar tasavvurini aniqlash, ular nomini atash va farqlashga o'rgatishni davom ettirish, umumlashtirish ko'nikmasini shakllantirish, „g“ va „q“ tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni mashq qildirish, „i“ tovushini to'g'ri talaffuz qilishni mustahkamlash.

Mashg'ulotning borishi.

Bolalar stol atrofida o'tiradilar. Tarbiyachi esa o'rtada. Har bir bola oldida kartonga yelimlangan xonaning tasviri: xontaxta bilan ko'rpacha, sandiqcha, stol, stul, karavot, yostiq ko'rpa-to'shagi bilan, kiyimlar javoni, idish-tovoqlar solingan bufet va boshqalar. Har bir rasm ustiga hisob tayoqchalari qo'yilgan bo'lib, ular ko'rsatkich vazifasini bajaradi. (*Rasmlar bolalar oldiga orqa tarafi bilan qo'yiladi*).

Tarbiyachi: „Bir ayiqcha bor ekan. U qo'g'irchoqlarimiz Lolaxon va Malikaxonlar bilan do'st ekan. U tez-tez ularnikiga mehmonga kelib turar ekan. Ayiqcha bir kuni Lolaxon va Malikaxonlarnikiga yana mehmon bo'lib keldi, xonalarining jihozlanganligini ko'rib, juda xursand bo'lди. Ayiqchaning ham xonasi bor. Lolaxon bilan Malikaxon uning xonasini jihozlab berishdi. Ayiqchaning xonasini ko'rmoqchimisiz, unda rasmni o'zingiz tomonga o'giring. Xonada stol turibdi, tayoqchani olib stolni ko'rsatinglar. (*Tarbiyachi bolalarni topshiriqni qanday bajarishlarini kuzatadi va yordam beradi*). Ayiqchaning xonasida yana nimalar bor?“ Bolalar tayoqcha bilan ko'rsatib, nomlarini aytadilar. So'ngra tarbiyachi: „Ayiqchaning xonasi sizlarga yoqdimi, u juda chiroyli“, — deydi.

„Ayiqchaning xonasini g'oz (g'o-g'o-g'o) va toychoq (i-i-i) ham ko'rmoqchi“. „Ular qani?“, — deb bolalar qiziqib so'raydilar.

Tarbiyachi o‘yinchoqlarni olib, bolalardan biriga: „Karimjon, sen „g‘o-g‘o“ lab oldimga kel. (*Bolaning taqlidiy so‘zni to‘g‘ri va aniq talaffuz qilishiga ahamiyat berish kerak*). Gulnora, sen esa „i-i-i“ lab oldimga kel. Bular toychoq bilan g‘oz, biz ularga ayiqchaning xonasini ko‘rsatamiz“, — deydi.

41- *mashg‘ulot.*

Mavzu: shoir Abdurahmon Akbarning „Mushukcham“ ovutmachog‘ini aytish.

Maqsad: bolalarga ovutmachoq mazmunini tushunishga yordam berish, ovutmachoqni takroran eshitish xohishini uyg‘otish, tarbiyachi bilan birga aytishga o‘rgatish, kuzatuvchanlikni rivojlantirish, quvnaymiz, momiq, tirnoq, qanotli, qanotchalar kabi so‘zlar bilan bolalar so‘z boyligini orttirish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi bolalarga mushukcha rasmini ko‘rsatadi. Bolalar diqqatini mushukchaning yungi, uning yumshoqligi, momiqligi, mo‘yloviqa qaratadi.

Tarbiyachi ovutmachoqni 2—3 marta o‘qiydi.

Tarbiyachi stoli ustida o‘yinchoq mushukcha paydo bo‘ladi. Mushukcha bolalardan yungiga, mo‘yloviqa, ko‘zlariga ahamiyat berishlarini so‘raydi va o‘zi haqida she‘r aytib berishlarini iltimos qiladi. Tarbiyachi bolalardan she‘rni birgalikda aytishni so‘raydi. She‘rni tanaffuslar bilan aytadi. Ovutmachoq yana 2—3 marta takrorlanadi. (*Kichik yoshdagi bolalar bilan mashg‘ulot shu yerda tugatiladi*).

So‘ngra bolalar stol atrofiga o‘tiradilar va rasmlarni qo‘llariga oladilar. (*Rasmlarda hayvonlar va parrandalar tasvirlangan*). Ularda nimalar tasvirlanganini aytadilar.

Tarbiyachi: „Topinglar-chi, kimning qo‘lida yumshoq, momiq yungli hayvonning rasmi bor?“ deb so‘raydi. Bolalar qo‘llaridagi tulki, quyon, olmaxon va it rasmlarini ko‘rsatadilar. Tarbiyachi: „Qo‘lingizdagi rasmdan qanotlilarni ko‘rsating“, — deydi. Bolalar qarg‘a, chumchuq, to‘tiqush rasmlarini ko‘rsatadilar. Tarbiyachi yumshoq, momiq yungli hamda qanotli parrandalar rasmini yana bir marta ko‘rsatib, mashg‘ulotni yakunlaydi.

Mavzu: „Mushukcham“ ovutmachog‘ini takrorlash. „Onasini topishga yordam bering“ ta’limiy o‘yini.

Maqsad: bolalarda tanish ovutmachoqni eshitish jarayonida xursandchilik kayfiyatini uyg‘otish. Hayvon va qushlarning nomlarini to‘g‘ri aytishga, onalari va bolalarini farqlashga o‘rgatish. Fe‘l turkumiga kiradigan so‘zlardan nutqda to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish. (*Xohlayman, xohlamaydilar, xohlamaysizmi*). „K“ tovushini to‘g‘ri talaffuz qilishni mustahkamlash.

Mashg‘ulotning borishi.

„Miyov-miyov-miyov“ degan ovoz eshitiladi. Tarbiyachi: „Bolalar, bu nimaning tovushi? („Mushukning“). U qanday tovush chiqarayapti? („Miyov-miyov-miyov“). To‘g‘ri, bu mushukning tovushi“. U o‘yinchoq mushukchani bolalarga ko‘rsatadi. Mushukcha bolalar bilan salomlashadi.

„Mo‘-mo‘-mo“ degan tovush eshitiladi. „Bolalar, bu nimaning tovushi? („Sigirning“). To‘g‘ri, bu sigir, u qanday tovush chiqaradi? („Mo‘-mo‘-mo“).

„Me-me-me“.. „Bolalar, bu nimaning tovushi?“ („Echkining“).

„Vov-vov-vov“, Bu nimaniki? („Itniki“).

Bolalar tovuq, g‘oz va o‘rdak tovushlarini ham eshitib, topadilar. Tovushlarni to‘g‘ri, aniq, ravon talaffuz qilishga harakat qiladilar. Tarbiyachi: „Bolalar, bugun mushukcha bu hayvon va parrandalarni o‘zi haqidagi she‘rni sizlardan birga eshitishga taklif qilgan. Hayvon va parrandalarni bu yerga o‘z bolalari bilan kelganlar. (*Rasm yoki o‘yinchoqlar ko‘rsatiladi*). Baxtiyor, sigirning bolasi — buzoqchani top. Topishni xohlaysanmi? („Xohlayman“). Sen bolalardan ham so‘ra-chi, ular ham buzoqchani ko‘rishni xohlaydilarmi?“ Baxtiyor: „Buzoqchani ko‘rishni xohlaysizlarmi? („Xohlaymiz“). (*Tarbiyachi bolalarga to‘g‘ri topishga yordam beradi*). Tarbiyachi bolalar bilan birgalikda „Mushukcham“ ovutmachog‘ini 2—3 marta takroran aytib beradi. Mushuk bolalarning biridan ovutmachoqni aytib berishni iltimos qiladi. (*Tarbiyachi bolaga ovutmachoqni aytishda ko‘maklashadi*).

43- mashg‘ulot.

Mavzu: baliqchani kuzatish.

Maqsad: tirik jonzotni kuzatish jarayonida bolalarda kuzatish qobiliyatini rivojlantirish, bolalarga baliqning tirik jonzot ekanligini, u doimo parvarishga muhtojligini tushuntirish, jonzotlarga nisbatan mehr-muhabbatli bo‘lish xislatlarini tarbiyalash. (*Akvariumni taqillatmaslik, qo‘llari bilan baliqqa tegmaslik*).

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi bolalarga mashg‘ulotdan oldin baliqcha rasmini ko‘rsatadi. Bolalar baliqchaning boshi, og‘zi va dumini tarbiyachiga ko‘rsatadilar, baliqchaning dumi yordamida suzishini aytadilar.

Tarbiyachi: „Bolalar, endi biz sizlar bilan tirik oltin baliqchani ko‘ramiz. Iltimos, baliqchani ko‘rayotganda bonkaga tegib ketmanglar va uni taqillatmanglar, baliqcha qo‘rqib ketadi. Baliqchani suvdan olib bo‘lmaydi, chunki u suv bilan tirik.

Tarbiyachi stol atrofiga bolalarni o‘tqizadi, baliqcha solingan bonkani stolga qo‘yadi. Bonkaga ham akvariumdagidek o‘t va toshlar solingan bo‘ladi.

Tarbiyachi: „Kelinglar, endi baliqchani kuzatamiz. Kuzatish jarayonida ko‘rganlaringizni asta-sekin, past ovozda aytинг (*baliqcha suzayapti, dumi bilan o‘ynayapti, og‘zini ochdi, tosh orasiga suzib ketdi, qarayapti, ovqat yeyapti va boshqalar*). Baliq tirik, u ovqatni yutayapti“, — deb bolalarning gapini davom ettiradi. Bolalar baliqchani kuzatib bo‘lganlaridan so‘ng sekin o‘rinlaridan turib ketadilar.

Bolalar baliqcha va baliqchalarni mashg‘ulotdan keyin o‘z akvariumlarida ham kuzatadilar. Kuzatish jarayonida tarbiyachi bolalarga avkarium oldida to‘planib turmaslikni, uning ustidan qarash mumkin emasligini tushuntiradi, akvarium oldida tinch o‘tirib, unga tegmasdan, suyanmasdan, baliqchani cho‘chitmasdan kuzatish lozimligini uqtiradi.

44- mashg‘ulot.

Mavzu: „*Chiq-chiq*“ tovushini talaffuz qilish, nutq a’zolarini rivojlantirish, nutqni ravon talaffuz qilishga tayyorlash mashqi.

Maqsad: bolalarni „*ch*“ tovushini to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish, „*q*“ tovushini to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatishni davom ettirish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi bolalarga o‘yinchoq stol soatini ko‘rsatadi va uning qanday tovush chiqarishini eshitib ko‘rishni taklif etadi. Tarbiyachi: „Bu — soat, u „*chiq-chiq-chiq*“ deb ovoz chiqarib yuradi“, — deb bolalarga taqlidiy tovushni talaffuz qilishni taklif etadi. To‘liq talaffuz eta olmayotgan bolalardan bir necha marta yakka holda talaffuz qilishni so‘raydi. Tarbiyachi: „Soatlar har xil bo‘ladi. Osma soat devorga osib qo‘yladi, stol soatlari va qo‘lga taqiladigan soatlar ham bor. (*Tarbiyachi soatlarni ko‘rsatadi*). Osma soatlar baland ovoz chiqarib yuradi (tarbiyachi baland ovozda „*chiq-chiq-chiq*“ deydi), kichik soat past ovozda „*chiq-chiq-chiq*“ deb ovoz chiqaradi“. Tarbiyachi bolalardan osma soatlar, stol soatlari va qo‘lga taqiladigan soatlar qanday ovoz chiqarishini so‘raydi. (*Yaxshi talaffuz eta olmayotgan bolalardan bir necha marta so‘raydi*).“

(*Tarbiyachi bolalarga katta osma soatning chiqillashini eshitib ko‘rishni taklif qiladi*). „Osma soat yurayotganida baland ovozda, lekin sekin chiqillaydi. („*Chiq-chiq-chiq*“ deb baland ovozda pauza bilan talaffuz qiladi, so‘ng bolalardan osma soatlarga o‘xshab baland ovozda pauza bilan „*chiq-chiq-chiq*“ deyishni so‘raydi).

(*Tarbiyachi qo‘l soatini bolalarga ko‘rsatib, uning chiqillashini eshitib ko‘rishni taklif qiladi*). Eshitinglar, kichik soatlar qanday ovoz chiqaradi“. („*Chiq-chiq-chiq*“ deb past ovozda, lekin sal tezroq pauzasiz talaffuz qiladi. Tarbiyachi bolalardan kichik soatni „*chiq-chiq-chiq*“ deb pauzasiz talaffuz qilishni so‘raydi).

Tarbiyachi „ch“ va „q“ tovushlarining aniq va to‘g‘ri talaffuz qilinishiga ahamiyat beradi.

45- mashg‘ulot.

Mavzu: shoir Abdurahmon Akbarning „Qo‘g‘irchog‘im Lolaxon“ ovutmachog‘i.

Maqsad: bolalarga ovutmachoq mazmunini tushunishga yordam berish, bolalar so‘z boyligini *qorako‘z, shirmoynon, qoraqosh* so‘zлari bilan boyitish, bolalarda ovutmachoqni bir necha marta eshitish va so‘zlarini tarbiyachi bilan birgalikda qaytarish istagini uyg‘otish.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi bolalarga qishki kiyimdag'i qo'g'irchoqni ko'rsatadi. (*Kartondan tayyorlangan qo'g'irchoqdan foydalanish maqsadga muvofiq. Qo'g'irchoq kiyimlarini tarbiyachining o'zi tayyorlaydi*).

Tarbiyachi ovutmachoqni o'qib beradi. Bolalar „ko'yak“, „kamzul“, „palto“, „qoraqosh“, „qorasoch“, „qorako'z“ so'zlarini tarbiyachi bilan qaytaradilar. Tarbiyachi ovutmachoqni yana 2 marta takroran o'qib beradi. Qo'g'irchoqning paltosini yechib (*qo'g'irchoqda palto tagida ko'yagli yoki kamzulchasi bo'lishi kerak*), qizchalardan biriga kiyib ko'rishga beradi. Tarbiyachi paltoni kiyib ko'rishga olgan qizning ismini qo'shib, ovutmachoqni aytib beradi. Yana 2—3 ta qizaloqqa ham palto beriladi, ovutmachoqqa o'sha qizchalarining ismlari qo'shib aytildi.

46- mashg'ulot.

Mavzu: qushchani kuzatish.

Maqsad: qushchani kuzatish jarayonida bolalarda xursandchilik, quvnoqlik hislarini, uni parvarish qilish istagini uyg'otish, qushchaning nima qilayotganini bolalardan so'rash, bolalarni gapirtirishga erishish, jonzotlarga mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi: „Bizning guruhdagi chiroyli, quvnoq qushcha yashaydi. Eslab ko'ringlar-chi, qushcha nimalar qiladi? (*Bolalar javoblarini to'ldiradi*). Qushchamiz chiroyli kuylaydi, donlarni cho'qiydi, suv ichadi, patlarini tumshug'i bilan tozalaydi. Uychasi (*qafasi*)ga odamlar yaqinlashsa qo'rqadi: kuylamaydi ham, don ham cho'qimaydi, u yoqdan bu yoqqa uchib bezovtalanadi. U odamlardan uychasi oldidan ketishlarini, uni qo'rqtmasliklarini, shovqin solmasliklarini so'raydi. Bugun biz sizlar bilan qushchamizni kuzatamiz. U qo'rmasligi va xavotirga tushmasligi uchun shovqin solmaslikka harakat qiling. Mana bu stillarga o'tiring, qushchani kuzatishni boshlaymiz, bu yerdan qushcha hammangizga yaxshi ko'rindan“. Shunday deb qafasdag'i qushchani ko'rsatadi.

Tarbiyachi bolalardan qushcha nimalar qilayotganini so'raydi, sekin, shoshmay gapirib berishlarini iltimos qiladi. Bolalar javoblarini aniqlashtirib, to'ldiradi. Tarbiyachi bolalar diqqatini qushcha boshini

u yoqdan bu yoqqa burayotganiga, o'tirishiga, qarashiga, sakrashiga jalb etadi. Bolalar qushchaning dumini, tumshug'ini tomosha qiladilar. Tarbiyachi qushchaning qanotchalarini, uchishini so'zlab beradi.

Tarbiyachi qushchani qafasi bilan olib qo'yadi. Rasmlardan foydalanib, yurtimizda qishlab qoluvchi qushlar haqida hikoya boshlaydi. Tarbiyachi: „Rasmida qish fasli tasvirlangan. Daraxt shoxiga qushlarga ovqat berish uchun taxtacha ilib qo'yilgan. Bolalar taxtachaga don sepayaptilar, qushlar esa ularni bir chetda kuzatib, ketishlarini kutishyapti“. Hikoya bolalar don sepib bo'lishgach, qushlarning taxtachaga qo'nib don yeganlari bilan tugaydi.

Tarbiyachi mashg'ulotdan tashqari bolalar bilan navbatma-navbat qushchani kuzatadilar. Qushchaga don va suv beradilar. Bolalar tarbiyachi bilan sayrga chiqishganda qushlar uchun don va non uvoqlarini ham olib chiqadilar.

47- mashg'ulot.

Mavzu: „Biz qushchalarni ovqatlantirdik“ hikoyasi. Ta'limiy mashq.

Maqsad: bolalarni hikoyani diqqat bilan tinglashga, hikoya qilishda ishtirok etishga, „x“ tovushini aniq talaffuz qilishga mashq qildirish.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi: „Hozir qish fasli. Yerda, daraxtlarda, o'yn maydon-chamizda, hammayoqda oppoq qor. Qor ko'p yoqqanda biz yo'laklarni qordan tozalaymiz. Qordan har xil narsalar yasash mumkin. Biz sizlar bilan Qorbolani yasagan edik. Bir kuni bizning maydonchamizga qushlar uchib kelishdi. Biz daraxtga osib qo'yilgan taxtachaga don va non uvoqlarini sepib qo'ydik. Qushlarning qorni och edi, don va non uvoqlarini cho'qilay boshlashdi. Shundan keyin qushlar bizning maydonchamizga har kuni uchib keladigan bo'lishdi. Biz ularga don va non uvoqlarini beramiz. Ular bizga minnatdorchilik bildirib, rahmatlar aytadilar. Voy, bolalar, qo'llarimiz sovuq qotib ketdi-ku. Men ularni hozir isitaman“. Qo'llarini „x-x-x-x“ deb isitadi. Bolalarga ham qo'llarini isitishni taklif etadi.

48- mashg‘ulot.

Mavzu: shoir Abdurahmon Akbarning „Kulchanon“ ovutmachog‘i.

Maqsad: Ovutmachoqni eshitish istagini uyg‘otish, ovutmachoqdagi so‘zlarni qaytarish, tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi asta-sekin ovutmachoqni (*patir bergan bolalarning nomlarini qo’shib*) o‘qiydi.

Tarbiyachi likopchadan kulchani olib, tatib ko‘radi. Tarbiyachi: „Buvimizning kulchalari juda ham shirin, ularni tandirda biz uchun yopganlar“. Ovutmachoqqa bolalar nomini yana bir marta qo’shib aytib beradi. Bolalarga kulchanon tarqatadi. Kulchanonni „puf“lab sovitib yeydilar. Tarbiyachi ovutmachoqni bolalar nomini o‘zgartirib yana 3—4 marta aytadi. So‘ngra bolalardan: „Buvimiz nimani yopdi? („Kulchani“), „Buvimiz yana nimalarni pishirishi mumkin?“ („Somsa, non, ...“) deb so‘raydi... Buvimiz kulchanon, patirlarni tandirda (*tarbiyachi tadirning rasmini ko‘rsatadi*) yopadilar, qozonda esa shirin ovqatlar pishiradilar.

Bolalar, kulchanonni pechda ham pishirsa bo‘ladi. Oshpaz opalarimiz bizga qanday taomlar pishirib berdilar?“ (*Bolalar javobi*).

49- mashg‘ulot.

Mavzu: „Kulchanon“ ovutmachog‘ini takrorlash. „Nima yo‘q bo‘lib qoldi?“ ta’limiy o‘yini.

Maqsad: bolalarda tanish ovutmachoqni takror eshitishga ishtiyoq, xush kayfiyat uyg‘otish, taqlid qilishga o‘rgatish, tasavvurlarini boyitish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi ovutmachoqni o‘qiydi. Ovutmachoqni buvi so‘zları bilan taqlid qilib aytadi, buvi kulchanon yopib bolalarga berayapti. Tarbiyachi o‘tgan mashg‘ulotdagidek ovutmachoqqa bolalar ismini qo’shib, bir necha marta aytadi. Bolalar kulchanonni yeb, buviga rahmat aytishadi.

Tarbiyachi: „Endi kulchanonni mehmon o‘yinchoqlarga ham beramiz. Men ularni sizlar bilan tanishtiraman. Bu — o‘rdakcha, u qanday ovoz chiqaradi? (G‘a-g‘a-g‘a). Uning tumshug‘i bor. U yoqdan,

bu yoqqa lapanglab yuradi. Bu — g'oz. Uning bo'yni uzun, oyoqlari qizil, u qanday ovoz chiqaradi? (*G'o-g'o-g'o*). (*Bolalarning javobi*.)

Meni bolalar yaxshi taniydlilar. Men jo'jaman. Men kichkinagina, sariqqina, momiqqinaman. „*Chi-chi*“lashni bilaman: „*chi-chi-chi*“. Men qanaqaman?“ (2—3 *bolaning javobi*).

Tarbiyachi bolalarga „Nima yo'q bo'lib qoldi?“ o'yinini o'ynashni taklif etadi. Bolalar ko'zlarini yumadilar, tarbiyachi o'yinchoqlardan bittasini berkitadi. Tarbiyachi: „Qaranglar, nima yo'q bo'lib qoldi?“ (*bolalar javobi*). O'yin bir necha marta takrorlanadi.

50- *mashg'ulot*.

Mavzu: qo'g'irchoq Lolaxonni cho'miltirish.

Maqsad: bolalarga predmetlar nomi, sifati va harakatini ifodalovchi so'zлarni eslashga hamda ulardan nutqlarida foydalanishga yordam berish. (*Tog'ora, Sovun, artinish, issiq, Sovuq, Iliq suv*).

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachining stoliga suv solingan tog'ora, 2 ta suv to'la chelak va cho'mich qo'yiladi. Tarbiyachi: „Bolalar, bugun biz sizlar bilan qo'g'irchoq Lolaxonni tog'orada cho'miltiramiz. Qanday suvda cho'miltiramiz? („Iliq“). Bolalarni tog'oradagi suvning qanaqaligini aniqlashga chaqiradi. Qo'g'irchoqning ko'ylagini yechib, tog'oraga o'tqizadi. (*Nariroqdag'i stolda kir yuvish, yuvinish vositalari turibdi*). Bolalarning biridan Sovun olib kelishni so'raydi. Bola Sovunni olib keladi. Bolalar Sovun va Sovun quti so'zlarini qaytaradilar. Tarbiyachi bir boladan mochalka olib kelishini, uning nima uchun kerakligini so'raydi. Lolaxonni cho'miltira boshlaydi. Boshiga Sovun suradi.

Tarbiyachi: „Mana bu chelakda issiq suv bor. (*Bir-ikkita boladan, qanday suv? deb so'raydi*). Ko'k chelakda esa Sovuq suv bor. Men issiq suv bilan Sovuq suvni chapishtirsam qanday suv hosil bo'ladi? („Iliq“). Men iliq suv bilan Lolaxonning boshidagi Sovunni yuvib tashlayman“.

Bolalardan biri sochiq olib keladi. Bola sochiqning nimaga kerakligini aytadi. Qo'g'irchoqni artishda tarbiyachiga yordam beradi. Qo'g'irchoqqa yotoq kiyimi kiygizadilar, uni choyshabga o'rab, karavotga uxlatish uchun yotqizadilar. Tarbiyachi bolalarga tog'oradagi suvni to'kib tashlash kerakligini tushuntiradi. Sovunni Sovun qutiga soladi, sochiqni quritish uchun ilg'ichga osadi, mochalkani chayib, olib qo'yadi. Bolalar Lolaxonga „Alla“ ovutmachog'ini aytib beradilar.

51- mashg‘ulot.

Mavzu: tanish ovutmachoqlarni qaytarish.

Maqsad: bolalarga ovutmachoqlarni eslashlariga yordam berish, ovutmachoqlarni yana eshitish va aytish xohishini uyg‘otish, aytishga harakat qilgan bolalarni rag‘batlantirish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi bolalarga qishki kiyimdagи Lolaxonni ko‘rsatadi. Lolaxon haqidagi ovutmachoqni eslashlarini, bir-ikki boladan aytib berishlarini so‘raydi. So‘ng hamma birgalikda aytadi.

Tarbiyachi: „Bolalar, Lolaxon haqidagi ovutmachoqni juda yaxshi aytib berdingizlar, mushukcha ham o‘zi haqidagi ovutmachoqni sizlardan eshitishni xohlayapti“. Tarbiyachi mushukcha (*rasm yoki o‘yinchog‘*)ni ko‘rsatadi. Tarbiyachi 2 marta mushukcha haqidagi ovutmachoqni aytib beradi. Bolalar unga jo‘r bo‘ladilar.

Bolalar tanish ovutmachoqlarni eslashib, xohlaganlarini tarbiyachi bilan birga aytadilar.

52- mashg‘ulot.

Mavzu: „Navro‘z bayrami“ rasmini ko‘rish.

Maqsad: bolalarni rasmni diqqat bilan ko‘rishga, savollarga javob berishga, tasvir haqidagi fikrlarini bayon qilishga o‘rgatishni davom ettirish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi hozir bahor fasli ekanligini, yaqinda Navro‘z bayrami nishonlanishini aytadi. Bayramda barcha xursand bo‘lishini, yangi kiyimlar kiyishini, sumalaklar pishirilishini hamma (*mahalla, shahar, qishloq, tuman markaziga chiqib*) bayramni nishonlashini tushuntirib beradi. Bolalar qo‘sishqlar, she’rlar aytadilar, chiroyli kiyimlar kiyadilar, deydi.

Tarbiyachi „Navro‘z bayrami“ rasmini ko‘rsatib, quyidagi savollar bilan bolalarga murojaat qiladi. „Bolalar qayerga ketayaptilar? Ular qanday kiyanganlar? Bolalarning qo‘llarida nimalar bor?“

Tarbiyachi bolalar javoblarini to‘ldirib, ushbu hikoyani aytib beradi:

„Qish tugab, yurtimizga bahor kirib keldi. Navro‘z bayrami boshlandi. Bolalar chiroyli kiyinishib, qo‘llarida gullar, shar va

bayroqchalar ko‘tarishib, ota-onalari bilan markazga bayramni nishonlash uchun chiqdilar. Hamma xursand“. Mashg‘ulot oxirida Anvar Obidjonning „Navro‘z“ she’rini aytib beradi:

*Sizni doim erkalatib,
Qand soladi choyingizga.
Siz ham shirin so‘zlar aytib,
Gullar tuting oyingizga.*

53- mashg‘ulot.

Mavzu: „Top“ ta’limiy o‘yini.

Maqsad: bolalarni tovuq va xo‘rozni bir-biridan farqlashga, tarbiyachi nutqini diqqat bilan tinglashga, sodda topishmoqlarni topishga o‘rgatish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi stol ustiga xo‘roz va tovuq o‘yinchoqlarini qo‘yadi, bolalardan ularning nomlarini aytishni iltimos qiladi. Ularning bir-biridan farqi haqida gapirib, bolalardan ular qanday tovushlar chiqarishini so‘raydi. Tarbiyachi: „Men hozir sizlarga ikkita topishmoq aytib beraman. Ularning qaysi biri xo‘roz, qaysi biri tovuq haqidaligini bilmayman. Menga topishmoqlarni to‘g‘ri topishimga yordam beringlar. Yordam berasizlarmi? Unda birinchi topishmoqni eshitinqlar:

*Tongda deydi qu, qu, qu,
Uyg‘oning, tong otdi-ku.*

Bolalar, bu nima ekan? To‘g‘ri, bu („Xo‘roz“).

Endi ikkinchi topishmoqni eshitinqlar:

*Qichqirar qo,qo, qo deb
Qornin to‘qlar don-dun yeb.
Tuxum qo‘ysa-chi, doim,
Xursand bo‘ladi oyim.*

Bu topishmoqning javobi („Tovuq“).

Tarbiyachi boshqa o‘yinchoqlardan foydalanib shunga o‘xshash o‘yinlar tashkil etadi, topishmoqlar aytadi.

54- mashg'ulot.

Mavzu: „Nimani qayerga qo'yamiz?“ ta'limiy o'yini.

Maqsad: bolalarni tanish predmetlarni umumiy belgisiga qarab guruuhlashga o'rgatish. (*Idish-tovoq, kiyim-kechak, sabzavotlar*).

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi bolalarga stoli ustidagi chiroyli qutichani, undagi narsalarni ko'rsatadi. U qutichadan 3 ta predmet olib, ularning nomlari va vazifalari haqida bolalardan so'raydi. Bolalarning javoblarini to'ldirib, qutichadan olingan idishni patnisga qo'yadi, kiyim-kechak javonga ilinadi yoki taxlanadi, sabzavot esa savatga solinadi.

Tarbiyachi: „Ha, bu kosa, kosada sho'rva ichiladi (*unga sho'rva solinadi*). Bu idish, uni patnisga qo'yamiz“, — deydi.

Bir bolani yoniga chaqiradi, unga qutichadan birin-ketin predmetlarni olish, ular nomini topish va nimaga xizmat qilishini aytib berish hamda kerakli joyga qo'yishni taklif etadi. Tarbiyachi javobni eshitib, yana bir marta bola qutidan olgan predmet nomi va vazifasini aytib, uni o'z joyiga qo'yadi.

Patnis, javon va savatga 3 tadan predmet qo'yilgandan so'ng tarbiyachi har bir bolaga qutichadan predmet olib, joyini topib qo'yishga taklif etadi. Topshiriq qanday bajarilishini kuzatadi, qynalgan bolalarga yordam beradi.

Tarbiyachi bolalardan patnis, javon va savatdagi predmetlarning nomlari va ularning vazifalari haqida takroran so'raydi.

55- mashg'ulot.

Mavzu: „Bo'ri bilan echki“ ertagini aytib berish.

Maqsad: ertakni stol qo'g'irchoq teatri figuralarini ishtirokida aytib berish, bolalarda ertakni bir necha marta takroran eshitish xohishini uyg'otish, bolalar nutqida, *echki, bo'ri, so'zlarini faollashtirish*.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi bolalarga echki va bo'ri figuralarini ko'rsatadi. *Echki, bo'ri* so'zlarini bolalar nutqida faollashtiradi, ulardan echki va bo'ri nutqini rolga kirib takrorlashni so'raydi.

Tarbiyachi: „Hozir men sizlarga bo'ri va echki haqidagi ertakni aytib beraman“, — deb ertak qahramonlarining figuralaridan foydalanim ertak aytga boshlaydi.

Mashg'ulotdan oldin tarbiyachi stol ustiga ertak qahramonlarining rasmlarini qo'yadi. Ulardan foydalanib, bolalarni ertakdagi ba'zi jumla va so'zлarni talaffuz qilishga o'rgatadi. Mashg'ulot boshlangandan so'ng rasmlarni olib qo'yadi.

56- mashg'ulot.

Mavzu: „Bo'ri bilan echki“ ertagini takrorlash. „Nima chaqirdi?“ ta'limiy o'yini.

Maqsad: bolalarga ertakni eslatib, uni yana eshitish xohishini uyg'otish, ertakni aytishda ishtirok etishga, so'z va jumlalarni to'g'ri talaffuz qilishga undash. Ifodali talaffuz qilishga o'rgatish.

Mashg'ulotning borishi.

(*Ertak katta yoshdagи bolalarga ko'rgazmasiz, kichik yoshdagи bolalarga flanelegraf yoki stol qo'g'irchoq teatri/figuralaridan foydalanilgan holda aytib beriladi*). Tarbiyachi ertak aytadi. Takroran aytayotganda bolalarni o'ziga qo'shilib aytishga undaydi.

So'ngra bolalardan echkining bo'ri bilan qanday gaplashganini aytib berishlarini so'raydi. Tarbiyachi bolalarni echki va bo'ri roliga kirib bir-birlari bilan gaplashishga taklif etadi.

Tarbiyachi bo'ri figurasini ko'rsatib, bolalarga „Nima chaqirdi?“ o'yinini o'ynashni taklif etadi. O'yin qoidasini tushuntiradi. Bir bola o'girilib turadi. U tarbiyachining qaysi bolaga bo'ri figurasini berayotganini ko'rmaydi. Bo'ri figurasini olgan bola yo'g'on ovozda qo'shiq aytadi. O'girilib turgan bola qaysi bola bo'riga taqlid qilib qo'shiq aytayotganini topishi kerak. Agar u yanglishsa, o'yin yana bir bor takrorlanadi.

Katta yoshli bolalar bu o'yinni faqat bo'riga taqlid qilib emas, balki echkiga ham taqlid qilib o'ynashlari mumkin.

57- mashg'ulot.

Mavzu: „Fil bilan xo'roz“ ertagini aytib berish.

Maqsad: bolalarni ertakni qiziqib, diqqat bilan tinglashga o'rgatishni davom ettirish. Ertak aytishda ishtirok etish, sodda savollarga javob berishni o'rgatish.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi ertakni ertak qahramonlari figuralaridan foydalanib, stol qo'g'irchoq teatrini namoyish etish orqali aytib beradi. Bolalar e'tiborini

xo'rozga qaratib: „Bu nima, u qanday qichqiradi?“, — deb so'raydi. („*Bu — xo'roz, u „qu-qu-qu“ deb qichqiradi*“). Tarbiyachi filni ko'rsatib: „Bu — fil, u juda ham katta hayvon, fil uzoq, issiq yurtlarda yashaydi. Uning xartumi uzun, qulqlari esa katta. Men sizlarga hozir fil bilan xo'roz haqidagi ertakni yana bir marta aytib beraman“, — deydi. Tarbiyachi ertakni shoshilmasdan, ifodali aytib beradi.

Tarbiyachi (xo'rozni ko'rsatib): „Filning oldiga nima keldi? („*Xo'roz keldi*“). „U qanday qichqirdi?“ („*Qu-qu-qu*“). „Bolalar, nima ko'p ovqat yer ekan?“ („*Xo'roz*“).

Tarbiyachi ertakni takroran aytadi.

58- *mashg'ulot.*

Mavzu: „Fil bilan xo'roz“ ertagini takrorlash. „Xuddi mendek takrorla“ ta'limiy o'yini.

Maqsad: ertakni takroran eshitishga xohish uyg'otish, bolalarni ertakni tarbiyachi bilan birga aytishga undash.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi ertakni ko'rgazmasiz aytib beradi. So'ngra bolalarga fil va xo'roz figuralarini ko'rsatib, ulardan nomlari, xo'rozning qanday qichqirishi, filning qulog'i va xartumi qandayligi haqida so'raydi. Tarbiyachi ikkinchi marta ertakni flanelegraf yordamida bolalar ishtirokida aytib beraadi. Bolalarga ertak qahramonlari figuralarini ko'rsatib savollar beradi. Bolalar javobidan so'ng ertakni yana davom ettiradi. Ertak shu tariqa 2—3 marta takroran aytib beriladi.

Tarbiyachi bolalar bilan „Xuddi mendek takrorla“ ta'limiy o'yinini o'ynaydi. Bolalardan birini chaqirib, unga bir so'z yoki biror taqlidiy tovushni aytadi va boladan xuddi shu so'z yoki taqlidiy tovushni to'g'ri aytib berishni so'raydi. (*Xartum, xo'roz, fil, jo'ja, „chiq-chiq-chiq“, „qu-qu-qu“ va hokazo. Taqlidiy tovushlarni tarbiyachi baland, past ovoz va tezlikda talaffuz qiladi*). Tarbiyachi topshiriqning aniq bajarilishiga erishmog'i lozim.

59- *mashg'ulot.*

Mavzu: baliqchalarni kuzatish. „Bolalar baliqchalarni ovqat-lantirayaptilar“ rasmini ko'rish.

Maqsad: baliqchalarni kuzatishni davom ettirish, kuzatish paytida tartib-intizomga rioya qilishga o'rgatishni davom ettirish, bolalarni

rasmni tushunib ko‘rishga o‘rgatish, savollarga javob berish, tasvir haqida o‘z fikrini bildirish malakasini shakllantirish.

Mashg‘ulotning borishi.

(*Bolalar oldingi mashg‘ulotlardan birida bonkadagi baliqchani kuzatgan edilar, endi esa akvariumdagи baliqchalarni kuzatadilar*). Bolalar akvariumni atrofidan kuzatish uchun stullarga o‘tiradilar. Tarbiyachi bolalarga akvariumga tegmaslik, taqillatmaslik, tinch o‘tirib, baliqchalarni kuzatish lozimligini eslatadi.

Baliqchalarni kuzatish mobaynida ularning harakatlari haqida sekin gapirib berishni taklif qiladi. *Akvarium, baliqlar suzadi, ovqatni yutadi, dumи esa suzishga yordam beradi, yugoriga suzib chiqdi, yaqinga suzib keldi, qarayapti* kabi so‘zlarni qo‘llagan holda bolalarning so‘zlarini to‘ldiradi.

Tarbiyachi baliqchalarga ovqat beradi. Bolalar ularning qanday ovqat yeyayotganlarini kuzatadilar.

Bolalar akvariumga o‘girilib o‘tiradilar. Tarbiyachi ularga „Bolalar baliqchalarni ovqatlantirayaptilar“ rasmini ko‘rsatadi. So‘ngra rasm haqida suhbat o‘tkazadi. Tarbiyachi: „Bolalar nima qilayaptilar? („Baliqlarni ovqatlantirayaptilar“). Bolaning qo‘lidagi bonkada nima bor? („Baliqlarning ovqati bor, u baliqlarga ovqat berayapti“). Oltin baliqchalar qayerda yashaydi? („Akvariumda“). Ular qancha? („Ko‘p“).

Tarbiyachi rasmga qarab baliqchalarga ovqat berayotgan qizcha va bolalar haqida so‘zlab beradi.

60- mashg‘ulot.

Mavzu: „Ismi nima?“, „Nima qanday qichqiradi?“ ta’limiy o‘yinlari.

Maqsad: bolalarning eshitish qobiliyatini rivojlantirish, ularni kattalar nutqini diqqat bilan tinglashga o‘rgatish, taqlidiy tovushlarni to‘g‘ri va aniq talaffuz qilishga o‘rgatishni davom ettirish.

Mashg‘ulotning borishi.

Bolalar stol atrofida o‘tiradilar. Stol ustida o‘yinchoqlar turibdi. Tarbiyachi bir bola oldiga borib, ismini so‘raydi: „Sening isming nima? (Javob berishga qiyalsa tarbiyachining o‘zi javob beradi). Sening isming Malika. Mening ismim Malika deb ayt“, — deydi. Tarbiyachi xuddi shu tarzda 2—3 boladan ismini so‘rab, bolalardan to‘liq javob olishga harakat qiladi.

So‘ngra tarbiyachi bolalarga qo‘g‘irchoqni ko‘rsatib, ulardan qo‘g‘irchoqning ismini aytishlarini so‘raydi („Lolaxon“). Tarbiyachi mushukchani ko‘rsatib: „Bu nima?“ — deb so‘raydi („mushukcha“). „Bolalar, mushukchaga qanday ism qo‘yamiz? („Qoramosh“). Bolalardan mushukchaning qanday miyovlashini so‘raydi („miyov-miyov-miyov“).

Tarbiyachi bolalarga it, tovuq, echki, bo‘ri, qo‘y, jo‘ja, kakku o‘yinchoqlarini ham ko‘rsatadi. Bolalar ularga ism qo‘yadilar. Ularning tovushlarini talaffuz qiladilar.

Tarbiyachi bolalarning o‘z ismlari, hayvonlarning nomi va tovushlarini aniq hamda baland ovozda talaffuz qilishlariga ahamiyat berishi lozim.

U stol ustiga qurbaqa o‘yinchog‘i bilan 2 ta o‘yinchoq soat qo‘yadi. Soat va qurbaqa haqida topishmoq aytadi. Bolalar topishmoqlar javobini topadilar.

61- mashg‘ulot.

Mavzu: „Kulchanon“ ovutmachog‘ini takrorlash.

Maqsad: bolalarga ovutmachoq mazmunini tushunishga yordam berish, uni qayta-qayta eshitish xohishini uyg‘otish, tarbiyachi ketidan ovutmachoq so‘zlarini qaytarishga o‘rgatishni davom ettirish, bolalar tasavvurlarini rivojlantirish.

Mashg‘ulotning borishi.

(*Tarbiyachi mashg‘ulotdan 1—2 kun oldin bolalarga patir non bilan kulchanonni ko‘rsatib, ularning diqqatini patir nonning katta, kulchanonning kichkina ekanligiga qaratadi.*)

Tarbiyachi bolalarga patir non bilan kulchanonni ko‘rsatadi. Ularga patir non katta, kulchanon kichkinligini eslatib, nonlarning undan taylorlanishini tushuntiradi. Kulchanon haqidagi ovutmachoqni aytib beradi.

Tarbiyachi ovutmachoqni aytayotganida flanelegrafdan foydalaniadi. (*1- rasmda olov yoqilgan tandir, uning ichida kulchanon, 2- rasmda buvi, savatda kulchanon*). Tarbiyachi: „Buvi shirin kulchanonlar yopdi va bolalarga berdi, bolalar ularni maza qilib yeishdi“, — deydi.

Tarbiyachi bolalarga kulchanon tarqatadi va ovutmachoqni yana bir marta o‘qib beradi.

62- mashg‘ulot.

Mavzu: „Qancha?“ ta’limiy o‘yini. „Kulchanon“ hikoyasini aytib berish.

Maqsad: bitta, bittadan ko‘p so‘zlaridan bolalarni o‘z nutqlarida foydalinishga o‘rgatish, hajman katta bo‘lmagan hikoyani ko‘rgazmasiz eshitish malakasini tarbiyalash, bolalarga hikoya g‘oyasini tushunishga yordam berish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi qutichadan bittadan o‘yinchoq jo‘jalarni olib, „bitta jo‘ja...“ — deb bolalarga ko‘rsatadi. So‘ngra o‘yinchoq tovuqni oladi. Bolalar uning nimaligini aytadilar. Tarbiyachi bolalardan: „Tovuq nechta?“ — deb so‘raydi. („Tovuq bitta“). Jo‘jalar-chi? („Jo‘jalar ko‘p“). Bolalar jo‘ja („chi-chi-chi“) va tovuqning („qo-qo-qo“) qanday tovush chiqarishini aytib beradilar.

Tarbiyachi bu o‘yinchoqlarni olib qo‘yib, stol ustiga bitta o‘yinchoq quyoncha va bir nechta sabzi qo‘yadi. (*Bolalar soni qancha bo‘lsa, sabzilar soni ham shuncha bo‘lishi lozim*). Tarbiyachi: „Qaranglar, polizdan qancha sabzi uzib olib keldik. Sabzilar qancha? („Sabzilar ko‘p“). Sabzilar ko‘p, quyoncha esa („bitta“). Mana savatcha, savatchaning ichini ko‘raylik-chi, qancha sabzi bor ekan? („Bitta ham sabzi yo‘q“). Bolalar, stol ustidagi sabzilardan bittadan olib, savatchaga soling. Endi savatchada sabzilar qancha?“ („Ko‘p“).

Tarbiyachi o‘yinchoq quyonchani olib qo‘yib, bolalarga Dilnoza va uning do‘satlari haqidagi hikoyani tinglashni taklif etadi. Hikoyani 2 marta aytib beradi. So‘ngra sahnalaشتiradi. Bir qizchani oldiga chaqirib Dilnoza bo‘lishni taklif etadi. Dilnoza: „Salim, Rustam, Baxtiyor, mana sizlarga kulchanon, yenglar“, — deydi va bolalarga kulchanon beradi.

Bolalar: „Rahmat senga, Dilnoza“, — deyishadi. Dilnoza: „Osh bo‘lsin“, deb javob beradi.

Bu sahna ko‘rinishi 3—4 marta qaytariladi. Tarbiyachi hikoyani yana bir marta aytib beradi.

63- mashg‘ulot.

Mavzu: „Qo‘g‘irchoq Lolaxon bilan o‘ynaymiz“ ta’limiy o‘yini. „Top“ ta’limiy mashqi.

Maqsad: bolalar ni so‘z, jumlalarni aniq talaffuz qilish, xushmuomala bo‘lish, topishmoqlarni diqqat bilan eshitish va topishga o‘rgatish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi: „Bolalar, bu qo‘g‘irchoqni taniysizlar-a, uning ismi nima? („Lolaxon“). Bugun biz u bilan o‘ynaymiz. Nasiba, sen Lolaxonni uxlat, Gulnoza, sen Nasibadan qo‘g‘irchoqni o‘ynash uchun mana bunday deb so‘ra: Nasiba, iltimos, menga qo‘g‘irchoq Lolaxonni berib tur“. Bolalar shu tariqa bir-birlaridan Lolaxonni xushmuomalalik bilan so‘raydilar va muloqot qilishga kirishadilar. Tarbiyachi bolalarning so‘z va jumlalarni aniq hamda to‘g‘ri talaffuz qilishlariga ahamiyat beradi.

So‘ngra stol ustiga kuchuk va mushuk o‘yinchoqlarini qo‘yadi. Bolalardan ularning nimaligini so‘raydi. Tarbiyachi: „Bolalar, hozir men sizlarga topishmoqlar aytaman, sizlar topasizlar“, deb mushuk va kuchuk haqida topishmoqlar aytadi. (*Bolalar topishmoqlarni topishga qynalsalar, tarbiyachi ularga yordam beradi*).

Tarbiyachi topishmoqlarni bir necha marta takrorlaydi. Bolalar tarbiyachiga qo‘silib topishmoqlardagi ba’zi so‘zlarni aytadilar.

64- mashg‘ulot.

Mavzu: „Kim nima qilayapti?“ ta’limiy mashqi. „Suvjon“ ovutmachog‘ini takrorlash.

Maqsad: bolalarning kattalar mehnati haqidagi tasavvurini aniqlash, mehnat harakatlari, kasblar va ba’zi mehnat qurollari nomini to‘g‘ri atashga o‘rgatish, „s-s-s“ tovushini to‘g‘ri talaffuz qilishni shakllantirish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi stoli ustiga mavzuli rasmlar qo‘yilgan. Masalan, buvi tikayapti, ona ko‘ylakni dazmollayapti, farrosh hovlini supurayapti, sartarosh soch turmaklayapti, shifokor bolani davolayapti va boshqalar.

Tarbiyachi bolalarni rasmlar bilan tanishtiradi. Ularni stol oldiga chaqirib, bittadan rasm olib u haqida gapirib berishlarini so‘raydi. Bir bola chiqib, rasm oladi va gapira boshlaydi. Tarbiyachi bolaga savollar bilan murojaat qilib, jumlalar tuzishiga yordam beradi. Bolalar qo‘llaridagi rasmlar haqida so‘zlab beradilar. Tarbiyachi ularni to‘ldiradi.

Tarbiyachi hamma rasmlarni olib qo'yib, bolalarga „Suvjon“ ovutmachog'ini eslashni taklif etadi: „Jo'mrakdan (*rasm ko'rsatiladi*) oqayotgan suv qanday tovush chiqaradi?“ („S-s-s“). Yuvinayotgan bolalar rasmini ko'rsatib, „Suvjon“ ovutmachog'ini aytadi. Mashg'ulot oxirida bolalarga ovutmachoqni birgalikda aytishni taklif etadi.

65- mashg'ulot.

Mavzu: xona o'simliklari va kurtak yozayotgan shoxni kuzatish.

Maqsad: bolalarga tanish bo'lgan fikus va xitoy o'ti o'simliklari nomini eslashga yordam berish, kurtak yozayotgan shoxni kuzatish, bolalarga o'simliklar tabiatning jonli vakillari ekani, ular o'sishi, suv ichishi haqida gapirib, tabiatga nisbatan mehr-muhabbatli bo'lishga o'rgatish.

Mashg'ulotning borishi.

Bolalar oldida fikus va xitoy o'ti o'simliklari turibdi. (*Katta yoshdag'i bolalar bilan asparagus (archa) xona o'simligi ham kuzatiladi*). Tarbiyachi bolalardan o'simliklar nomini eslashni so'raydi. Fikusning kichik daraxtga o'xshashligini bolalar yodiga soladi. Poyasi va barglarini ko'rsatib, ularning qandayligini so'raydi. („Poyasi va barglari katta“). Tarbiyachi fikus o'simligining barglari toza ekanligiga bolalar diqqatini jalb etib, o'simlik barglarini yaqinda nam latta bilan birgalashib artganliklarini eslatadi.

Bolalar fikus va xitoy o'ti o'simligini bir-biri bilan taqqoslaydilar. („Fikusning barglari katta, xitoy o'ti o'simligining barglari uzun va ingichka, archa o'simligining barglari mayda va ko'p“).

Tarbiyachi o'yinchoq ayiqchani olib keladi. Ayiqcha bolalardan o'simliklarni ko'rsatish va nomini aytishni so'raydi. Masalan, „Baxtiyor, iltimos, menga fikus o'simligini ko'rsat, bu o'simlikning nomi nima? Qaysi o'simlikning barglari uzun va ingichka?“ („Xitoy o'ti o'simligining“).

Ayiqcha bolalarga o'zi bilan bekinmachoq o'ynashni taklif qiladi. Ayiqcha: „Men qaysi o'simlik orqasiga bekinganimni aytинг“, — deydi.

Tarbiyachi o'simliklarning jonli tabiat vakillari ekanligi, ularning o'sishi, suv ichishi haqida gapirib beradi. U o'simliklarni sug'oradi.

Tarbiyachi terak va tol shoxini ko'rsatadi. Bolalar diqqatini kurtaklarga qaratib: „Bu kurtaklar barglarning uychalari, ular hozir

uchalarida uylab yetibdilar. Kunlar isib ketgach, barglar uyg'onadi va burunlarini ko'rsatib kurtaklar ichidan chiqadi“.

Tarbiyachi shoxlarni suvgaga solib „Tabiat burchagi“ga qo'yadi. Kurtaklarning barg chiqarishini mashg'ulotdan tashqari paytlarida ham bolalar bilan kuzatib boradi.

66- *mashg'ulot*.

Mavzu: shoir Habib Rahmatning „Oyijonim“ she'rini o'qib berish, quvnoq va qiziqarli rasmlar ko'rish.

Maqsad: bolalarga she'r mazmunini tushunishga yordam berish, she'rni bir necha marta eshitish istagini uyg'otish, „z“ tovushini talaffuz qilishga, yumorni tushunishga o'rgatish.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi bolalarga tanish bo'lgan qo'g'irchoq Lolaxonni ko'rsatadi. Bolalar uning ismini aytadilar. Tarbiyachi: „Bolalar, Lolaxon sizlar bilan birga „Oyijonim“ she'rini eshitishga keldi“, — deydi. Tarbiyachi she'rni shoshilmasdan, 2—3 marta ifodali aytib beradi.

Lolaxonga qiziq rasmlar ko'rsatishni bolalarga taklif etadi. Bolalarga rasmlarni ko'rsatibgina qolmay, ularning nima uchun qiziqligini gapirib berishlarini so'raydi. Lolaxon bolalarga rasmlarga oid savollar beradi.

„Z-z-z“ deb tarbiyachi chivin uchib kelganini aytadi. (*Rasm ko'rsatadi*). Tarbiyachi: „Chivin ham qiziqarli rasmlarni tomosha qilishni yaxshi ko'radi, u „z-z-z“ deb ashula aytadi. U qanday ashula aytadi? („Z-z-z“)“. Yana qiziqarli rasmlardan ko'rsatib, ularda nimalar tasvirlanganini gapirib beradi.

67- *mashg'ulot*.

Mavzu: „Bolalar kubiklar o'ynamoqdalar“ rasmini ko'rish.

Maqsad: bolalarning *uzun, kalta* sifatlari haqidagi tasavvurlarini aniqlash. Bolalarni bu so'zlardan nutqlarida foydalanishga undash, geometrik shakllar nomlarini anglatadigan so'zlarni bolalar nutqida faollashtirish. Bolalarni rasm mavzusini tushunishga, savollarga javob berishga, tasvir haqidagi o'z fikrlarini bildirishga o'rgatishni davom ettirish.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachining stoliga kubiklar, g'ishtchalar, darvozacha kabi qurilish shakllari, yonidagi stolga esa uzun, kalta taxtacha va tayoqchalar qo'yilgan.

Tarbiyachi bolalardan birini chaqirib, undan uzun taxtacha va uzun tayoqchani ko'rsatishni, ularning qanaqaligini aytib berishini so'raydi. („Mana bu uzun taxtacha“).

Tarbiyachi bolalarga stoldan xohlagan predmetini olish va uning qanday ekanligini aytib berish topshirig'ini beradi. (*4—5 ta bolaning javobi*). Tarbiyachi predmetlarni bir-biri bilan taqqoslash uchun ularni ustma-ust qo'yish kerakligini aytadi. Shundan so'ng taxtacha va tayoqchalarni stol ustidan olib qo'yadi. Bolalar diqqatini „Bolalar kubiklar o'ynamoqdalar“ rasmiga jalb etadi. Tarbiyachi rasmida nimalar tasvirlanganligini gapirib beradi.

„Bir qizcha katta darvoza qurdi“. Bolalardan qizcha qurgan darvozani ko'rsatishni so'raydi va ularni darvoza qurishga taklif etadi. (*Kerakli shakllar avvaldan tayyorlab qo'yilgan bo'ladi*). Tarbiyachi bolalardan bola qurgan darvoza bilan rasmdagi darvozani taqqoslashni so'raydi va ularga yordam beradi. „Darvozaning yuqorisi qizil, pasti sariq“. Bolalar qaytaradilar.

Tarbiyachi bolalar diqqatini rasmdagi bola qurgan qizil minoraga jalb etib savol beradi: „Bola nima qurdi?“ Tarbiyachi bolalardan rasmdagi qizil ko'ylakli bola mashinada nima olib ketayotganini so'raydi. Tarbiyachi: „Qizil ko'ylakli bola nima uchun mashinada kubiklar olib ketayapti?“, — deydi. („Quradi yoki bolalarga beradi“). Tarbiyachi suhbatni davom ettirib, bolalardan: „Siz rasmda yana nimalarni ko'rayapsiz?“ — deb so'raydi. (*Javoblarni eshitib, kuzatuvchan bolalarni rag'batlantiradi*).

Mashg'ulot oxirida quyidagi hikoya aytib beriladi.

„Kubiklar bilan o'ynash yaxshi, qiziq. Do'ppi kiygan bola baland minora qurdi. Minora juda chiroyli chiqdi. Minoraning pastki qismi sariq, tepasi qirrali va qizil. Qiz bola unga qarashayapti. U darvoza qurdi, qizil ko'ylakli bola — haydovchi. U *bib-bib-bib*, deb signal berib, men sizlarga yana kubiklar olib keldim, deyapti“.

Tarbiyachi hikoyani tugatib, bolalarni rasm oldiga taklif etadi va yana bir marta ko'rishni so'raydi.

68- mashg‘ulot.

Mavzu: Quddus Muhammadiyning „Bo‘taloq“ she’ri. „Nima qanday qadam tashlaydi?“ ta’limiy o‘yini.

Maqsad: bolalarni yangi she’r bilan tanishtirish, uni qayta aytish jarayonida bolalarni she’r so‘zlarini aytishga undash, baland-past ovozda va pichirlab gapirishga o‘rgatish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi flanelegrafda tuya va bo‘taloq rasmlarini bolalarga ko‘rsatadi. Tuya va bo‘taloqning tashqi ko‘rinishi haqida gapirib, she’rni 2—3 marta ifodali o‘qib beradi.

Tarbiyachi o‘yinchoq ayiq va ayiqchani ko‘rsatib: „Bu katta ayiq, bu esa kichkina ayiqcha, uning nomi „Kichkintoy“, — deb aytadi. Tarbiyachi bolalarga katta ayiqni qanday qadam tashlab yurishini ko‘rish va eshitishni taklif etadi. (*Ayiqning yurishini ko‘rsatadi va baland ovozda top-top-top deydi*). Kichik ayiqchani ham ko‘rsatadi. (*Past ovozda top-top-top deydi*). Bolalar bu taqlidiy tovushni bir necha marta qaytaradilar. Talaffuz qilishni o‘rganib olganlaridan so‘ng tarbiyachi oldiga shirma (parda) tortib, bolalarga uning orqasida qaysi ayiqcha yurganini aniqlashni taklif etadi.

Tarbiyachi shirma ortidan baland va past ovozda „top-top-top“ deydi, bolalar tovush qaysi ayiqqa tegishli ekanini aniqlaydilar. Tarbiyachi bolalarning tovushlarni diqqat bilan eshitishlariga, ovozni to‘g‘ri aniqlashlariga ahamiyat beradi.

69- mashg‘ulot.

Mavzu: shoira Agniya Bartoning „O‘yinchoqlar“ she’riy to‘plamidan she’rlar o‘qib berish.

Maqsad: bolalarni yangi she’rlar bilan tanishtirish, ularning mazmunini tushunishga yordam berish, bolalarni she’rlar ichidan o‘ziga yoqqanini ajratib olish malakasini shakllantirish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi Agniya Bartoning „Ayiq“, „Uloqcha“, „Fil“ sarlavhali she’rlarini o‘qib beradi. She’rlarni o‘qish jarayonida o‘yinchoqlar va rasmlar ko‘rsatadi.

Bolalar xohishiga qarab, ular tanlagan she'rlarni 2—3 marta o'qiydi. She'rdagi ba'zi so'z va jumlalarni aytishga harakat qilgan bolalarni rag'batlantiradi.

Tarbiyachi qaysi she'rlar bolalarga ko'proq yoqqanligini so'raydi va ularni qayta o'qib beradi. Agar bola she'rning nomi yoki nima haqidaligini aytib bera olmasa, unga o'yinchoq va rasmdan ko'rsatib berish taklif etiladi.

She'rlar o'qib bo'lingandan so'ng bolalar o'yinchoqlar o'ynaydilar.

70- mashg'ulot.

Mavzu: „Uy hayvonlari“ rasmini ko'rish. „Nima yo'q bo'ldi?“ ta'limi o'yini. Hayvonlar haqida she'rlar.

Maqsad: bolalarni ona va bola hayvonlarni bir-biridan farqlashga o'rgatish. Taqlidiy so'zlarni baland, past va ingichka ovozda talaffuz qilishni mashq qildirish.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi bolalarga uy hayvonlari rasmini ko'rsatadi (*sigir buzog'i bilan, echki ulog'i bilan*). Bolalar diqqatini sigirning kattaligi, buzoqchaning kichikligiga qaratadi. Tarbiyachi: „Sigirning shoxlari bor, u suzadi, buzoqchaning esa shoxlari yo'q. Ular hali o'sib chiqmagan.“ Sigir juda katta, u baland ovozda mo'raydi: „mo'-mo'-mo“, buzoqcha esa past ovozda mo'raydi, „mo'-mo'-mo“. Bolalar sigir va buzoqchaga o'xshab mo'raydilar.

Xuddi shu tarzda echki va uloqcha bir-biri bilan taqqoslanadi: „Echki katta, uning soqoli va shoxlari bor. Uloqcha esa kichkina, uning shoxlari yaxshi ko'rinnmaydi. U to'polon qilib, „me-me“ deb o'ynaydi. Echki o'z uloqchalarini baland ovozda „me-me“ deb chaqiradi“.

Tarbiyachi rasmlarni olib qo'yib, stol ustiga sigir, buzoqcha, echki, uloqcha o'yinchoqlarini qo'yadi. Bolalar ularni tanib, nomlarini aytadilar.

„Nima yo'q bo'ldi?“ ta'limi o'yini o'ynaladi. „Sigir o'tlagani ketdi, sigir yo'q bo'ldi? Uloqcha suv ichgani chopib ketdi“. (*Tarbiyachi shu tariqa o'yinchoq hayvonlarni stol ustidan birma-bir olib qo'yib, o'yinni davom ettiradi*).

Tarbiyachi sigirni ko'rsatib: „Mo'-mo'-mo‘, u o'z bolasini chaqirayapti“, — deydi. (*Bir boladan narigi stolda turgan o'yinchoq buzoqchani olib kelishni so'raydi. O'yin shu tarzda davom etadi*).

71- mashg‘ulot.

Mavzu: tabiat qo‘ynida momaqaymoqni kuzatish.

Maqsad: bolalarning bog‘chada o‘sib yotgan o‘simliklar haqidagi tasavvurlarini aniqlash va boyitish. Ularni bilish va nomini atashga, rangiga, tuzilishiga qarab ajratishga o‘rgatish. Tabiatga mehr-muhabbat hislarini tarbiyalash. Momaqaymoqni puflab uchirishga o‘rgatish.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi bolalar bilan momaqaymoqlar o‘sib yotgan o‘tloqqa chiqadi. U bolalarga o‘tlar ustida o‘ynashni taklif qiladi. Tarbiyachi: „O‘tlar yashil va qalin. O‘tlar qanday ekan? („Yashil“)“.

Tarbiyachi bolalar diqqatini o‘tloqda o‘sayotgan sariq gullarga jalb etadi. Ulardan bu gullarning nomlarini bilish-bilmasliklarini so‘raydi, so‘ng o‘zi „bular — momaqaymoqlar“, deydi. Bolalarga momaqaymoqlarni topish va ularni uzmasdan oldida turishni taklif etadi. Bolalar momaqaymoq gulini ushlab ko‘rishadi, uning momiqqina ekanligini ta‘kidlaydilar. Tarbiyachi: „O‘tlar yam-yashil, momaqaymoqlar esa sap-sariq. Yam-yashil o‘tlar va sariq momaqaymoqlar juda chiroqli. To‘g‘rimi, bolalar?“ deydi. Tarbiyachi momaqaymoq oldiga o‘tirib, uning gulbandini bolalarga ko‘rsatadi: „Momaqaymoqning uzun gulbandi bor“. Bolalarga momaqaymoqni ehtiyyotkorlik bilan ushlab ko‘rishni taklif etadi.

Tarbiyachi: „Mana, qanday ajoyib gul — bu momaqaymoq. (*Gulni uzib bolalarga ko‘rsatadi*) uning uzun va silliq bandining yuqorisida momig‘i bor. (*Bolalar tarbiyachining so‘zlarini qaytaradilar*). Momaqaymoq pishib, oppoq sharchaga o‘xshab qoladi.

Tarbiyachi bolalarga pishib yetilgan momaqaymoqlarni topishni taklif etadi. Bolalar topshiriqni bajarib: „Men oppoq momiq sharcha topdim yoki menda mana bunday katta momiq sharcha bor“, deydilar. So‘ngra bolalar tarbiyachi taklifiga ko‘ra pishib yetilgan momaqaymoqlarni uzib puflashadi. Tarbiyachi: „Bu momiqlar momaqaymoqlarning urug‘lari, ulardan yangi momaqaymoqlar o‘sib chiqadi“, — deydi.

Tarbiyachi bolalarga bittadan momaqaymoqdan uzib olib, ulardan gulchambar yasab, uni bog‘cha mudirasiga yoki tarbiyachi yordamchisiga taqdim etishni taklif etadi. Gulchambar yasalgach, bolalar bilan taqdim etgani borishadi.

72- *mashg'ulot.*

Mavzu: „Ajoyib xaltacha“ ta’limiy o‘yini.

Maqsad: so‘zlardagi tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni mustahkamlash, so‘zlarni aniq aytishga o‘rgatish.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachining stoli ustiga xaltacha qo‘yilgan. Xaltachada bolalarga tanish bo‘lgan o‘yinchoq va predmetlar bor. O‘yinchoqlarga oid tovushlar ham bolalarga tanish. Tarbiyachi: „Menda ajoyib xaltacha bor, unga har xil o‘yinchoqlar solingan. Hozir biz hammamiz xaltachadagi o‘yinchoqlarni ko‘ramiz“. Xaltachadan bir o‘yinchoqni olib: „Bu nima?“ — deb so‘raydi („Mushukcha“). Tarbiyachi bolalardan navbat bilan xaltachadan bittadan o‘yinchoq yoki biror predmet olib bolalarga ko‘rsatishni, uning vazifasi haqida gapirib berishni so‘raydi. (*Masalan, kubik, undan uychalar yasaydilar*).

Tarbiyachi bolalarga bittadan rasm tarqatadi. Rasmlarda bonka, uy, vagon, divan, xo‘roz, o‘rdak, palto, botinka va boshqalar tasvirlangan. Tarbiyachi: „Bolalar, biz ko‘chaga chiqqanda oyog‘imizga nima kiyib chiqamiz? Shuni rasmlar orasidan topib ko‘rsating“, — deydi. (*Qaysi bolaning qo‘lida botinka rasmi bo‘lsa, o’sha bola rasmni ko‘rsatadi va „botinka“ deb aytadi*). Tarbiyachi: „Hovlimizda nima ququlab yuradi? (*Qaysi bolaning qo‘lida xo‘roz rasmi bo‘lsa, o’sha bola rasmni ko‘rsatadi, „xo‘roz“ „qu-qu“ lab yuradi deb javob beradi*).)

Bu o‘yin 2—3 marta takrorlanadi.

2—3 YOSHLI BOLALAR NUTQINI O'STIRISH VA TEVARAK-ATROF BILAN TANISHTIRISH MASHG'ULOTLARIDA FOYDALANILADIGAN BADIY ASARLARDAN NAMUNALAR

QUYONIM

(*Ovutmachoq*)

*Quyonim, quyonim, ne bo'ldi?
Kasalga o'xshab o'tiribsan.
Qoshingga o'sma qo'ymabsan,
Ko'zingga surma surmabsan.
Bitta o'ynab ber,
Bitta o'ynab ber!*

IKKI ECHKI

(*O'zbek xalq etagi*)

Ikki qaysar echki bo'lgan ekan.

Kunlardan bir kuni ikkalasi anhor ustidagi yakka cho'p ko'prik
ustida uchrashib qolibdi.

Ikkisidan biri yo'l berishi kerak ekan.

— Yo'l ber! — debdi biri.

— Sen yo'l ber! — debdi ikkinchisi.

— Seni deb orqamga qaytamanmi? — debdi birinchisi.

— Bo'lmasa seni deb men orqamga qaytamanmi? — debdi
ikkinchisi.

Shunday qilib ikkalalari achchig'lanib suzishib ketibdi.

Keyin birinchi echki uch qadam, ikkinchi echki uch qadam orqaga
qaytib, birdan bir-birlariga hamla qilishibdi. Shoxlari shoxlariga tegib,
chaqmoq chaqqandek bo'libdi.

„Qars“ etgan ovoz dalani tutibdi.

Ikki echki yumaloq yostiq bo'lib anhorga ag'darilib ketibdi.

*BO'RI BILAN ECHKI
(O'zbek xalq ertagi)*

Bir kuni echki podadan ajralgan ekan, oldidan och bo'ri chiqib qolibdi.

- Seni yezman! — debdi bo'ri.
- Meni-ya?
- Ha, seni!
- Rahm qil.
- Men juda ochman! Rahm qilmayman! Seni bir yamlab yutaman!
- debdi bo'ri.
- Juda och bo'lsang, mayli, yeyaqol. Senga rahmim keldi, — debdi echki.
- Yaxshi echki ekansan, — debdi bo'ri.
- Yana bir yaxshilik qilay. Sen qiynalib o'tirma, og'zingni olib tur, men shundaygina og'zingga kiraman-qo'yaman.

Bu gap bo'riga ma'qul tushibdi. U og'zini olib turibdi.

Echki nima qilibdi deng.

U tislani, uzozdan chopib kelibdi-da, kuchining boricha bo'rining og'ziga suzibdi. Bo'ri shu zahoti hushidan ketibdi.

Bo'ri hushiga kelib qarasa, jag'i yirtilgan, hammayog'i tirnalgan, a'zoyi badani qaqlab og'rir ekan. Echkidan esa nom-nishon ham yo'q emish.

*FIL BILAN XO'ROZ
(O'zbek xalq ertagi)*

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, dakang xo'roz bilan fil bor ekan. Kunlardan bir kun dakang xo'roz filning oldiga kelib, qattiq qichqiribdi:

— Qu-qu-qu-quv!

Fil hayron bo'libdi: „Muncha chiranadi bu“. Xo'roz hammayoqni titib, cho'qib, don terib yeyaveribdi, yana:

— Qu-qu-qu, quv-v-v! — deb qichqiraveribdi.

Uning ovozini eshitib, „bir o'xshatay buni“, deb:

— Kim ko'p ovqat yeydi, senmi yo menmi? — so'rabdi shunda fil. Xo'roz:

— Men ko'p yezman! — debdi chiranib.

Ular kim ko'p ovqat yeyishdan garov bog'lashibdi.
Fil juda ko'p ovqat yebdi, to'yib uyquga ketibdi.
Uyg'onib qarasa, xo'roz hali ham donlab yurganmish, fil yana ovqat
yeya boshlabdi. Ovqatni yeb bo'lib, yana uyquga ketibdi.

Bir vaqt uyg'onib qarasa, kech bo'lib qolibdi. Xo'roz bo'lsa haliyam
donlab yurgan emish.

— Qu-qu-qu! — dermish xo'roz.

— Yeb to'yimas ekan-kul! — debdi fil hayron bo'lib. — Bunaqa
jonivorni sira ko'rgan emasman.

Xo'roz garovda yutgach, o'zicha: „Filning ustiga chiqib bir tomosha
qilay“, deb o'yabdi.

U pir etib uchib, filning ustiga chiqibdi.

Filning jon-poni chiqib ketibdi.

— Voy-dod! Meni yeb qo'yadi! — deb qichqiribdi-da, shu
dochganicha o'rmonga kirib ketibdi.

Xo'roz bo'lsa uning orqasidan qarab, qanotlarini tapillatib:

— Qu-qu-qu-quv! Men zo'rman! — deb qichqiribdi.

S H O L G ' O M
(Rus xalq ertagi)

Bobo sholg'om ekibdi. „Sholg'om, sholg'om, qanddek bo'lib o's.
Sholg'om, sholg'om, katta bo'lib o's“, — debdi chol.

Sholg'om qanddek shirin, kattakon bo'lib o'sibdi.

Bobo sholg'omni yerdan tortib olgani boribdi. Tortib-tortib
ko'ribdi, lekin tortib ololmabdi.

Bobo buvini chaqiribdi.

Buvi boboni,
Bobo sholg'omni

tortib-tortib ko'rishihibdi, lekin tortib olisholmabdi.

Buvi nabirasini chaqiribdi.

Nabirasi buvini,
Buvi boboni,
Bobo sholg'omni

tortishibdi-tortishibdi, lekin tortib olisholmabdi. Nabirasi kuchugini
chaqiribdi.

*Kuchuk nabirani,
Nabirasi buvini,
Buvi boboni,
Bobo sholg'omni*

tortishibdi-tortishibdi. Lekin tortib olisholmabdi. Kuchuk mushukni chaqiribdi.

*Mushuk kuchukni,
Kuchuk nabirani,
Nabira buvini,
Buvi boboni,
Bobo sholg'omni.*

Tortishibdi-tortishibdi. Lekin tortib olisholmabdi. Mushuk sichqonni chaqiribdi.

*Sichqon mushukni,
Mushuk kuchukni,
Kuchuk nabirani,
Nabira buvini,
Buvi boboni,
Bobo sholg'omni*

tortishibdi-tortishibdi. Oxiri tortib olishibdi.

*BO'G'IRSOQ
(Rus xalq ertagi)*

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir chol bilan kampir bor ekan. Chol kampirga:

- Kampir, menga bo'g'irsoq pishirib bergin, — debdi.
- Axir, nimadan pishirib berayin? Un yo'q-ku! — deb javob beribdi kampir.

— E, kampir! Suprani qoqib sidirgin, quti ichini supurgin, qarabsanki, birpasda bo'g'irsoqqa yetadigan un yig'ilib qoladi, — debdi chol.

Kampir shunday qilibdi: suprani sidirib, quti ichini supurib, birikki hovuch un yig'ibdi. Unni qaymoqqa qoribdi, zuvala yasab, bo'g'irsoq qilibdi, tovaga solib yog'da pishiribdi-da, sovisin, deb derazaga qo'yibdi.

Bo‘g‘irsoq derazada yotaverib zerikibdi, birdaniga yumalab so‘ri ustiga tushibdi, yana bir yumalab yerga tushibdi, tag‘in bir yumalab eshik yoniga boribdi, ostonadan bir sakrab, dahlizga chiqibdi, dahlizdan zinapoyaga o‘tibdi, zinapoyadan hovliga tushibdi, hovlidan tashqariga chiqib, olg‘a qarab ketaveribdi.

Bo‘g‘irsoq yo‘lda yumalab ketayotganida bir quyon chiqib qolibdi.

— Bo‘g‘irsoq, bo‘g‘irsoq! Men seni yeypman, — debdi quyon.

— Yo‘g‘-e, meni yemagin, shalpanquloq, so‘zimga qulq solgin, senga ajoyib qo‘sinq aytib beraman, — debdi bo‘g‘irsoq va qo‘sinq aytibdi:

— *Men bo‘g‘irsoq, bo‘g‘irsoq,
Supradagi un-urvoq.
Supurishib oldilar,
Qaymoqqa xo‘p qordilar.
Pishirdilar tovada,
Sovitdilar havoda.
Qochib ketdim bobomdan,
Qochib ketdim buvimdan.
Eshit, quyon, bo‘ldi, bas,
Sendan qochish hech gapmas!*

Bo‘g‘irsoq qo‘sinqini tamomlab, yana olg‘a qarab yumalab ketibdi. Quyon ahmoq bo‘lib qolaveribdi.

Bo‘g‘irsoq yumalab ketaveribdi, shunda ro‘parasidan bir bo‘ri chiqib:

— Bo‘g‘irsoq, bo‘g‘irsoq, men seni yeypman, — debdi.

— Yo‘g‘-e, meni yemagin, bo‘z bo‘ri, senga ajoyib ashula aytib beraman, — debdi bo‘g‘irsoq.

Bo‘g‘irsoq shunday ashula aytibdi:

— *Men bo‘g‘irsoq, bo‘g‘irsoq,
Supradagi un-urvoq.
Supurishib oldilar,
Qaymoqqa xo‘p qordilar.
Pishirdilar tovada,
Sovitdilar havoda.
Qochib ketdim bobomdan,
Qochib ketdim buvimdan.*

*Eshit, bo'ri, bo'ldi, bas,
Sendan qochish hech gapmas!*

Bo'g'irsoq yana olg'a qarab yumalab ketaveribdi, bo'ri ahmoq bo'lib qolaveribdi...

Bo'g'irsoq yumalab-yumalab borayotganida, ro'parasidan ayiq chiqib qolibdi.

— Bo'g'irsoq, bo'g'irsoq, men seni yeyman, — debdi ayiq.

Bo'g'irsoq qo'shiq aytibdi:

— *Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq,
Supradagi un-urvoq.
Supurishib oldilar,
Qaymoqqa xo'p qordilar.
Pishirdilar tovada,
Sovitdilar havoda.
Qochib ketdim bobomdan,
Qochib ketdim buvimdan.
Eshit, ayiq, bo'ldi, bas,
Sendan qochish hech gapmas!*

Shunday qilib, bo'g'irsoq bir yumalab, qochib ketibdi, ayiq ahmoq bo'lib qolaveribdi...

Bo'g'irsoq yumalab-yumalab ketayotganida, ro'parasidan bir tulki chiqib qolibdi-da:

— Salom, bo'g'irsoq! Qanday chiroylisan, xuddi qip-qizil mag'iz-daysan-a! — debdi.

Bo'g'irsoq judayam taltayib ketibdi-da, qo'shiq aytibdi:

— *Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq,
Supradagi un-urvoq.
Supurishib oldilar,
Qaymoqqa xo'p qordilar.
Pishirdilar tovada,
Sovitdilar havoda.
Qochib ketdim bobomdan,
Qochib ketdim buvimdan.
Eshit, tulki, bo'ldi, bas,
Sendan qochish hech gapmas!*

— Ajoyib qo'shiq ekan! — debdi tulki. — Eh, attang, bo'g'irsoq, men qarib qolibman, qo'shig'ingni yaxshi eshitmayapman, tumshug'imga chiqib, yana bir marta qattiqroq aytib bergen.

Bo'g'irsoq tulkining tumshug'iga sakrab chiqib, o'sha qo'shig'ini aytibdi.

— Rahmat, bo'g'irsoq, ajoyib qo'shiq ekan. Yana eshitgim kelyapti. Tiliimga chiqib, oxirgi marta bir qo'shiq aytib ber.

Tulki shu so'zlarni aytibdi-yu, tilini chiqaribdi. Bo'g'irsoq laqillab, lip etibdi-da, tulkining tiliga chiqibdi. Tulki bo'lsa, „xap!“ etib uni yeb qo'yibdi.

A.Barto

АҶИҚЧА

*Polga tashlab ayiqchani,
Uzishgandir qo'lin ham.
Men uni tashlamayman,
Chunki yaxshi ayiqcham.*

M.Asqarov tarjimasi.

УЛОҚЧА

*Uloqcham bordir meni,
O'zim boqaman uni.
Uloqni ko'm-ko'k bog'ga,
Olib chiqqum tong chog'da.

Adashsa bog'da ba'zan
O't ichidan topaman.*

Yu.Toshov tarjimasi.

FIL

*Uxlash vaqtি bo'ldi! Buzoq mudrar-ku,
Yonboshlab olgan qutichada u.
Karavotda yotar karaxt ayiq ham,
Faqatgina filboy uxlamas bu dam.
Boshin chayqab turar doim,
U filoyimga qiladi ta'zim.*

M.Asqarov tarjimasi.

Quddus Muhammadiy

Hamidulla Yoqubov

BO'TALOQ

*Tuya bola — bo'taloq,
Chopib otar shataloq.
Shirmoy kulcha dumaloq,
Bo'taloqjon, bo'taloq.
Hadeb otma shataloq.
Ba'zi bir yer qatqaloq,
Yerdan yema shapaloq.*

Asqad Muxtor

KENGURU

*Kenguru
Bolasining
Manglayi tirtiq ekan:
Tushib qopti —
Onasining
Cho'ntag'i yirtiq ekan.*

Habib Rahmat

OYIJONIM

*Oyijonim, oyijonim
o'zimning.
Yaxshisiz-ey, mehribonim
o'zimning.
Kelmanin-da sira malol
sizga-yey.
Mehringizning chek-cheki yo'q
bizgayey.
Oyijonim bitta ajomlay,
Mehribonim bitta ajomlay.*

UCHGA KIRDIM

*Uchga kirdim,
Uchga kirdim.
Men — sportchi,
Kuchga kirdim.
Bo'yimni narvon, derlar,
O'zimni polvon, derlar.*

Qambar Ota

JO'JACHA

*Chipor jo'jacha,
Chopar jo'jacha,
Don-dunni izlab
Topar jo'jacha.
To'pidan ajrab,
Adashgan zamon,
Chiv-chivlab yelar
Onasi tomon.*

Anvar Obidjon

„TAQQOSLASH“

*Itga qarab:
„Bobov!“ dedim.
It xo'mrayib:
„Vov-vov!“ dedi.
O'rtog'im:
„Qo'y, Omon, — dedi,
Itim sendan
Yomon“, dedi.*

ISHONCHLI DO'ST

— *Nega Quyon va Bo'g 'irsoq
Chin o'rtoq?*
— *Chunki Quyon yemaydi-da
Bo'g 'irsoq.*

MƏHMƏNGƏ TAKLIF

— *Qo'shnijonu qo'shnijon?*
— *Labbay, qo'shnim Sevaraxon!*
— *Uyga chiqing tez, chaqqon,
Kelishdi uyga mehmon.*
— *Taq-tasadduq.*

SHARIFAXON

Sharifaxon oy,
Yaxshilikka boy.
Yaxshiligidan
Osmondagi oy.
Qo'llariga gul,
Og'ziga moy.

*UCH YOSHGA
TO'LGANLAR*

Olmani ham
G'ajiyman,
Holvani ham
G'ajiyman.
Dema: „Qancha
Tishing bor?“
Sening nima
Ishing bor?

TAJJIVOYNING ERTAGI

*Qo'ng'ir Ayiq —
Po'stin ekan.*
Bo'ri — charm
Kostyum ekan.

*Tulki esa —
Telpak ekan...*
Biz uchun bu
Ertak ekan.

Rustam Nazar

BEBOSH

Oq ko'yakni
Kiyvolib —
Ko'chaga
Chiqdi G'olib.
Ko'p vaqt o'tmay
Oradan,
qaytib keldi
Qorada!

Odil Abdurahmon

USTA

Men ham kichik
Ustaman.
O'z ishimga
Puxtaman.
Dadam bilan
Ertalab,
Yog'och, taxta
Randalab,
Uycha yopdik
Tovuqqa,
Qolmasin deb
Sovuqqa.

KULCHANON

Dilnozaning buvisi shirin kulchanonlar yopdi. U Dilnozaga: „Bolam, mana senga shirin kulcha, sen uni o'rtoqlaring bilan bo'lishib, bir joyda o'tirib, uvog'ini yerga to'kmasdan, avaylab yegin“, — dedi. Dilnoza buvisiga rahmat aytdi. Buvisi: „Osh bo'lsin“, — dedi.

Dilnoza ko'chaga chiqdi. U ko'chada o'rtoqlari Baxtiyor, Salimjon va Rustamjonlarni ko'rdi. Ularni chaqirib, kulchasidan berdi. Ular ariq bo'yiga o'tirib, kulchanonni uvoqlarini to'kmasdan, maza qilib yedilar.

Bolalar: „Rahmat senga, Dilnoza“, deyishdi. Dilnoza bolalarga xuddi buvisiga o'xshab: „Osh bo'lsin“, — deb javob berdi.

Umarali Qurbanov

HĀSHĀR

*Qo'rqlmay ishdan
Nor ikkimiz
Devor urdik.
Kubik-g'ishtdan
Jajji ko'rkan
Uycha qurdik.
Bitganda ish —
Zo'r qurilish
Yayrab ketdik:
Uychamizni
Qo'g'irchoqqa —
Sovg'a etdik...*

Abdurahmon Akbar

SUVJON

*Suvjon, suvjon, hoy suvjon,
Lolaxonning qo'lin yuv.*

Suvjon, suvjon, hoy suvjon,

Lolaxonning yuzin yuv.

Yuzini yuvsang toza,

Yaraqlaydi yuzlari.

Ko'zini yuvsang toza,

Charaqlaydi ko'zlari.

Yuvinish qandayin soz,

Rahmat senga, suv — shovvoz!

MUSHUKCHAM

*Mushukcham, hoy mushukcham,
Kelgil, birga o'ynaymiz.
Bir-birimiz quvlashib,
Hovlimizda quvnaymiz.*

Yungi momiq mushukcham,

Unutmagin hech qachon,

Tirnoqlarni o'stirib

Yurish juda ham yomon!

ERTA TONGDA

*Quyosh chiqdi,
Uyg'ondi g'ozlar,
Chiqarishib
Baland ovozlar,
G'oq-g'oqlashib
Tushdilar yo'lga,
Yuvinishga
Kattakon ko'lga.
Qo-qolashib
Tovuqlar qoldi.
Qlu-qlulashib
Kurkalar qoldi.
G'a-g'alashib
Quvnoq o'rdaklar
Ergashdilar —
Ko'lga yo'l oldi.*

ALLA

*Alla, bolam, allayo,
Uxla, bolam, allayo.
Echki ulog'i bilan,
Sigir buzog'i bilan,
Tuya bo'talog'i bilan,
Qo'y qo'zichog'i bilan*

*Uxlab olmoqda orom.
Sen ham uxlab dam olsang,
Bo'lasan sog'lom.*

QO'G'IRCHOG'IM LOLAXON

*Qo'g'irchog'im Lolaxon,
Oy yuzlari shirmoynon.
Qop-qora qosh-ko'zları.
Shirin-shakar so'zları.
Paltosi xo'p yarashgan,
Hamma kulib qarashgan.
Ana shunday Lolaxon.
Kulishlari bir jahon.*

KULCHANON

*Kulchanon, kulchanon,
Buvim yopdi kulchanon.
Kulchanondan yegani
Chopib keldi Rustamjon.
Rustamjonga buvim der:
— O'zim aylanay sendan.
Uvoqlarin to'kmay ye,
Mana bu kulcha — mendan.*

2—3 YOSHLI BOLALARGA MASHG'ULOTLARDAN TASHQARI PAYTLARDA O'QIB BERISH UCHUN BADIY ASARLARDAN NAMUNALAR

Hurmatli hamkasabalar! Quyida berilayotgan badiiy asarlardan siz ertalabki soatlar, kunning ikkinchi yarmida, ta'til kunlarida, yoz oylarida foydalanishingiz mumkin.

Yo'ldosh Sulaymon

BUVIM

*Buvijonim qarilar,
Hatto yuzdan narilar.
Yo'qlagan onlarida,
Doim men yonlarida.
Suv desa, suv tutaman.
So'zlarini kutaman.*

Anvar Obidjon

UCH YOSHLILAR

— Olmaniyam
G'ajiyman.
Holvaniyam
G'ajiyman...
— O'zi nechta
Tishing bor?
— Seni nima
Ishing bor!

HA, QO'RQMA YAPSAN-A!

— Nega yulding
Betimni?
Chaqiraymi
Itimni!

— Xafa bo'lma,
Sulaymon.
Hozir seni
Silayman.

QIYALIKDA

Yiqildi-yu
Norqo'zi,
Qo'ldan tushdi
Taruvi.

Pastga chopar
Taruvi,
Ishlamasdan
„Tormizi“.

O'ZIGA QIYOSLAB

Uxlab yotar
Begemot,
Savol berdi
Menga Ot:

— Bu hayvonmi,
Akasi?
Unda,
Qani taqasi?

QAYOQQA YURAY?

Muhabbatda
Rubob bor,
Muhammadda
Kitob bor.

O'ynaklik, der
Muhabbat,
O'ynaklik, der
Muhammad.

KULCHALAR

Anjirginam,
Anjirjon,
Mitti-mitti
Kulchanon.

Ko'pchib
Tuproq-xamirda,
Pishding
Quyosh-tandirda.

SOG'INCHLI SALOM!

Xo'jamboydan
Xat keldi,
Xat ichida
Pat keldi.

Hayron qoldim
Xo'jamga,
Xat yozibdi
Jo'jamga.

QADRDONLAR

Men tomonga
Boqi kelar,
Qo'yni to'la
Qoqi kelar.

Men boraman
O'rik bilan,
Yegan yaxshi
Sherik bilan.

*HALI O'ZIM
BOLAMAN-KU!*

Dadajonim,
Dadajon,
Otim nega
„Otajon?“

Axir kimga
„O'ta“ man?
Shuni o'yla-a-b
Yotaman.

SUR MEHMON

G'ani bilan
Yo'ldosh,
Ichishardi
Sut osh.
Uchib kelib
Pashsha,
Bering, dedi
Ashsha.

LATIFA ISHQIBOZI

Qand uzatsa ham
Oyim,
Tinmay yig'lar
Guloyim.

Buvim aytdi
„Afandi“,
Singlim darrov
Yupandi.

ACHINISH

G‘oyib bo‘ldi
Mirhoshim,
G‘oyib bo‘ldi
Kalishim.

Loyga botsa
Mirhoshim,
Rasvo bo‘lar...
Kalishim.

MASLAHATLAR

Ichib olib
Choyingizni,
Olib chiqing
Toyingizni.

Minib olib
Toyingizga,
Gul opkeling
Oyingizga.

KELIN POSHSHO

Mushuk bibi
Miyov, dedi.

Menga qarang,
Kuyov, dedi.

Bozorga tez
Borib keling.
Shirin sichqon
Olib keling.

Fayzi Shohismoil

BOG‘CHAMIZNING BALIG‘I

Ada-chi, bog‘chamizda
Baliqlar bor, chiroylik.
Ular shisha hovuzda,
Yuring, birga ko‘raylik.
Bittasi xo‘p alomat,
Yaltiroq, qizil tusda.
O‘zi kichik bo‘lsa ham
Suzishga juda usta.

Musulmon Asqarov

YONG‘OQ

Aslim so‘rsang,
Tog‘likman.
Ismim — Yong‘oq,
Yog‘likman.

ERKALAMALAR

Oppoq-oppoq, oppog‘im.
Qo‘zilar juni — qalpog‘im.
Hamma yomon, deganda
O‘zginamning oppog‘im.
Onasining ko‘zmunchog‘i,
Otasining o‘yinchog‘i.
Buvisining qo‘zichog‘i,
Opasining qo‘g‘irchog‘i.

Xudoybergan Ermatov

NOK

Nok — mevalar asili,
Erta pishar hosili.
Shirinligi xuddi bol,
Pishganini terib ol.

SHAFTOLI

Ko'pligidan shaftoli
Shoxi yerga bukilar.

Tirgovichlar ushholmay,

Shamol tursa, to'kilar.

ANOR

Yangi, qizil koptokdek
Bo'liq anor donasi.
Xushta'm, yoqut donlariga
To'liq har bir xonasi.

Raim Farhodiy

TONGGI SO'Z

Ahmad tongda uyg'ondi-yu yugurib hovliga chiqdi. Qarasa, baroq mushugi unga qarab kelyapti. Boshini egib, oyoqlari ostida erkalana boshladi.

— Miyov-miyov!

Ahmad hayron bo'lib turdi-da, yo'lida davom etdi. Shunda tong shamoli g'uvillab, unga ergashdi. Daraxt yaproqlarini shitirlatib, kuylay boshladi:

— G'uv-g'uv...

Qayerdandir bir chumchuqcha uchib kelib, daraxt shoxiga qo'ndi. So'ngra Ahmadga qarab, sayray boshladi:

— Chiriq-chiq-chiriq...

Ahmad qushchaning qo'shig'ini berilib tingladi-da, yana yo'lga tushdi. Qarangki, qadrdon kuchugi — Qoplon inidan chiqib qoldi. U ham to'ppa-to'g'ri Ahmadning oldiga chopib keldi. Dumini likillatib, vovulladi: — Vov-vov-vov!

Ahmad hovuz bo'yiga keldi. Suvda g'oz va o'rdaklar suzib yurishardi. Ular yaqinroq kelib, qichqirishdi:

— G'o-g'o-g'o!

— G'a-g'a-g'a!

Shu payt qo'shni uyning eshigi ochilib, Nigora ko'rindi. U jilmayib:

— Salom, Ahmad! — dedi.

— Salom, Nigora! — javob berdi Ahmad ham.

Shundagina u yo'lda uchratgan do'stlari — mushuk, shamol, Qoplon, g'oz va o'rdaklarning unga nima deyishganini tushunib oldi.

Bolalar, erta tongda aytildigan bu so'zning qanday so'z ekanini bilasiz-a?

Abdurahmon Akbar

ONĀ ONĀ-DA

Ko'ringanga

Toshbaqaxon,

O'g'ilchasin

Maqtar chunon:

— Bolaginam,

Oydakkina,

Gijinglagan

Toydakkina.

SHOTURSUÑÑIN G XOLASI

Qayda ko'rsa

Achomlab,

Qo'yvormas

Ahvol so'rab:

— Bo'ylaringdan,

Shotursun,

Xolaginang

O'rgilsin.

CHAQALOQ

Oyim kelsa

Eshikdan,

Jilmayadi

Beshikdan.

ĀLI - VĀLI

Qachon ko'rsam, Ali yurar
Ukasini arillatib.

Alidan yosh Vali bo'lsa,

Kitob o'qir sharillatib.

BEDAÑA

To'rqovoqni to'qillatib

Tinmay sayrar bedana:

— Ko'nglim uchun sepib qo'ying,

Hech bo'lmasa sedana...

MOHTOB

Ovunmadi

o'yinchoqqa,

Ovunmadi

qo'g'irchoqqa.

O'qiy boshlagandim

kitob,

Yig'lamasdan

qoldi Mohtob.

KUCHUKCHAM

Mayin yungli kuchukcham

Qarang, tushunar so'zim.

Uni mushtdekligidan

Katta qilganman o'zim.

Ovqat tutsam hozir ham

Quvonadi vovullab.

Go'yo rahmat degandek,

Qo'llarim qo'yar yalab.

Hurmatli hamkasaba, Cho'lpón nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Sizlar uchun 2007- yilda quyidagi metodik-qo'llanmalarini chop etishni rejashtirgan:

1. „Tarbiyachi kutubxonasi“ seriyasida 2- kitob „Tarbiyachiga 1001 maslahat“ turkumidan „Maktabgacha ta'lím muassasalarida ikkinchi kichik guruh bolalari (3—4 yosh)ga ta'lím-tarbiya berish“, „3—4 yoshli bolalar nutqini o'stirish va tevarak-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarining ishlanmalari“.

2. „Tarbiyachi kutubxonasi“ seriyasida 3- kitob „Tarbiyachiga 1001 maslahat“ turkumidan „Maktabgacha ta'lím muassasalarida o'rta guruh bolalari (4—5 yosh)ga ta'lím-tarbiya berish“, „4—5 yoshli bolalar nutqini o'stirish va tevarak-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarining ishlanmalari“.

3. „Tarbiyachi kutubxonasi“ seriyasida 4- kitob „Tarbiyachiga 1001 maslahat“ turkumidan „Maktabgacha ta'lím muassasalarida katta guruh bolalari (5—6 yosh)ga ta'lím-tarbiya berish, 5—6 yoshli bolalar nutqini o'stirish va tevarak-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarining ishlanmalari“.

4. „Tarbiyachi kutubxonasi“ seriyasida 5- kitob „Tarbiyachiga 1001 maslahat“ turkumidan „Maktabgacha ta'lím muassasalarida maktabga tayyorlov guruhi bolalari (6—7 yosh)ga ta'lím-tarbiya berish, 6—7 yoshli bolalar nutqini o'stirish va tevarak-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarining ishlanmalari“.

5. „Ota-onalar kutubxonasi“ seriyasida 1- kitob „Bolangiz maktabga tayyormi?“ turkumidan „Salomatlik alifbosi“.

6. „Maktabgacha ta'lím muassasasi mudirasining kutubxonasi“ seriyasida 1- kitob „Zamonaviy maktabgacha ta'lím muassasasiga rahbarlik qilish“ turkumidan „Maktabgacha ta'lím muassasasida ta'lím-tarbiyaviy ishlarga rahbarlik“.

SO'NGGI SO'Z

Aziz tarbiyachi murabbiylar! Kichkintoylar bilan mashg'ulotlar olib borish uchun bir qator maslahatlar berdik. Ulardan kundalik ish faoliyatizingizda foydalanib ko'ring. Maslahatlarimiz albatta o'z samarasini beradi, degan umiddamiz. Tajriba sifatida yaratilgan bиринчи qo'llanmamizdagi o'yinlar va ularning qahramonlariga xohishingiz hamda tajribangizga ko'ra ijodiy yondashib, o'zgartirishlar kiritishingiz mumkin. Kitob haqidagi fikr va mulohazalariningizni kutib qolamiz. Sizlarga kichkintoylarni tarbiyalashdek mas'uliyatli va sharaflı ishingizda kattadan-katta muvaffaqiyatlar tilaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. „Uchinchi mingyllikning bolasi“ tayanch dasturi.— 2000- yil, Toshkent. „Ma'rifat-madadkor“ nashriyoti.
2. „Uchinchi mingyillikning bolasi“ tayanch dasturining o'quv qo'llanmasi.— 2000- yil, Toshkent. „Ma'rifat-madadkor“ nashriyoti.
3. „Bog'chaga-do'mboqchaga“ — tuzuvchi Rauf Tolib. 1992- yil, Toshkent. „Cho'lpon“ nashriyoti.
4. *A.Obidjon.* „Juda qiziq voqeа“. 1987- yil, Toshkent. „Yulduzcha“ nashriyoti.
5. *H.Rahmat.* „Qiziq sovg'alar“. 1987- yil, Toshkent. „Cho'lpon“ nashriyoti.
6. *A.Akbar.* „O'yinqaroq bulutcha“. 1996- yil, Toshkent. „Cho'lpon“ nashriyoti.
7. „Воспитание и развитие детей раннего возраста“ под редакцией Т. М. Ляминой. Москва. „Просвещение“, 1981 г.
8. „Воспитание и обучение детей раннего возраста“ под редакцией Поблавой. Москва, 1986 г.
9. *Н.М. Аксарина.* „Воспитание детей раннего возраста“. Москва, „Медицина“, 1970 г.
10. Дошкольное воспитание. Журнал № 1–8. Москва, 2003 г.
11. *Л.А.Парамонова.* „Детское творческое конструирование“. Издат. дом. „Карапуз“, 1999 г.
12. *Н.П.Сакулина, Г.С.Комарова.* „Изобразительная деятельность в детском саду“. Издание 2-е исправленное и дополненное. Москва, „Просвещение“, 1982 г.
13. „Материалы и оборудование для детского сада“. Пособие для воспитателей и заведующих. Москва, Линка-пресс. 2004 г.
14. *О.С.Ушакова, А.Арушинова, А.И.Максаков, Е.М.Струнина, Т.М.Юртайкина.* „Занятие по развитию речи в детском саду“. Москва, „Совершенство“. 1999 г.
15. *В.В.Гербова, А.И.Максаков.* „Занятия по развитию речи в первой младшей группе детского сада“. Москва, „Просвещение“.

MUNDARIJA

So‘zboshi	3
Ilk yosh guruhi bolalari tarbiyasining vazifalari	6
Bolalar faoliyati va tarbiyasini tashkil etish	7
Sog‘lomlashadirish-chiniqtirish muolajalari	7
Kun tartibi jarayonlari	8
O‘z-o‘ziga xizmat qilish va madaniy-gigiyenik malakalarni tarbiyalash ..	11
Nutq tushunishni shakllantirish	13
Sayrlar	14
Mashg‘ulotlarda ta’lim berish	15
Nutq o‘stirish va tevarak-atrof bilan tanishtirish mashg‘ulotlari	16
FaoI nutqni o‘stirish	16
Bolalar harakatlarini rivojlantirish mashg‘ulotlari	17
Ta’limiy materiallar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar	19
Qurilish materiallari bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar (katta va kichik qurilish materiallari)	20
Musiqa tarbiyasi	20
Bolalarning mustaqil faoliyati	22
Ilk yosh guruhi bolalari bilan o‘ynaladigan o‘yinchoqlar	24
Ilk yosh guruhi bolalari xonalarini jihozlash	25
Ilk yosh guruhida o‘yin va ta’limiy jihozlarning namunasi	26
Ilk yosh guruhi bolalari hujatlarining yuritilishi, ta’lim-tarbiyani rejalashtirish, bolalar egallagan bilim, malaka va ko‘nikmalarning tahlili	28
2—3 yoshli bolalar faoliyatini tashkil etish va ularga ta’lim-tarbiya berish	33
2—3 yoshli bolalar tarbiyasining vazifalari	34
Bolalar faoliyati va tarbiyasini tashkil etish	35
Jismonan sog‘lomlashadirish ishlari	38
2—3 yoshli bolalarda turli malaka va ko‘nikmalarni tarbiyalash ..	38
2—3 yoshli bolalarning mehnat tarbiyasi	40
Mashg‘ulotlar	41
2—3 yoshli bolalar nutqini o‘stirish	42

Bolalarни төвак-атроф билан таништирish mashg'ulotlarini	
tashkil etish va o'tkazish metodikasi	45
Nutq tovush madaniyatini tarbiyalash	51
Tasviriy faoliyat	53
2—3 yoshli bolalar bilan „Qurish-yasash“ mashg'ulotlarini	
tashkil etish va o'tkazish	59
2—3 yoshli bolalar bilan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini	
tashkil etish va o'tkazish metodikasi	61
2—3 yoshli bolalar bilan o'ynaladigan harakatli o'yinlar	62
Sensor tarbiya	66
Musiqa tarbiyasi	67
Birinchi kichik guruh tarbiyachisining ish hujjatlari	69
2—3 yoshli bolalar tarbiyalanayotgan guruh xonalarining	
jihozlanishi (jihoz, material va o'yin burchaklari)	75
Voqeaband-rolli o'yinlar o'ynaladigan burchaklar jihozлari	76
Birinchi kichik guruh bolalari uchun taxminiy o'yinlar materiallari	77
2—3 yoshli bolalar nutqini o'stirish va tevarak-atrof bilan	
tanishtirish mashg'ulotlari ishlanmalari	80
1- mashg'ulot	80
2- mashg'ulot	81
3- mashg'ulot	82
4- mashg'ulot	82
5- mashg'ulot	84
6- mashg'ulot	85
7- mashg'ulot	85
8- mashg'ulot	86
9- mashg'ulot	87
10- mashg'ulot	88
11- mashg'ulot	89
12- mashg'ulot	90
13- mashg'ulot	91
14- mashg'ulot	91
15- mashg'ulot	92
16- mashg'ulot	93
17- mashg'ulot	94
18- mashg'ulot	94
19- mashg'ulot	95
20- mashg'ulot	96
21- mashg'ulot	97

22- mashg‘ulot	97
23- mashg‘ulot	98
24- mashg‘ulot	100
25- mashg‘ulot	101
26- mashg‘ulot	102
27- mashg‘ulot	103
28- mashg‘ulot	104
29- mashg‘ulot	104
30- mashg‘ulot	105
31- mashg‘ulot	106
32- mashg‘ulot	106
33- mashg‘ulot	107
34- mashg‘ulot	108
35- mashg‘ulot	109
36- mashg‘ulot	109
37- mashg‘ulot	109
38- mashg‘ulot	110
39- mashg‘ulot	111
40- mashg‘ulot	112
41- mashg‘ulot	113
42- mashg‘ulot	114
43- mashg‘ulot	115
44- mashg‘ulot	115
45- mashg‘ulot	116
46- mashg‘ulot	117
47- mashg‘ulot	118
48- mashg‘ulot	119
49- mashg‘ulot	119
50- mashg‘ulot	120
51- mashg‘ulot	121
52- mashg‘ulot	121
53- mashg‘ulot	122
54- mashg‘ulot	123
55- mashg‘ulot	123
56- mashg‘ulot	124
57- mashg‘ulot	124
58- mashg‘ulot	125
59- mashg‘ulot	125
60- mashg‘ulot	126

61- mashg'ulot	127
62- mashg'ulot	128
63- mashg'ulot	128
64- mashg'ulot	129
65- mashg'ulot	130
66- mashg'ulot	131
67- mashg'ulot	131
68- mashg'ulot	133
69- mashg'ulot	133
70- mashg'ulot	134
71- mashg'ulot	135
72- mashg'ulot	136
2—3 yoshli bolalar nutqini o'stirish va tevarak-atrof bilan tanishtirish mashg'ulotlarida foydalaniqidigan badiiy asarlardan namunalar	137
2—3 yoshli bolalarga mashg'ulotlardan tashqari paytlarda o'qib berish uchun badiiy asarlardan namunalar	148
Songgi so'z	154
Foydalaniqlan adabiyotlar	155

Ra'no Rahimova

Tarbiyachiga 1001 maslahat

*Maktabgacha ta'lim muassasasida ilk yosh va birinchi
kichik guruh bolalariga ta'lim-tarbiya berish,
2—3 yoshli bolalar nutqini o'stirish hamda tevarak-atrof
bilan tanishtirish mashg'ulotlari ishlammalari*

Muharrir *A.Akbar*

Badiiy muharrir *Sh.Odilov*

Rassom *G.Jirnov*

Texnik muharrir *Ye.Tolochko*

Sahifalovchi *A.Tillaxo'jayev*

Musahihh *M.Usmonova*

Bosishga 12.02.2007 yilda ruxsat etildi. Bichimi $60 \times 84^{1/16}$. Kegli 11, 10. Times garniturasi. Shartli b. t. 10,0+1,0. Nashr. b. t. 11,0+1,68 vkl. Adadi 3000 nusxa. 07-539 – buyurtma. Sharhnomalar № 65 –2005. Bahosi sharhnomalar asosida.

Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 129. Navoiy ko'chasi, 30.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'zbekiston“ nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30- uy.

74.1 **Rahimova, Ra'no.**

- R33 Tarbiyachiga 1001 maslahat/ R.Rahimova;
Mas'ul muharrir J.G.Yo'ldoshev . –T.: Cho'lpon
nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007 . – 160 b.
– (Tarbiyachi kutubxonasi).

BBK 74.1

ПАССЫЛКА